O'zbekistonning JSTga borgan yo'li bozor islohotlarining sustligi tufayli uzoq davom etgan. Mamlakat tashqi zarbalarga javoban proteksionizmni tanladi. Proteksionistik siyosat, garchi iqtisodiy inqiroz davrida ma'lum afzalliklarga ega bo'lsa-da, chuqur bozor islohotlarini o'tkazishga imkon bermagani uchun, umuman olganda, yuqori xarajatlarni keltirib chiqardi. Tashqi savdo cheklanganligicha qoldi va mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligi mintaqaning qolgan qismiga nisbatan past edi. Biroq, rahbariyat o'zgarishi bilan davom etayotgan islohotlarga optimizm bor.

JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun boshqa FSU davlatlariga qaraganda ko'proq foyda keltirishi mumkin. O'zbekiston iqtisodiy jihatdan ancha yopiq va mintaqa davlatlari orasida aholi jon boshiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi bo'yicha eng past o'rinda turadi. Import bojlarini pasaytirish iste'molchilarga ko'proq tanlov imkoniyatini beradi va takomillashtirilgan huquqiy va institutsional baza tufayli investitsion oqimlar oshishi mumkin. Eng muhimi, JSTga a'zo bo'lish bozor islohotlarini yanada o'tkazish imkonini beradi, bu esa mamlakatning orqaga chekinishini qiyinlashtiradi, balki imkonsizdir.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlar tarixini hisobga olsak (islohotlar ortidan proteksionizm), islohotlarning orqaga qaytish xavfini istisno qilib bo'lmaydi. Shuning uchun quyidagi tavsiyalar taklif etiladi:

- JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralarni tezlashtirish kerak;
- Ichki bozorlarda raqobatni ta'minlash uchun import bojlarini kamaytirish kerak;
- Tashqi savdo va investitsiyalar to'g'risidagi qonun hujjatlarini xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirish;
- Tashqi ishtirokchilar O'zbekistonning savdo siyosatidagi islohotlarni kuchli qo'llab-quvvatlashi, zaruratga qarab texnik va moliyaviy yordam ko'rsatishi zarur;
- Savdo siyosatini isloh qilish va O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishiga ko'maklashish tashqi ishtirokchilarning siyosiy hujjatlarida (masalan, Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyoga nisbatan strategiyasida) aks ettirilishi kerak.

JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun bozor islohotlarini ilgari surish va ularni qaytarib bo'lmaydigan qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Ochiq, shaffof va rivojlanayotgan iqtisodiyotga ega bo'lgan O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganidan keyin xalqaro biznes uchun yanada jozibador bo'ladi.

5. A Akhrorjon. (2022). Uzbekistan and the World Trade Organization management system. International scientific conference "Topical issues of the economy in modern ...
6. A Abdullaev. (2022). O'zbekiston iqtisodiyoti uchun jstga a'zo bo'lish sabab muammo va natijalari. Raqamli texnologiyalar va ta'lim istiqbollari 1 (2), 113-121
7. A Akhrorjon, K Zumradkhan. (2022). The impact and results of membership of the wto on the education system. Educational Research in Universal Sciences 1 (5), 24-32



## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKCHILIGI ASOSIDA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALARNING INVESTITSIYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ VA SUG'URTALASHNING O'RNI

**Qodirov Jasurbek Sharofitdinovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Bek-maf@mail.ru

+998 90 809 22 28

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2023-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2023-yil  <b>Jurnal soni:</b> 1  <b>Maqola raqami:</b> 11  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.248">https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.248</a></p>	<p>Ushbu maqolada davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalarning investitsiyaviy samaradorligini oshirishda soliq va sug'urtalash dastaklarini holati o'rganilgan. Shu bilan bir qatorda, mavzuga oid bir necha olimlar tadqiqotlari o'rganilgan holda umumlashtirilgan fikrlar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqot jarayonida, matematik-statistik formulalar hamda korrelyatsion-regression tahlil usullariga to'xtalangan. So'ngra olingan natijalar VIF, F-fisher, t-student mezon va p-value koeffitsiyentlari orqali tahlillar amalga oshirilgan. Natija va tahlillarga asosan, ilmiy xulosalar takliflar izlanishning oxirida ifodalangan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b>                      investitsion loyihalar, soliq to'lovlar, sug'urta badallari, o'zgarish sur'ati, davlat-xususiy sherikchilik(DXSH), korrelyatsiya, VIF koeffitsiyent, regression tahlil.</p>	

**Kirish.** Investitsion faoliyat odamda noaniqlik sharoitida amalga oshiriladi, shuning uchun bunday vaziyatda tavakkalchilik omilini hisobga olishimiz kerak. Yangi uskuna vositalarini sotib olishi va o'zlashtirilish paytida odatda, kelajakda shular hisobiga keladigan iqtisodiy samarani aniqlash murakkab jarayondir. Shuning uchun investitsion loyiha tahlili paytida ko'p muqobil investitsion loyihalar ko'rib chiqilib, yagona investitsion qaror qabul qilinadi.

Bunda loyihalarni ko'rib chiqishda bir necha kriteriy va parametrlardan foydalaniladi (qo'yilma hajmi, qoplanish muddati, jalb qilinadigan mablag' manbai), loyihalarni barcha kriteriyalar bo'yicha qarab chiqilgandan so'ng ichidan bittasi qabul qilinadi, shuning uchun yo'l qo'yiladigan tavakkalchilik yuqori bo'ladi. Investitsion qarorlarni qabul qilish ham boshqa boshqaruv qarorlarini qabul qilish singari san'atdir. Bu yerda tadbirkorning tajribasi, bilimi, mutaxassisligi va qolaversa, sezish holi muhim rol o'ynaydi.

Tadbirkorga jahon menejment xazinasida yig'ilib keladigan bilimlar, jumladan, menejment amaliyotida shakllanib qo'llanib keladigan investitsion loyihalarni baholash uslublari katta yordam berib keladi. Investorlar uchun investitsion qarorlar qabul qilish juda qiyin vazifa hisoblanadi. Bunda asosiy mezon korxonada qiymatlarini oshirish mezonlariga qaratiladi. Uning omillari bo'lib korxonada daromadlari o'sishi, moliyaviy risk yoki ishlab chiqarish harajatlarining kamayishi, korxonada ishlari samaradorligi darajasini oshirish hisoblanadi.

Real investitsiya loyihalari bo'yicha bunday natijalarga erishish uchun, har qanday loyihaning samaradorligini baholash zarur bo'ladi. Shunday qilib investitsiya loyihalarining samaradorligini aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Chunki loyihaning samaradorligini baholash darajasidan qo'yilgan kapitalning qaytib kelish muddati, korxonaning rivojlanish sur'ati hamda boshqa ijtimoiy- iqtisodiy muomalalarni hal qilish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ma'lumki, yangi qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan ob'yektni ishga tushirishni nazarda tutuvchi loyiha-tadqiqot ishlari qurilish-montaj ishlari va mijozga ko'rsatilgan xizmat xarajatlari smetasi doirasida amalga oshiriladi.

Bunda soliq to'lovlari va sug'urta badallari ( $S_{tsm}$ ), turli darajadagi byudjetlarni to'ldirishni nazarda tutadi va buni A.Y.Dobrin quyidagi formulani ta'kidlagan:

$$S_{tsm} = S_{ti} + S_{qmi} + S_m + S_q$$

$S_{ti}$  - loyiha-tadqiqot ishlari bajarishda soliq to'lovlari va sug'urta badallari;

$S_{qmi}$  - qurilish-montaj ishlari bajarishda soliq to'lovlari va sug'urta badallari;

$S_m$  - mijoz tomonidan o'z funksiyalarini bajarishdagi soliq to'lovlari va sug'urta badallari;

$S_q$  - shuningdek, qurilayotgan (rekonstruksiya qilinayotgan) obyekt materiallari, ehtiyot qismlari, inshootlar, shuningdek mashinalar, mexanizmlar va transport bilan ta'minlaydigan tashkilotlar (Dobrin, 2016).

Shuningdek, infratuzilma sohasida yirik uzoq muddatli investitsiya loyihalarini amalga oshirishda risklar va ularni sug'urtalash muammosi ko'p jihatdan XXI-asr boshlari 1990-yillar oxirida dunyoning yetakchi davlatlarida moliyaviy inqirozi va milliy iqtisodiyotlari barqarorligining pasayishi natijasida yuzaga keldi. Agar jahon amaliyotini hisobga oladigan bo'lsak, DXSH shartnomasini tuzishning zaruriy sharti sug'urta bo'lib, bu ularning risklarini kamaytirishning samarali usuli hisoblanadi. Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar kapitalning chiqib ketishiga va umuman investitsiya muhitining yomonlashishiga olib keladigan "ishonch inqirozlari" muammosiga duch keldilar<sup>28</sup>.

Shuni inobatga olgan holda, Y.M. Ilyinix infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni yo'naltirish va sug'urtalash segmentida xalqaro rivojlanish institutlari va moliyaviy tashkilotlarning roli sezilarli darajada oshdi, ular inqirozlardan va xavflarni sug'urtalashdan qo'shimcha kafolatlar tizimini yaratishning turli model va usullarini taklif qildi. 2010 yilda Rossiya bozori xorijiy sug'urta kompaniyalarining oqimi kirib keldi, buning natijasida sug'urtalanganlarning manfaatlarini himoya qilish sifati ortib bordi (Ильиних, 2010).

T.V. Pirogova va Y.M. Ilyinixlar infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda davlat sug'urtaga ma'lum talablarni qo'yish va xavflarning minimal paketini belgilash orqali muhim rol o'ynaydi. Shartnoma bo'yicha daromad oluvchi ba'zi hollarda davlatning o'zi, ba'zan esa - xususiy sherik bo'lishi mumkin. Expert RA reyting agentligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda, sug'urta kompaniyalari ekspertlarining fikriga ko'ra, sug'urtadan foydalanish samaradorligi bo'yicha birinchi uch o'rinni halokatli xavflar (tabiiy ofatlar, terrorizm va boshqalar), qurilish-montaj xatarlari, va yong'in va boshqa xavflar (yong'in, portlash, suv harakati) egallaydi. Bundan kelib chiqadiki, har uchala "rekord egalari" ham DXSH loyihalarida eng ko'p uchraydigan xavflar bo'limiga kiradi, shu sabab xususiy sherik xavflarni pudratchilarga qayta taqsimlashga intiladi (Пирогова ва Ильиних лар., 2016).

Hozirgi vaqtda sug'urtalovchilarning vazifasi nafaqat risklarni

<sup>28</sup> Развитие государственно-частного партнерства в России [Электронный ресурс]. – Режим доступа: [http://ruskline.ru/analitika/2009/02/17/razvitie\\_gosudarstvenno-chastnogo\\_partnerstva\\_v\\_rossii/](http://ruskline.ru/analitika/2009/02/17/razvitie_gosudarstvenno-chastnogo_partnerstva_v_rossii/) (дата обращения: 17.12.16).

sug'urtalash va sug'urta to'lovlari kafolatlash, balki sug'urta xarajatlari investitsiya xarajatlari og'irlashtirmasligi uchun loyihaning risklar va salbiy hodisalar (ehtimoliy yo'qotishlar) ehtimolining optimal sxemasini topishdir. Rossiya davlatida amalga oshirilayotgan DXSh obyektlarini sug'urtalash amaliyotiga qaraydigan bo'lsak, xorijiy sug'urta bilan solishtirganda, sug'urta darajasi minimaldir, bu esa loyiha investorlari uchun yuqori xavflarni keltirib chiqarayotganini ko'rishimiz mumkin.

Loyihaning tavakkalchiligini baholash uning tuzilishi va loyihaning moliyaviy va huquqiy sxemasini ishlab chiqish yo'lidagi birinchi qadamdir. Xatarlarni muvozanatli taqsimlash loyihani muddatidan oldin yakunlash ehtimolini minimallashtiradi va aslida bunday risklar yuzaga kelgan taqdirda tomonlarning tartibi va majburiyatlarini belgilaydi. Xususan, xususiy investimeng faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan risklarni (masalan, qurilish/rekonstruksiya bosqichida belgilangan muddatlarga rioya qilmaslik va smetadan oshib ketish va h.k.) xususiy investorga yuklash maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Loyiha-tadqiqot ishlarini ( $S_{iti}$ ) bajarishda soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlari miqdori quyidagi bog'liqlik bilan belgilanadi:

$$S_{iti} = S_{is} + S_{ij} + S_{it} + S_{im} + S_{id} + S_{iq}$$

$S_{is}$  - loyiha-tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida davlat byudjetidan tashqari jamg'armalariga sug'urta mukofotlari;

$S_{ij}$  - jismoniy shaxslarning (tadqiqotchilar va loyihachilar) daromadlaridan olinadigan soliqlar;

$S_{it}$  - loyiha- tadqiqot tashkilotlarining transport solig'i;

$S_{im}$  - loyiha- tadqiqot tashkilotlarining mulk solig'i;

$S_{id}$  - loyiha hujjatlarini ishlab chiqishdan olinadigan daromad solig'i;

$S_{iq}$  - loyihalash va tadqiqot ishlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i (QQS).

A.Y.Dobrin fikricha, sug'urta mukofotlari quyidagilardan iborat:

$$S_{is} = K_s \cdot F_{iti}$$

bunda:

$K_s$  - davlat nobyudjet fondlariga sug'urta mukofotlari stavkasi;

$F_{iti}$  - loyihalash va tadqiqot ishlarining narxidagi ish haqi fondi (LTI) (Dobrin, 2016).

Loyihalash jarayonida uning ishtirokchilari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning xarajatlar tarkibini tahlil qilishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqiladi (loyihalash va tadqiqot ishlari; qurilish-montaj ishlari; import qilinadigan materiallar ulushini taqsimlash bilan qurilishni amalga oshirish uchun etkazib beriladigan uskunalar, mashinalar va mexanizmlar, materiallar va resurslar va boshqalar). Yuqorida nazarda tutilgan ishlar jamoat temir yo'l transporti infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan yoki ko'rib chiqilgan loyihalarning tahlili haqiqiy materiallaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Yuqoridagilarni inobatga olib, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalardan to'lanadigan soliq to'lovlari va sug'urta badallari tahlilini amalga oshiramiz. Bu jarayonida dinamik qatorlarni statistik tahlil usulidan foydalanamiz. Dinamikani o'rganishda eng ko'p tarqalgan va ishlatiladigan ko'rsatkich o'zgarish sur'atidir. O'zgarish sur'ati deb qatorning ikki hadining nisbatiga aytiladi. Bu ko'rsatkich koeffitsiyentda va foizda (%) ifodalanadi va quyidagi formulalar bilan aniqlanadi<sup>29</sup>:

$$R_b = \frac{Y_i}{Y_{i-1}} \cdot 100$$

Shuningdek, statistikaning vazifasi o'zgarish sur'atlarini yillar bo'yicha hisoblash emas, balki uzoq davrlar uchun ham hodisaning rivojlanish intensivligini baholashdir. Bu vazifani o'rtacha yillik o'zgarish sur'atlarini hisoblash bilan yechamiz. Agarda zanjirsimon usulda o'zgarish sur'atlari ma'lum bo'lsa, o'rtacha yillik o'zgarish sur'atini quyidagi o'rtacha geometrik formula yordamida aniqlaymiz<sup>30</sup>:

$$\bar{R} = \sqrt[n]{R_1 \cdot R_2 \cdot R_3 \cdot \dots \cdot R_n}$$

Shuningdek, investitsion loyihalar samaradorligini ortirishda soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlarining o'zaro ta'sirini o'rganamiz. Bunda ekonometrik modellashtirish jarayonida qo'llaniladigan korrelyatsion tahlil ululidan foydalanamiz.

Korrelyatsion tahlil ikkita omil o'rtasidagi (juft bog'liqlikda) hamda natijaviy omillar bilan boshqa ko'p omillar o'rtasidagi (ko'p omilli bog'liqlikda) bog'liqlikning zichligini miqdoriy jihatdan aniqlashdan

iborat (Mustafakulov va Sabirovlar., 2022).

X.Sabirov, Abdullayeva va boshqalar o'z tadqiqotlarida quyidagi korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanishgan:

$$r_{x/y} = \frac{\bar{x} \cdot \bar{y} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y}$$

$$\sigma_x = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (x_i - \bar{x})^2}{n}} \quad \sigma_y = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}{n}}$$

Korrelyatsiya koeffitsiyenti ( $r$ ) -1 dan +1 oralig'idagi qiymatlardan tashkil topadi. Agar  $r=0$  ga teng bo'lsa, omillar o'rtasida bog'lanish mavjud emas bo'ladi va  $0 \leq r \leq 1$  oralig'ida bo'lsa, to'g'ri bog'lanishga ega bo'ladi.  $-1 \leq r \leq 0$  oralig'ida teskari bog'lanish mavjud bo'ladigan bo'lsa,  $r = 1$  esa funksional bog'lanish mavjud bo'lganligini ifodalaydi (Sabirov va boshqa., 2022).

Ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsiyentlari zich bog'lanishi multikollinearlik tushunchasini hosil qiladi hada uni aniqlash uchun VIF- me'zonidan foydalaniladi.


J.X. Stosk va M.V. Vatsonlar VIF (variance inflation factor) koeffitsiyentlari modelning o'zgaruvchilari bir-biri bilan qanchalik kuchli bog'liqligini ko'rsatadi. Ta'sir etuvchi omilga mos keladigan VIF koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanib hisoblagi:

$$VIF = \frac{1}{1 - R^2}$$

Bunda:  $R^2$  - ta'sir etuvchi omillarning korrelyatsiya koeffitsiyentining kvadrat qiymatidir (Stock va Watson lar., 2020).

Agar barcha o'zgaruvchilar uchun VIF koeffitsiyentlari 10 dan kam bo'lsa, bu modelda sezilarli multikollinearlik yo'qligini anglatadi. Aks holda, model multikollinearlikka ega degan xulosaga kelish kerak.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Amalga oshirilgan loyihalardan to'langan soliq to'lovlari 2019-yildan 2020 yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. 2021 yildan boshlab nisbat ko'rsatkich qiymatlar kamayib borgan, bu esa o'z navbatida sohaga kiritilayotgan investitsion loyihalardan olinadigan soliq to'lovlari stavfkalarini kamaytirilishi va sohaga qaralayotgan e'tibordan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda, sohaga kiritilayotgan investitsion loyihalarning amalga oshirilishi va uning hayotiylik davrini oshirish uchun ularni bevosita miqdorlarning o'zgarishiga qarab, mamlakatga kiritilayotgan xorijiy va mahalliy investitsion loyihalarning hajmi oshishi yoki kamayishiga ta'sir o'tkazadi. «O'zbekiston temir yo'llari» AJ davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalardan ushlanadigan sug'urtalash badallarining yillar nisbatidagi foiz qiymatlarini quyidagi grafikda ko'rishimiz mumkin.



2.7-rasm. Soliq to'lovlarning o'zgarish sur'ati<sup>31</sup>

Tahlil natijalariga asosan «O'zbekiston temir yo'llari» AJ davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyihalardan ushlanadigan sug'urtalash badallari 2018 yilga nisbatan 2019 yilda eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan, bu o'z navbatida 2019 yilda qo'shimcha 81 % ga o'sgan. 2022 yilga esa sug'urta badallari nisbat qiymati 113 % ni tashkil etgan, bu esa kiritilayotgan loyiha-tadqiqot ishlaridagi sug'urtalash mukofotlarining kamayganligini ta'kidlaydi.


29

<https://staff.tiame.uz/storage/users/55/presentations/tmmQ7tLYRCcOHOKA3Ykkm2C9H810cFwIF9oSyzP.pdf>

30

<https://staff.tiame.uz/storage/users/55/presentations/tmmQ7tLYRCcOHOKA3Ykkm2C9H810cFwIF9oSyzP.pdf>

<sup>31</sup> O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida muallif ishlagani



2.8-rasm. Loyiha-tadqiqot ishlarini sug'urtalash badallarining yillar nisbatidagi foiz qiymatlari<sup>32</sup>

Tadqiqot jarayonida loyiha-tadqiqot ishlarining soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlari bilan orasidagi bog'lanishni Stata14 amaliy paketidan foydalangan holda tahlilini amalga oshiramiz.

	Y	X1	X2
Y	1.0000		
X1	-0.2466	1.0000	
X2	-0.2280	0.9019	1.0000

2.9-rasm. Korrelyatsion tahlil natijasi<sup>33</sup>

Hisob-kitoblar natijasida, amalga oshirilgan loyiha-tadqiqot ishlariga soliq to'lovlari va sug'urta badallari teskari va sust bog'langanini ko'rishingiz mumkin. Shuningdek, ta'sir etuvchi omillar orasida to'g'ri va zich bog'langanini ifodalamoqda. Bu yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, sohaga kiritilayotgan investitsion loyihalarga belgilanib qo'yilayotgan soliq stavkalari va sug'urta badallarini kamaytirilishi natijasidir. Tadqiqotimiz jarayonida quyidagicha natijalar hosil bo'ldi:

Variable	VIF	1/VIF
X1	5.36	0.186492
X2	5.36	0.186492
Mean VIF	5.36	

2.10-rasm. VIF koeffitsiyent natijalari<sup>34</sup>

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Добрин А. Ю. Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве. ДИССЕРТАЦИЯ/ Москва – 2016 г. 157с.
2. Ильиных Ю.М. Перспективы развития страхового бизнеса в России // Вестник Алтайской академии экономики и права. - 2010. - № 1. - С. 66-69.
3. Пирогова Татьяна Викторовна, & Ильиных Юлия Михайловна (2016). Роль страхования в развитии государственно-частного партнерства. Алтайский вестник Финуниверситета, (1), 122-131.

Korrelyatsion tahlil natijasida ishtirok etgan ta'sir etuvchi omillarni orasida zich bog'lanishiga qaramay, ular orasida multikollinearlik mavjud emas. Soliq to'lovi (X1) va sug'urta mukofotlari (X2)ning VIF koeffitsiyentlari 5.36 ga teng, bu esa 10dan kichkinadir. Ta'sir etuvchi omillar orasida multikollinearlik mavjud bo'lmaganlik bois, keyingi bosqich ya'ni regression tahlil amalga oshiriladi. Regression tahlilda chiziqli ko'p omilli regression model tuzamiz.

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	5
Model	557.09336	2	278.54668	F(2, 2)	=	0.06
Residual	8579.49612	2	4289.74806	Prob > F	=	0.9390
				R-squared	=	0.0610
				Adj R-squared	=	-0.8781
Total	9136.58948	4	2284.14737	Root MSE	=	65.496

Y	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
X1	-.0040213	.0290455	-0.14	0.903	-.1289939 .1209513
X2	-.0001062	.0056451	-0.02	0.987	-.0243952 .0241829
_cons	571.722	135.033	4.23	0.052	-9.278201 1152.722

2.11-rasm. Regression tahlil natijasi<sup>35</sup>

Regression tahlil natijasiga asosan, model quyidagicha bo'ldi:

$$Y = 571,722 - 0,004 * X1 - 0,0001 * X2$$

yoki

$$In. loy = 571,722 - 0,004 * S_{ti} - 0,0001 * S_{is}$$

Model natijasiga asosan, soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlari investitsion loyiha ishlariga salbiy ta'sirini ifodalamoqda. Bu o'z navbatida ularning oshishi investitsion loyiha ishlarini kamayishini olib keladi. Stata15 amaliy paketi orqali olingan natijalarga asosan, modelning determinatsiya koeffitsiyenti 0,061 ga tenglashdi. Bu o'z navbvtida, tuzilgan modelning qiymatlari real qiymatlaridan ancha uzoqligini ifodalaydi. F-mezon qiymati r-value qiymatiga asosan ahamiyatsiz bo'lib, bu tanlangan model shakli adekvat emasdir.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga asosan, «O'zbekiston temir yo'llari» AJga kiritilayotgan investitsion loyihalardan olinadigan soliq to'lovlari stavkalarini kamaytirilishi va sohaga qaratilayotgan e'tibordan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda, sohaga kiritilayotgan investitsion loyihalarning amalga oshirilishi va uning hayotiylik davrini oshirish uchun ularni bevosita sug'urtalash ijobiy natijalarni beradi.

Shu bilan bir qatorda, amalga oshirilgan loyiha-tadqiqot ishlariga soliq to'lovlari va sug'urta badallari teskari hamda sust bog'langanligi aniqlandi. Bu o'z navbatida, soliq to'lovlari va sug'urta badallarini kamaytirish kerakligi ifodalaydi.

Shuningdek, model natijasiga asosan soliq to'lovlari va sug'urta mukofotlari investitsion loyiha ishlariga salbiy ta'siri borligi ilmiy asoslandi. Tadqiqot jarayonida topilgan model parametrlarining student qiymati r-value qiymatiga asosan ahamiyatsiz bo'ldi hamda ular ishonchsiz ekanligi xulosa qilindi. Natijalar shuni anglatadiki, tuzilgan model to'liq salbiy bo'ldi. Shuni inobatga olib, modelda qatnashgan omil va kuzatuvlar sonini oshirishimiz kerak degan xulosaga kelindi.

4. Добрин А. Ю. Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве. ДИССЕРТАЦИЯ/ Москва – 2016 г. 157с.

5. Ш.Мустафакулов., Х.Сабиров. "Эконометрика I" Ўқув қўлланма.-Т.: "Илм-фан ва инновация" 2022, 232б.

6. Sabirov, H. N., Abduvaliyeva, Z., & Kh, T. (2022). ECONOMETRIC MODELING OF BUSINESS PROCESSES BASED ON TIME SERIES DATA. *Экономика и социум*, (7 (98)), 102-110.

7. Stock JH, Watson MW "Introduction to Econometrics" 4th Edition, ISBN 978-0-13- 446199-1, published by Pearson Education © 2020.

<sup>32</sup> «Ўзбекистон темир йўллари» АЖ томонидан тақдим қилинган маълумотномасидан фойдаланиб тадқиқотчи томонидан тузилган

<sup>33</sup> Stata15 амалий пакети орқали олинган муаллиф ҳисоб-китоб натижаси

<sup>34</sup> Stata15 амалий пакети орқали олинган муаллиф ҳисоб-китоб натижаси

<sup>35</sup> Stata15 амалий пакети орқали олинган муаллиф ҳисоб-китоб натижаси



## KORXONALARDA QABUL QILINGAN QARORLARNI BOSHQARUV SAMARADORLIGIGA TA'SIRINI IQTISODIY MATEMATIK MODELASHTIRISH

**Rustamova Sayyora Xatamovna**

Andijon davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrası

katta o'qituvchisi, i.f.f.d.(PhD)

Rustamova0302@mail.ru, +998912870005

MAQOLA HAQIDA

ANNATATSIYA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 12

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.249>

**KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords**

boshqaruv qarorlari, boshqaruv samaradorligi, mehnat unumdorligi, tashkiliy samaradorlik, iqtisodiy samaradorlik, texnologik samaradorlik, prognozlash, iqtisodiy matematik modelashtirish

Ushbu maqolada to'qimachilik korxonalarida qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy samaradorligi ochib berilgan. Bundan tashqari to'qimachilik korxonasida mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar orqali mehnat unumdorligi ko'rsatkichini 2022-2026 yillar uchun prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Kirish.** Boshqaruv qarorlarini qabul qilish modeli- boshqaruv xodimlari qabul qiladigan qarorlarga bevosita ta'sir etadigan o'zgaruvchan ko'rsatkichlar va parametrlarning miqdori va ramziy holatini ifodalaydi. Yuqoridagi ta'rif bo'yicha olinadigan bo'lsa, boshqaruv qarorlarini qabul qilishga ta'sir qiluvchi omillar 2 guruhga bo'linadi:

1. O'zgaruvchan, ya'ni bu omillarning o'zgarishi boshqaruv tizimi orqali nazorat qilinadi (mahsulotning bahosi, mahsulotni ishlab chiqarish harajatlari, texnologiya va boshqalar.);

2. Parametrlar, ya'ni bu omillar o'zgarmaydigan va ta'sirsiz bo'ladi yoki sifat omillari desak ham bo'laveradi. Chunki ularni to'g'ridan to'g'ri miqdor jihatdan o'lchab bo'lmaydi (mahsulot sifati, iste'molchi talabini qondirish darajasi, ta'minotchilar bilan munosabatlarning barqarorligi, haridorlar bilan uzviy aloqa va b.). (Pardaev A.X., Pardaev B.X., 2008)

**Adabiyotlar tahlili.** I.U.Qalandarov o'zining tadqiqot ishida murakkab tizimlarni boshqarish va qaror qabul qilish jarayonlarini ahamiyatiga ega aniq optimizatsiya topish uchun diskret va ekstremal masalalarning alohida sinflarini yechish algoritmini ishlab chiqqan. Uning tadqiqot natijasi asosan axborot va jamoat xavfsizligi markazida joriy qilinishi natijasida havf-xatar va uni bartaraf qilish funktsional jadval ko'rinishida berilib, axborot xavfsizligini 11%ga oshirish imkonini bergan. (Qalandarov I.U, 2018)

Shuningdek, B.A.Чернишов esa ilmiy izlanishlari asosida reytingni baholash natijalaridan foydalangan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muammoli yo'naltirilgan modellari va algoritmlarini ishlab chiqqan. Jumladan, reytingni boshqarish masalasini interaktiv algoritmi va multiplikativ qarorlar qabul qilish asosida ko'rib chiqqan. Natijada ichki va tashqi reyting baholari asosida resurslar ta'minotini taqsimlashda boshqaruv qaroridan ishlab chiqilgan modellar va algoritmik sxemalardan foydalanishga erishilgan. (B.A.Чернишов, 2020)

Boshqaruvda qabul qilingan qarorlarning samardorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni miqdoriy baholashni quyidagi hollarda qiyin kechadi. Bular:

- boshqaruv uslubida qaror qabul qilish masalasi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatsada, biroq bu ko'rsatkichni miqdoriy baholash qiyinroq;

- boshqaruv qarorlari ba'zan muammoli vaziyatlarda tezkorlik talab qilinadi yoki rejalashtirilgan vaqtda xodimlarni layoqatsizligi tufayli belgilangan ishlar bajarilmasligi mumkin. Shu sababli vaqt omilini miqdoriy baholash qiyinroq;

- rahbarning shaxsiy sifatleri, bu ko'rsatkichni ham miqdoriy baholash qiyin, vaholanki so'nggi qarorni yoki so'zni rahbar aytadi;

- qarorlarni amalga oshirish natijalari bilvosita korxonada jamoaning faoliyati bilan bog'liq. Lekin korxonada ma'muriy mehnat xarajatlarini ulushini ajratib ko'rsatishni miqdoriy baholash qiyin.

Qarorlar samaradorligining ikki jixati quyidagilarni nazarda tutadi: birinchisi maqsadli. Ushbu jihat tizimning o'z maqsadlariga erishishining o'lchovlarini namoyon etadi. Ikkinchisi xarajatli. Bu jihat tizimning mavjud resurslarini ishlab chiqarish natijalariga aylantirish usullari orqali samaradorlik aniqlanadi.

Boshqarish qarorlarining quyidagi turlarini alohida keltirib o'tish mumkin. Bularni:

1. Boshqaruv qarorlarining tashkiliy samaradorligi – natijalarni tashkiliy ishlarni optimallashtirish xisobiga ta'minlanishi. Tashkiliy samaradorlik– funktsiyalarni qayta taqsimlanishi, tashkiliy strukturani muqobilashtirish, rag'batlantirish masalalarini ijobiy hal etilishi, mehnat sharoitlarini yaxshilanishi hamda texnik xavfsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlash;


2. Boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligi– qarorni ishlab chiqarilayotgan va boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali, ya'ni foyda, mahsulot tannarxi, kredit, bozorning sotuv hajmi, investitsiya, moliyalashtirish bilan bog'liq samaradorlik kabilarda namoyon bo'lishi.

3. Boshqaruv qarorlarining ijtimoiy samaradorligi- xodimlarning ijodiy faoliyatga yo'naltirilishida, kadrlar qo'nimsizligini ijobiy hal qilinishida, tashkiliy madaniyatning rivojlanishi, ma'naviy-ma'rifiy muxitning yaxshilanishi kabilarda namoyon bo'ladi.

4. Boshqaruv qarorlarining texnologik samaradorligi- ishlab chiqarishning texnik-texnologik jihatdan zamonaviylashuvi.

5. Boshqaruv qarorlarining xuquqiy samaradorligi-huquqiy munosabatlarning qonun va qonunosti hamda me'yoriy talablarga mos tushishligini ta'minlanishida namoyon bo'ladi.

6. Boshqaruv qarorlarining ekologik samaradorligi– mehnat sharoitlarida sanitariya-gigiyena talablariga (ishlab chiqarish jarayonidagi shovqin, tebranishlar, radioaktivlik, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish kabilarga) rioya qilinishi hamda atrof-muxitga chiqariladigan chiqindilarni qayta ishlash (kamaytirish) hisobiga tabiatga yetkaziladigan zararlarni oldini olish tadbirlarining amalga oshirilishi kabilarda namoyon bo'ladi.



1-rasm. Boshqaruv qarorlari samaradorlik yo'nalishlarining sinflanishi.

Boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash turlicha mezonlar, ko'rsatkichlar asosida amalga oshiriladi. Qarorning samaradorligini formal ravishda quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

$$S_q = F(C_o, C_i, C_s, C_t, C_h, C_e). \quad (1)$$

Bu yerda,

$C_o$  – boshqaruv qarorlarining tashkiliy samaradorligi;

$C_i$  - boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligi;

$C_s$  - boshqaruv qarorlarining sotsial samaradorligi;

$C_t$  - boshqaruv qarorlarining texnologik samaradorligi;

$C_h$  - boshqaruv qarorlarining xuquqiy samaradorligi;

$C_e$  - boshqaruv qarorlarining ekologik samaradorligi.

$$S_q = \frac{\sum(C_o + C_i + C_s + C_t + C_h + C_e)}{6} \quad (2)$$

Barcha samaradorlik ko'rsatkichlarni qo'shib o'rtachasini chiqaramiz. Qarorning samaradorligi aniqlanadi.

Yuqoridagi samaradorlik ko'rsatkichlarini ikki tarkibiy qismga ajratish mumkin:

1. Ishlab chiqarishdan olinadigan samaradorlikda bevosita aks etadigan ko'rsatkichlar;

2. Ishlab chiqarishdan olinadigan samaradorlikda bilvosita aks etadigan ko'rsatkichlar.

Shunda (1) ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$S_q = F(C_{q1}, C_{q2}). \quad (3)$$

Bu yerda,

$C_{q1}$  - ishlab chiqarishdan olinadigan samaradorlikda bevosita aks etadigan ko'rsatkichlar;

$C_{q2}$  - ishlab chiqarishdan olinadigan samaradorlikda bilvosita aks etadigan ko'rsatkichlar.

Boshqaruv qarorini qabul qilish jarayonida qanday xarajatlar kelib chiqishi mumkinligini batafsil ko'rib chiqamiz:

1) vaqt sarflari - ularni to'ldirish istagi yo'qligi sababli, ularni almashtirish mumkin emas; 2) yuqori texnologik xarajatlar - boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida va tashkilot ishida innovatsion ishanmalarni joriy etish;

3) axborot resurslari narxi –qaror qabul qilish jarayonidagi axborot almashinuvining hajmiga bog'liq;

4) inson kapitali bilan bog'liq xarajatlar - inson kapitaliga qo'shimcha sarmoyalar talab qilinadi;

5) Turli toifadagi xarajatlar yoki qo'shimcha xarajatlar - boshqaruv qarorini qabul qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har xil turdagi xarajatlar.

(A.B.Зарубенко va boshqalar, 2019)

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "Lens Textile invest" MChJning mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarini prognozlashning usullaridan iqtisodiy matematika modellashirish usuli yordamida regressiya va korrelyatsiya koeffitsentlarini aniqlab chiqamiz. Ekonometrik modelni regressiya koeffitsentlarini va prognoz parametrlarini aniqlash uchun vaqtli qatorlar bo'yicha statistik tanlanma uchun korxonaning 2014-2021 yillar davomidagi mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ajratib olamiz.

Birinci navbatda mehnat unumdorligi ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni belgilab olinadi. (muallif ishlanmasi)

$$MU = e^{\beta_0} * MICH^{\beta_1} * KIs^{\beta_2} * AICHB^{\beta_3} * ICHQ^{\beta_4} * IHOM^{\beta_5} * MMS^{\beta_6}$$

Ushbu modelda mehnat unumdorligi ta'sir etuvchi omillarni tuzib oldik. Endi ushbu modelni ikkala tomonini natural logarifmlab (LN) olamiz va quyidagi ko'rinishga keladi:

$$LN(MU) = \beta_0 + \beta_1 * LN(MICH) + \beta_2 * LN(KIs) + \beta_3 * LN(AICHB) + \beta_4 * LN(ICHQ) + \beta_5 * LN(IHOM) + \beta_6 * LN(MMS)$$

Bu yerda:

MICH- Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (tn)

KIs- Korxonada jami ishchi-xodimlar soni (kishi)

AICHB- Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar(kishi)

ICHQ- Korxonaning ishlab chiqarish quvvati (tn)

IHOM- Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori (mln. So'm)

MMS- Korxonada mahsulotning mehnat sig'imi (kishi/tn)

1-jadval

"Lens Textile invest" MChJ mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni 2014-2021 yillardagi olingan natijalari

Yillar	MU	MICH	KIs	AICHB	ICHQ	IHOM	MMS
2014	11,3	415	125	105	500	18720	0,253
2015	12,8	591	130	117	600	33232	0,198
2016	13,2	615	106	93	650	49523	0,151
2017	14,5	805	110	95	850	53456	0,118
2018	17,8	976	115	102	1000	68345	0,105
2019	19,6	1015	111	99	1050	86234	0,097
2020	18,2	1197	109	95	1200	112560	0,079
2021	17,4	1352	110	95	1400	123459	0,071

Mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni natural logarifimga LN(X) qo'yib chiqamiz. Chunki ko'rsatkichlar o'lchov birliklari xar xil bo'lganligi uchun ularni bir xillash tirib olamiz.

2-jadval

**Omialarning hisoblangan logarifim ko'rsatkichlari qiymatlari**

Yillar	LN(MU)	LN(MICH)	LN(KIS)	LN(AICHB)	LN(ICHQ)	LN(IHOM)	LN(MMS)
2014	2,425	6,028	4,828	4,654	6,215	9,837	-1,374
2015	2,549	6,382	4,868	4,762	6,397	10,411	-1,619
2016	2,580	6,422	4,663	4,533	6,477	10,810	-1,890
2017	2,674	6,691	4,700	4,554	6,745	10,887	-2,137
2018	2,879	6,883	4,745	4,625	6,908	11,132	-2,254
2019	2,976	6,923	4,710	4,595	6,957	11,365	-2,333
2020	2,901	7,088	4,691	4,554	7,090	11,631	-2,538
2021	2,856	7,209	4,700	4,554	7,244	11,724	-2,645

Ushbu jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omil va unga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligini ko'rsatadi.

3-jadval

**Korrelyatsiya koeffitsiyentlari ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish**

	LN_MU	LN_MICH	LN_KIS	LN_AICHB	LN_ICHQ	LN_IHOM	LN_MMS
LN_MU	1	0.923	-0.556	-0.417	0.917	0.907	-0.908
LN_MICH	0.924	1	-0.608	-0.500	0.994	0.980	-0.988
LN_KIS	-0.557	-0.608	1	0.959	-0.617	-0.714	0.716
LN_AICHB	-0.417	-0.500	0.959	1	-0.536	-0.593	0.625
LN_ICHQ	0.917	0.994	-0.617	-0.536	1	0.968	-0.989
LN_IHOM	0.907	0.980	-0.714	-0.593	0.968	1	-0.987
LN_MMS	-0.908	-0.988	0.716	0.625	-0.989	-0.987	1

Demak, xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari natijaviy omil (mehnat unumdorligi, LnMU) va ta'sir etuvchi omillar o'rtasida zich bog'lanishlar mavjudligini ko'rsatmoqda, ya'ni xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymati 0,9 dan katta. Ammo, LN\_KIS, LN\_AICHB va LN\_MMS omillar natijaviy ko'rsatkichiga teskari ta'sir ko'rsatadi, chunki ular orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari manfiy ishoraga ega. Bu yerda eng muhim holat bo'lib, ta'sir etuvchi omillar bir-biri bilan zich bog'lanmasligi kerak. Ya'ni, multikolleniarlik mavjud bo'lmazligi lozim. Agar ikkita ta'sir etuvchi omil o'rtasida juft korrelyatsiya koeffitsiyenti qiymati 0,9 dan kichik bo'lsa, multikolleniarlik mavjud emas deyiladi. Shuningdek, ayrim ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanish zichliklari 0,9 dan katta ekan. Demak, ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud ekan.

Har bir korrelyatsiya koeffitsiyentining pastki qismida uning t-Styudent mezonini hisoblangan qiymati va ehtimolliki keltirilgan. Omillar o'rtasida hisoblangan ehtimollik 0,05 dan katta bo'lmazlik sharti qo'yiladi. Masalan, korxonada ishchi-xodimlar soni LN\_KIS va korxonaning ishlab chiqarish quvvati LN\_ICHQ o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti  $r_{lnMU,lnICHQ} = 0.917$ ,  $t = 2.597571$  va  $prob. = 0,2339$  ga teng bo'lgan.

4-jadval

**"Lens Textile invest" MChJ mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omialarning ta'sirchanlik koeffitsiyentlari**

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli

Tanlanma davrlar: 2014-2021

Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	Ehtimollik
LN_MICH_	-11.73969	4.582736	-2.561722	0.2369
LN_KIS_	-6.025526	2.281649	-2.640864	0.2304
LN_AICHB_	15.80141	4.685395	3.372482	0.1835
LN_ICHQ_	2.566695	0.988113	2.597571	0.2339
LN_IHOM_	-0.200664	0.275290	-0.728919	0.5990
LN_MMS_	-10.11883	4.604017	-2.197826	0.2718
C	0.855632	3.696423	0.231476	0.8552
R-squared	0.991183	Mean dependent var		2.730000
Adjusted R-squared	0.938280	S.D. dependent var		0.199734
S.E. of regression	0.049621	Akaike info criterion		-3.498244
Sum squared resid	0.002462	Schwarz criterion		-3.428733
Log likelihood	20.99298	Hannan-Quinn criter.		-3.967070
F-statistic	18.73583	Durbin-Watson stat		3.554509
Prob(F-statistic)	0.175030			

Mazkur ikki omil o'rtasida o'rtacha bog'lanish borligini bildiradi hamda xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 95 foiz aniqlikda ishonchli ekanligi va ushbu omil o'rtasida o'zaro musbat bog'lanish mavjuddir.

Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari bo'yicha, korxonada o'rtacha ish haqi miqdori (mln. so'm) LN\_IHOM\_ va Korxonada mahsulotning mehnat sig'imi (kishi/tn) LN\_MMS\_ o'rtasidagi korrelyatsiya

koefitsiyenti  $r_{\ln IHOM, \ln MMS} = -0.987$ ,  $t = -2.197826$

va  $prob. = 0.2718$  ga teng. Ushbu ikki omilni o'zaro bog'liqligi o'rtasida teskari bog'lanish mavjud bo'lib juft korrelyatsiya koefitsiyenti ishonchli emasligini ko'rsatadi, ya'ni  $prob > 0,05$  dan kattaligi uchundir.

Ko'p omilli ekonometrik modeldagi noma'lum  $\beta_0, \beta_1, \beta_2, \dots, \beta_n$  parametrlarini aniqlashda "eng kichik kvadratlar usuli" qo'llaniladi. Natijada ko'p omilli ekonometrik modelni

hisoblangan ko'rsatkichlarini parametrlari quyidagi formulaga joylashtiramiz:

$$LN(MU) = 0.86 - 11.74 * LN(MICH) - 6.03 * LN(KIs) + 15.8 * LN(AICHB) + 2.57 * LN(ICHQ) - 0.2 * LN(IHOM) - 10.12 * LN(MMS)$$

Korxonada student mezon ichida eng kichik qiymati  $t = -2.640864$  ga teng. Ko'p omilli ekonometrik modeldan ushbu omilni chiqarib hisoblaymiz. Chunki ahamiyatlilik darajasi juda ham past bo'lganligi uchun ushbu omil chiqarib tashlanadi va qayta hisoblab chiqamiz.

#### 5-jadval

##### "Lens Textile invest" MCHJ mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarning o'zgarish natijasi

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli

Tanlanma davrlar: 2014-2021

Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN_MICH_	-12.55155	9.130046	-1.374752	0.3030
LN_AICHB_	12.91012	9.096647	1.419217	0.2916
LN_ICHQ_	0.717755	1.392293	0.515520	0.6575
LN_IHOM_	0.064684	0.511767	0.126393	0.9110
LN_MMS_	-12.35560	9.036248	-1.367337	0.3049
C	-4.059370	6.377077	-0.636556	0.5895
R-squared	0.929690	Mean dependent var		2.730000
Adjusted R-squared	0.753916	S.D. dependent var		0.199734
S.E. of regression	0.099082	Akaike info criterion		-1.672037
Sum squared resid	0.019634	Schwarz criterion		-1.612456
Log likelihood	12.68815	Hannan-Quinn criter.		-2.073888
F-statistic	5.289122	Durbin-Watson stat		1.934032
Prob(F-statistic)	0.166615			

Yuqoridagi jadvalda omillarning bog'liqligini tekshirish asosida uning determinatsiya koefitsiyenti  $R\text{-squared} = 0.9296$  koefitsentga teng. "Lens Textile invest" MCHJda mehnat unumdorligi hajmining 92,96 foizi ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topgan. Qolgan 0,0704 foizi (1,0-0,9296) hisobga olinmagan omil ta'siridir.

Korxonada student mezon ichida eng kichik qiymati  $t = -1.367337$  ga va juda ham past bo'lganligi uchun ushbu omil chiqarib tashlanadi va qayta hisoblab chiqamiz.

"Lens Textile invest" MCHJda aniqlangan ko'p omilli ekonometrik model shuni ko'rsatadiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi (lnMICH) o'rtacha 1,0 foizga ortsa, mehnat unumdorligi (lnMU) o'rtacha -0.31 foizga kamayishi mumkin. Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar (lnAICHB) o'rtacha 1,0 foizga ortishi, mehnat unumdorligini (lnMU) o'rtacha 0.55 foizga ortishiga olib keladi. Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori (lnIHOM) o'rtacha 1,0 foizga oshishi, mehnat unumdorligi hajmini (lnMU) o'rtacha 0.23 foizga ortadi.

#### 6-jadval

##### "Lens Textile invest" MCHJ mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar ichidan ahamiyatlilikini chiqarigandan keyingi o'zgarish natijasi

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli

Tanlanma davrlar: 2014-2021

Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
LN_MICH_	-0,31	2,02	-0,15	0,89
LN_AICHB_	0,55	1,15	0,48	0,67
LN_ICHQ_	0,58	1,57	0,33	0,76
LN_IHOM_	0,23	0,56	0,41	0,71
C	-3,76	7,24	-0,52	0,64
R-squared	0,86	Mean dependent var		2,73
Adjusted R-squared	0,68	S.D. dependent var		0,19
S.E. of regression	0,11	Akaike info criterion		-1,26
Sum squared resid	0,04	Schwarz criterion		-1,21
Log likelihood	10,05	Hannan-Quinn criter.		-1,59
F-statistic	4,76	Durbin-Watson stat		1,12
Prob(F-statistic)	0,12			

$$LN(MU) = -3.758 - 0.306 * LN(MICH) + 0.549 * LN(AICHB) + 0.517 * LN(ICHQ) + 0.23 * LN(IHOM)$$

F-mezonni  $F_{hisob} = 4.763270$  ga tengligi hisoblab chiqildi.  $F_{jadval} =$  hajmini (lnMU) kelgusi yillar uchun prognoz parametrlarini ishlab chiqish mumkin.



Ishonchlilik ehtimoli  $\alpha = 0,05$  va ozodlik darajasi  $d.f. = 10 - 3 + 1 = 8$  bo'lganda,  $t$ -mezoning jadval qiymati  $t_{\text{жадвал}} = 2.3060$  ga teng.

Darbin-Uotson  $DW$  qiymati jadvaldagi  $DW_L$  va  $DW_U$  bilan solishtiriladi. Agar  $1.123850 (DW_{\text{hisob}}) < 2,21$  dan kichik bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelatsiya mavjud deyiladi.  $1.123850 (DW_{\text{hisob}}) > 0,56$  dan katta bo'lsa, qoldiqlarda avtokorrelatsiya mavjud emas deyiladi. Demak,  $DW_{\text{hisob}} > DW_U$  bo'lgani uchun natijaviy omil (InMU) qoldiqlarida avtokorrelatsiya mavjud emas ekan. Yuqorida olingan model asosida

korxonada mehnat unumdorligi ko'rsatkichining 2022-2026 yillar uchun prognozini amalga oshiramiz.

Korxonada mehnat unumdorligini prognozini aniqlash uchun vaqtga bog'liqlangan holda trend modelini tuzib olamiz:

$$X_i = b_0 + b_1 \cdot t$$

Korxonada ishlab chiqarish hajmi bo'yicha trend model:  
InMICH=5,980464+0,160619\*t;

7-jadval

**“Lens Textile invest” MCH ishlab chiqarish hajmi trend modelini aniqlash uchun omillarni bog'liqligi o'zgarishi**

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli LN\_MICH\_  
Tanlanma davrlar: 2014- 2021  
Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
T	0,16	0,012	12,86	0,00
C	5,98	0,06	94,84	0,00
R-squared	0,97	Mean dependent var		6,70
Adjusted R-squared	0,96	S.D. dependent var		0,40
S.E. of regression	0,08	Akaike info criterion		-1,98
Sum squared resid	0,04	Schwarz criterion		-1,96
Log likelihood	9,91	Hannan-Quinn criter.		-2,11
F-statistic	165,44	Durbin-Watson stat		2,06
Prob(F-statistic)	0,0014			

Asosiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar bo'yicha trend model: In AICHB =4,683321-0,017655\*t;

8-jadval

**“Lens Textile invest” MCHni asosiy ishlab chiqarishda band bo'lganlar trend modelini aniqlash uchun omillarni bog'liqligi o'zgarishi**

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli LN\_AICHB\_  
Tanlanma davrlar: 2014-2021  
Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
T01	-0,018	0,01	-1,7	0,15
C	4,68	0,053	88,9	0,00
R-squared	0,32	Mean dependent var		4,60
Adjusted R-squared	0,21	S.D. dependent var		0,08
S.E. of regression	0,07	Akaike info criterion		-2,34
Sum squared resid	0,03	Schwarz criterion		-2,32
Log likelihood	11,35	Hannan-Quinn criter.		-2,47
F-statistic	2,86	Durbin-Watson stat		2,58
Prob(F-statistic)	0.141593			

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati (tn) In ICHQ=6,096750+0.146083\*t.

**“Lens Textile invest” MChJning ishlab chiqarish quvvati trend modelini aniqlash uchun omillarni bog‘liqligi o‘zgarishi**

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli LN\_ICHQ\_

Tanlanma davrlar: 2014-2021

Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
T02	0.146083	0.008069	18.10472	0.0000
C	6.096750	0.040745	149.6303	0.0000
R-squared	0.982024	Mean dependent var		6.754125
Adjusted R-squared	0.979028	S.D. dependent var		0.361090
S.E. of regression	0.052292	Akaike info criterion		-2.851637
Sum squared resid	0.016407	Schwarz criterion		-2.831777
Log likelihood	13.40655	Hannan-Quinn criter.		-2.985587
F-statistic	327.7810	Durbin-Watson stat		1.856930
Prob(F-statistic)	0.000002			

Korxonada o‘rtacha ish haqi miqdori bo‘yicha trend model:  $\ln IHOM=9,837893+0,252607*t$ .

**“Lens Textile invest” MChJda o‘rtacha ish haqi miqdori trend modelini aniqlash uchun omillarni bog‘liqligi o‘zgarishi**

Metod: Eng kichik kvadratlar usuli LN\_IHOM\_

Tanlanma davrlar: 2014-2021

Qabul qilingan kuzatishlar soni: 8

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
T03	0.252607	0.023245	10.86735	0.0000
C	9.837893	0.117379	83.81274	0.0000
R-squared	0.951652	Mean dependent var		10.97463
Adjusted R-squared	0.943594	S.D. dependent var		0.634282
S.E. of regression	0.150642	Akaike info criterion		-0.735501
Sum squared resid	0.136158	Schwarz criterion		-0.715641
Log likelihood	4.942004	Hannan-Quinn criter.		-0.869451
F-statistic	118.0993	Durbin-Watson stat		1.334168
Prob(F-statistic)	0.000036			

**Xulosa va takliflar:** Tatqiqotda biz tomonimizdan yuqorida keltirilgan omillar bo‘yicha trend modellari yordamida har bir omilning qiymatlarini 2020-2025 yillar uchun prognoz qilamiz va prognoz natijalari qiymatlarini ko‘p omilli ekonometrik modelga qo‘yib, natijaviy ko‘rsatkich – korxonada mehnat unumdorligi ko‘rsatkichini 2020-2025

yillar uchun prognoz xisobotlarini amalga oshiramiz. Mazkur korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish darajasini aniqlash maqsadida kelgusi yillar uchun hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari 2.3.11-jadvalda keltirilgan.

**“Lens Textile invest” MChJda mehnat unumdorligi ko‘rsatkichini 2022-2026 yillar uchun prognoz parametrlari**

Yillar	Mehnat unumdorligi (mln. so‘m), MU	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (tn), MICH	Asosiy ishlab chiqarishda band bo‘lganlar (kishi), AICHB	Korxonaning ishlab chiqarish quvvati (tn), ICHQ	Korxonada o‘rtacha ish haqi miqdori (mln. so‘m), IHOM
2022	21,5	1685,8	91,8	1652,4	181679,6
2023	23,3	1978,3	90,9	1919,8	233281,2
2024	25,0	2321,6	89,1	2208,3	302549,4
2025	27,1	2724,4	87,4	2565,7	388481,2
2026	29,1	3197,1	85,6	2981,0	498819,7

“Lens Textile invest” MChJda mehnat unumdorligi 2022 yilda 21,5 mln. so‘mlik, 2026 yilda 29,1 mln. so‘mni imkoniyati belgilangan. Shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish hajmi 1685,8 tonnadan 2026 yilga borib 3197,1 tonnaga yetkazish imkoniyati belgilangan. Jumladan,

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.V. Зарубенко, В.А.Стус,К.Е.Белай, И.Г.Иванова “Эффективность управленческих решений” “Соллокуиум-журнал”№3(27), 2019, 30-ст

2. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi/-T.,G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi , 2008, 172-b

3. Б. А. Чернишов “Централизованное управление взаимодействием объектов организационной системы на основе

ushbu ko‘rsatkichlarni erishish maqsadida korxonaning ishlab chiqarish quvvati 2022 yilda 1652,4 tonnadan 2026 yilga borib 2981 tonnaga yetishi asoslangan.

оптимизационных моделей рейтингового оценивания” автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технической наук. Воронож-2020

4. Qalandarov I.U “Funksional jadvallar asosida mantiqiy boshqaruv tizimlarining algoritmik va avtomat modellari yaratish usullari va texnologiyalari” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) disser. avtoreferati. –Toshkent. 2018, 7- 9-b.



## AUDITORLIK TASHKILOTLARI TOMONIDAN AUDITORLIK TEKSHIRUVLARI O'TKAZISH JARAYONIDA DALILLARNI TO'PLASH AHAMIYATI VA ZARURIYATI

Sattorov Alisher

TDIU mustaqil izlanuvchi, PhD, dotsent

[alisher4090@gmail.com](mailto:alisher4090@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 13

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.250>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

AXS, auditorlik tekshiruvi, audit dalillari, dailllar tahlili

### ANNOTATSIYA

Mazkur ilmiy maqolada auditorlik tekshiruvlari jarayonida auditorlik dalillarini tushunish masalasi, ularga qo'yiladigan talablar, ularni olishning tegishli usullari va yo'llarini qo'llash, ayrim turdagi operatsiyalar va hisobot ob'ektlari bo'yicha auditorlik dalillarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari, tashqi tasdiqlar (so'rovlar) va boshqa jihatlar o'rganilgan.

**Kirish.** Moliyaviy xisobotlar auditini o'tkazayotganda auditor tekshirilayotgan moliyaviy xisobotlar MHXSga mos kelishi yoki undan chetlanishlar bo'lgan xollarni aniqlashi uchun zaruriy dalillarni to'playdi. Shu dalillar asosida auditor moliyaviy xisobotlarning to'g'ri yoki noto'g'ri tuzilganini aniqlaydi. Bir so'z bilan aytganda, dalillar audit tekshiruvining asl mohiyatini tashkil etadi. Auditor moliyaviy xisobotlar yuzasidan o'z professional fikrini bildira olishi uchun etarli miqdordagi va sifatli dalillar to'planishi lozim.

Audit tekshiruvi davomida auditor qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan dalillar turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Misol uchun, aktivlarni shaxsan tekshirish, operatsiyalarning haqiqatdan xam sodir bo'lganini uchinchi tarafdin tasdiqlashi, auditorning mijoz bilan o'zaro telefon orqali muloqoti natijasida olingan ma'lumotlar va boshqalar.

Audit dalillari faqatgina etarli miqdorda emas, balki etarlicha sifatli, ishonchli bo'lishi dardor. Dalil sifatli bo'lishi uchun esa u o'z kuchini yo'qotmagan va tekshirilayotgan ob'ektga aloqador bo'lishi lozim.

To'planishi lozim bo'lgan audit dalillarining miqdorini auditorning o'zi professional muloxazasiga asoslangan xolda belgilaydi. Audit dalillarining sifatiga esa bir qator omillar ta'sir etishi mumkin. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- dalillar mijoz korxonadan tashqari manbaalardan olinganda ularning ishonchligi yanada ortadi;
- mijozning ichki nazorat tizimi korxonada tayyorlangan buxgalteriya ma'lumotlari sifatiga ta'sir etadi;
- auditor tomonidan dalillar be'vosita olinganda bu dalillar bilvosita olinganga qaragandagi ishonchligi yuqori bo'ladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Rossiyalik olim Ya.V.Sokolov (Ya.V.Sokolov, 2012) o'z tadqiqot ishida auditorlik dalillarning ahamiyatini ochib bergan. Shuningdek, Professor H.N.Musaev (H.N.Musaev, 2002) auditorlik dalillarini: olinish tartibi, olinish usuli, asoslanishi va kelib chiqish joyi kabi mezonlar bo'yicha turkumlagan.

Professor Z.T.Mamatov (Z.T.Mamatov, 2004) ham auditorlik dalillarini uchta mezon (ichki, tashqi, aralash) bo'yicha guruhlab, moliyaviy hisobot auditida qo'llashning uslubiy jihatlarini ochib bergan. Shuningdek, auditorlik dalillarni to'plashga statistik usullarni qo'llash masalalari tadqiq qilingan.

E.A.Arens va Dj.Lobbek fikricha (E.A.Arens va Dj.Lobbek, 2012), xalqaro va milliy standartlar hamda auditorlik dalillar va auditorlik muolajalari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tushunish auditda muhim ahamiyatga ega.

Professor D.Rajaboyev (D.Rajaboyev, 2010) ta'kidlashicha, auditorlik dalillar audit jarayonida tekshirilayotgan mijoz – korxonada va uchinchi shaxslardan olingan axborotlar hamda ularni tahlil qilish natijalari bo'lib, moliyaviy hisobotning ishonchligi to'g'risida auditorlik xulosasi tuzish imkonini beradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, guruhlash usullari qo'llanildi. Tadqiqot so'ngida ilmiy xulosalar yasaldi.

**Tadqiqot natijalari.** Audit dalillarining etarligi, ularga asoslanib auditor moliyaviy xisobotlarga nisbatan biror fikr hosil qilishi uchun etarli miqdorda bo'lishini nazarda tutadi. Dalillarining etarligini belgilash auditorning professional muloxazani talab etadi. Shu o'rinda quyidagi omillar audit dalillarining etarligini belgilashda ahamiyat kasb etishi mumkin:

- audit dalillarining miqdori ularning sifati bilan teskari bog'lanishda bo'ladi. Ya'ni, dalillar qanchalik sifatli bo'lsa, ularni shuncha kamroq miqdorda to'plash mumkin;
- dalillarining miqdori muximlikka xam bog'liq. Ya'ni tekshirilayotgan ob'ekt qanchalik muxim bo'lsa, to'planishi lozim bo'lgan audit dalillari xam shunchalik ko'proq bo'lishi lozim. Muxim bo'lmagan ob'ektlarga nisbatan kam miqdordagi dalillar to'planishi yoki umuman to'planmasligi xam mumkin.

Audit predmeti xo'jalik faktlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va o'rganishni o'z ichiga oladi, bu ko'proq darajada nazorat-auditorlik jarayonida amalga oshirilgan yoki amalga oshirilishi rejalashtirilgan xo'jalik operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash, tashkilot buxgalteriya (moliyaviy) hisoboti ko'rsatkichlarining ishonchligi va haqiqiylikni aniqlash uchun yetarli miqdordagi sifatli (har tomonlama) dalillarni olish imkonini beradi.

Auditorlik tekshiruvdan oldin va uning davomida barcha bajarilgan tartib-taomillar va olingan ma'lumotlar (auditorlik dalillari) auditorning ish hujjatlarida aks ettiriladi.

Avvalgi audit davomida olingan ma'lumotlar (agar auditor avvalgi audit tugaganidan keyin ushbu ma'lumotlarning joriy audit maqsadlarida qo'llanilishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar bo'lmaganiga ishonch hosil qilgan bo'lsa), auditorning yangi mijozni xizmat ko'rsatishga qabul qilish yoki mavjud mijoz bilan hamkorlikni davom ettirish masalasini hal qilish tartibini belgilaydigan ichki sifat nazorati tartib-taomillari natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar, buxgalteriya hisobi yoki audit bilan bog'liq bo'lmagan ekspert baholash xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs tomonidan tayyorlangan, tekshirilayotgan shaxs tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash jarayonida jalb qilingan ma'lumotlardir.

Auditorlik dalillarini to'plashni strategik rejalashtirishda mantiqiy fikrlashni "ishga solish" kerak. Auditorlik dalillarini to'plash strategiyasi shundan iboratki, auditorlik guruhi to'plangan dalillar asosida fikr bildirish imkoniyatiga ega bo'lish uchun yetarlicha zarur auditorlik dalillarini qanday qilib to'plashni ko'rib chiqish haqida bosh qotiradi. Nazorat ma'lumotlari manbalariga qarab, auditorlik dalillarini to'plash hujjatli va haqiqiy audit usullaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin.

Hujjatli audit tekshiruvdan o'tgan xo'jalik operatsiyasining mohiyatini u aks ettirilgan dastlabki hujjatlar, hisoblar va hisobotlar ma'lumotlariga ko'ra aniqlashdan iborat.

Haqiqiy audit mol-mulk va moddiy boyliklarning haqiqiy qoldig'ini aniqlash uchun ishlatiladigan turli usullar (qayta hisoblash, tortish, o'lchash, laboratoriya tahlillari va boshqalardan foydalangan holda tekshirish ob'ektlarining amaldagi, haqiqiy holatini aniqlashdan iborat.

Auditorlik guruhi aniqlangan auditorlik dalillari asosida asosli xulosalar chiqarishga yordam beradigan zarur ma'lumotlarni to'plash uchun haqiqiy nazorat va hujjatli tadqiqot usullaridan foydalanishi kerak. Har qanday dalil og'zaki emas, balki yozma ravishda qabul qilinsa, uning qiymati ortadi.


Auditorlik dalillarini to'plash quyidagi majburiy mezonlarni aniqlashga qaratilgan bo'lishi kerak (1-rasm):



1-rasm. Auditorlik dalillarini to'plashning majburiy mezonlarni<sup>36</sup>


Auditorlik dalillarini to'plash davomida auditorlar tekshiruv uchun representativ tanlashdan foydalanishga qaror qilishadi. Auditorlik dalillari auditorlik amaliyoti asosida auditorlar tomonidan belgilanadigan audit maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lishi lozim. Dalillarni to'plash jarayonida so'rovnomalar testlaridan foydalanish mumkin, ular davomida o'rganilayotgan tashkilotning ichki nazorati va buxgalteriya hisobining kuchli va kuchsiz tomonlari aniqlanadi.

Yuqori darajali ishonchni ta'minlash uchun auditorlik dalillari turli vositalar yordamida va turli manbalardan olinadi (2-rasm):



2-rasm. Yuqori darajali ishonchni ta'minlash uchun auditorlik dalillari turli vositalar yordamida va turli manbalardan olinadi<sup>37</sup>

Asosiy dalil bo'lib auditor bevosita o'zi to'plagan xo'jalik faoliyati holatlari to'g'risidagi axborot hisoblanadi. Auditorlik dalillarini to'plash quyidagi shakllarda amalga oshiriladi (3-rasm):



3-rasm. Auditorlik dalillarini to'plash shakllari<sup>38</sup>

Auditor tomonidan to'g'ridan-to'g'ri jismoniy tekshirish, kuzatish, arifmetik tekshirish va inspeksiyadan o'tkazish natijasida olingan dalillar, odatda, ishonchliroq bo'ladi.

1-jadval.

"Auditorlik dalillari" 500 son AXSning boshqa standartlar bilan o'zaro bog'liqligi<sup>39</sup>

No	AXS nomi	Xususiyatlari
1.	200-sonli AXS "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditorlik tekshiruvini Auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish"	Etarlicha ishonchga ega bo'lish uchun auditor auditorlik xatarini maqbul darajada pasaytirish uchun yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olishi kerak, bu esa auditorga o'z fikrini asoslash uchun asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi.
2.	230-sonli AXS "Auditni hujjatlashtirish"	AXS talablari, amaldagi qonunchilikda qo'llaniladigan va me'yoriy talablarga muvofiq amalga oshirilgan auditorlik tartib-taomillarining tabiati, vaqti va hajmini hujjatlashtirish talabi; bajarilgan audit tartib-taomillari va olingan auditorlik dalillari natijalarini talab qilish.
3.	240-sonli AXS "Moliyaviy hisobotlar auditida firibgarlik holatida auditorning majburiyatlari"	Auditor amalga oshirilgan auditorlik tartib-taomillari va olingan auditorlik dalillariga asoslanib, tasdiqlash darajasidagi jiddiy xatolar riskini baholash qabul qilinganligi yoki yo'qligini baholashi kerak (auditor moliyaviy ma'lumotlarda noto'g'ri ma'lumotlar mavjudligini baholash uchun tegishli tartib-taomillarni bajariganidan keyin). firibgarlik faoliyati natijasidagi bayonotlar). Bunday baholash firibgarlik natijasida yuzaga kelgan jiddiy xatolar riskiga qo'shimcha tushuntirishlarni taqdim etishi va auditorlik dalillarini to'plash bo'yicha qo'shimcha yoki boshqa auditorlik tartib-taomillarini bajarish zarur yoki zarur emasligini aniqlashi mumkin.

<sup>36</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>37</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>38</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

<sup>39</sup> Muallif tomonidan tuzilgan

4.	315-sonli AXS "Jiddiy xatolar riskini tadbirkorlik sub'ekti va uning biznes muhitini bilish asosida aniqlash va baholash"	Xo'jalik yurituvchi sub'ekt va uning SVKga oid zarur auditorlik dalillarini, jiddiy xatoliklar riskini aniqlash va baholash uchun dalillarni olishga qo'yiladigan talablar.
5.	330-sonli AXS "Baholangan risklarga javoban auditorning harakatlari"	Amalga oshirilgan auditorlik protseduralari va olingan auditorlik dalillariga (baholangan risklar doirasida) asoslanib, auditor auditni yakunlashdan oldin tasdiqlash darajasida jiddiy risklar xatarini baholash maqbulligicha qolishi yoki yo'qligini baholashi kerak. Shuningdek, auditor yetarli va maqbul auditorlik dalillari olingan yoki yo'qligini hal qilishi kerak. U fikrni shakllantirishda barcha tegishli auditorlik dalillarini, ular moliyaviy hisobotdagi tasdiqlarni qo'llab-quvvatlashi yoki ularga zid kelishidan qat'i nazar, hisobga olishi kerak. Agar auditor moliyaviy hisobotdagi biron bir muhim tasdiq bo'yicha yetarli va maqbul auditorlik dalillarini ololmagan bo'lsa, auditor qo'shimcha auditorlik dalillarini olishga harakat qilishi kerak. Agar auditorning yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish imkoni bo'lmasa, auditor moliyaviy hisobot bo'yicha fikrini shartli-ijobiy tarzda bildirishi yoki umuman fikr bildirishdan bosh tortishi kerak.
6.	501-sonli AXS "Auditorlik dalillari – tanlangan to'plamni maxsus ko'rib chiqish"	Auditorga: a) tovar-moddiy xaziralarning mavjudligi va holati; b) xo'jalik yurituvchi sub'ektga oid sud ishlari va da'volar bo'yicha ma'lumotlarning to'liqligi; c) qo'llaniladigan moliyaviy hisobotning konseptual asosiga muvofiq segmentlar bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etish va oshkor qilish bilan bog'liq yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish yuzasidan tavsiyalar
7.	505-sonli AXS "Tashqi tasdiqnomalar"	Auditor tashqi tasdiqlash tartib-taomillarini qo'llashda yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish imkonini beradigan tartib-taomillarni ishlab chiqishi va bajarishi kerak.
8.	520-sonli AXS "Tahliliy tartib-taomillar"	Tahliliy tartib-taomillarni bajarishda yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olishga qo'yiladigan talablarni; shuningdek, audit yakunida auditorga moliyaviy hisobotning xo'jalik yurituvchi sub'ekt haqidagi tushunchasiga muvofiqligi to'g'risida umumiy xulosani shakllantirishda yordam beradigan tahliliy tartib-taomillarni ishlab chiqish va amalga oshirish zaruratini o'z ichiga oladi.
9.	530-sonli AXS "Auditorlik tanlash"	Auditorlik namunalardan foydalanishda auditor tanlab olingan jamlanma to'g'risida asosli xulosalar chiqarishi uchun yetarli, ishonchli va maqbul dalillarni olishi kerak.
10.	570-sonli AXS "Faoliyatning uzluksizligi"	Olingan auditorlik dalillariga asoslanib, auditor, auditorlik fikriga ko'ra, alohida yoki umumiy holda xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z faoliyatini uzluksiz davom ettirish qobiliyatiga jiddiy shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan voqea yoki shart-sharoitlar bilan bog'liq muhim noaniqlik mavjud yoki mavjud emasligi to'g'risida xulosa chiqaradi.
11.	580-sonli AXS "Yozma bayonotlar"	Yozma bayonotlar – bu auditorga zarur bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotlarini tekshirish bilan bog'liq ma'lumotlar. Shuning uchun, so'rovlarga javoblar singari, yozma bayonotlar ham auditorlik dalillari hisoblanadi. Yozma bayonotlar zarur auditorlik dalillarini taqdim etsa-da, ularning o'zi ko'rib chiqiladigan har qanday masala bo'yicha yetarli va maqbul auditorlik dalillari sifatida yetarli emas. Bundan tashqari, boshqaruv xodimlari haqqoniy yozma bayonotlarni berganligi fakti auditor boshqaruv xodimlarining majburiyatlarini bajarishi yoki aniq tasdiqlar bo'yicha oladigan auditorlik dalillarining tabiati va hajmiga ta'sir qilmaydi.
12.	610-sonli AXS "Ichki auditorlar ishidan foydalanish"	Tashqi auditor umuman ichki audit bo'linmasining asosiy ishiga nisbatan auditorlik tartib-taomillarini yetarlicha bajarishi kerak, chunki u audit maqsadlarida yetarli yoki yetarli emasligini aniqlash uchun undan foydalanishni rejalashtiradi.
13.	620-sonli AXS "Auditor tomonidan jalb etilgan ekspert ishidan foydalanish"	Ushbu standart buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan shaxs yoki tashkilotning ishiga nisbatan auditorning javobgarligini belgilaydi, shuningdek, auditor ularning shu sohadagi ishidan yetarli va maqbul auditorlik dalillarini olish maqsadida foydalanadi.

**Muhokama.** Auditorlik dalillari – auditorlik tekshiruv jarayonida auditor tomonidan olingan ma'lumotlar va bu ma'lumotlarning tahlili natijasi bo'lib, ular asosida auditorlik xulosasi chiqariladi. Audit dalillariga moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlar uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatlar va buxgalteriya yozuvlari, audit o'tkazilayotgan shaxs vakolatli xodimlarining yozma tushuntirishlari va turli manbalardan (uchinchi shaxslardan) olingan ma'lumotlar kiradi.

Audit o'tkazish va auditga tegishli va tegishli bo'lmagan boshqa xizmatlar ko'rsatilishidan oldin, tashkilot xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati bilan yetarli darajada tanishib chiqishi kerak.

Buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari auditini o'tkazishda auditorlik tashkiloti buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarining ishonchliligiga, auditning borishi yoki auditorlik xulosasida keltirilgan xulosalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar, operatsiyalar, foydalaniladigan hisob usullarini to'g'ri baholash uchun tekshirilayotgan iqtisodiy sub'ekt faoliyatini yetarlicha tushunishi kerak.

Moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazishda auditor moliyaviy hisobotga, audit yoki auditorlik xulosasiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hodisalar, operatsiyalar va amaliyotlarni tushunish uchun mijozning biznesi haqida yetarlicha bilimga ega bo'lishi yoki bilimni olishi kerak.

Moliyaviy hisobotning AXS talablariga muvofiq sifatli auditini o'tkazish uchun auditor ma'lum miqdordagi ma'lumotlarni to'plashi va qayta ishlashi, ular asosida auditorlik hisobotini tayyorlashi kerak. Auditorlik dalillarini tushunish masalasi, ularga qo'yiladigan talablar, ularni olishning tegishli usullari va yo'llarini qo'llash, ayrim turdagi operatsiyalar va hisobot ob'ektlari bo'yicha auditorlik dalillarini

yaratishning o'ziga xos xususiyatlari, tashqi tasdiqlar (so'rovlar) va boshqa jihatlar. bir qator Auditning xalqaro standartlari bilan tartibga solinadi.

AXS 500ga muvofiq, auditorlik dalillari — bu auditor o'z xulosalarini shakllantirishida foydalanadigan ma'lumotlar, ular asosida auditorlik fikri shakllanadi. Auditorlik dalillari moliyaviy hisobotlar uchun asos bo'lgan buxgalteriya yozuvlaridagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ya'ni, auditorlik tekshiruv vaqtida korxonaning tekshirilgan moliyaviy hisoboti bo'yicha fikr bildirish uchun auditorga kerak bo'lishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlarni olishning soni, turlari, muddatlari va manbalari auditor tomonidan o'z kasbiy mulohazasiga, ichki nazorat tizimiga ishonch darajasiga, auditorlik riski va u bajarishi kerak bo'lgan maxsus vazifalarning umumiy miqdoriga qarab mustaqil ravishda belgilanadi.

Auditorlik dalillarini to'plash, hujjatlashtirish va sharhlash muammosi ko'psonli AXSda to'liq aks ettirilgan.

Auditorlik dalillarining yetarliligi va maqbulligi o'zaro bog'liqdir. Auditorlik dalillarining zaruriy miqdori auditorning jiddiy risklar xavfini baholashiga (baholangan xavf qanchalik yuqori bo'lsa, auditorlik dalillari shunchalik ko'p talab qilinadi), shuningdek, bunday auditorlik dalillarining sifatiga (sifat qanchalik baland bo'lsa, shunchalik kam dalil kerak bo'ladi) bog'liq. Biroq, auditorlik dalillarini ko'proq olish ularning sifatsizligini qoplashi shart emas. Auditorlik dalillarining yetarliligini aniqlashga ta'sir etuvchi omillar orasida quyidagilarni keltirish mumkin: auditorlik riski darajasi; moliyaviy hisobotdagi moddaning (hisob-kitob) muhimligi; auditorning oldingi auditorlik tekshiruvlari jarayonida egallagan tajribasi; audit tartib-taomillari natijalari, shu jumladan aniqlanishi mumkin bo'lgan firibgarlik yoki xatolar; mavjud

ma'lumotlarning turi.

Fikrimizcha, dalillar to'plangan va kuzatuvlar o'tkazish uchun haqiqiy asos sifatida foydalaniladigan ma'lumotlar, shuningdek, o'tkazilgan auditga nisbatan chiqarilgan xulosalardir. Ular ma'lum bir holatni qo'llab-quvvatlovchi ishonchli dalillarni keltirish orqali aniq bayonotning haqiqiylikni ta'minlaydi. Strategik audit rejasini ishlab chiqishda auditorlik dalillarini to'plash usullariga o'rin beriladi, ularni auditorlik tashkiloti zarur dalillarni to'plash va tahlil qilish uchun foydalanishni rejalashtirgan. Bundan tashqari, rejada auditorlar ma'lum mezonlarga rioya qilingan yoki qilinmaganligini baholash uchun auditorlik dalillaridan qanday foydalanishlari ko'rsatilgan, bu ularga audit natijalari bo'yicha xulosa chiqarish imkonini beradi.

**Xulosa.** Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Auditorlik dalillarining ishonchligi, agar ular xo'jalik yurituvchi sub'ektdan tashqaridagi mustaqil manbalardan olingan bo'lsa, sezilarli darajada oshadi.

2. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida olingan auditorlik dalillarining ishonchligi, agar u tomonidan kiritilgan tegishli ichki nazorat choralari, shu jumladan, ma'lumotlarni tayyorlash va saqlash ustidan nazorat samarali bo'lsagina oshadi.

3. Bevosita auditor tomonidan olingan auditorlik dalillari bilvosita yoki taxminlar asosida olingan dalillarga qaraganda ishonchliroqdir.

4. Hujjatli ko'rinishdagi (qog'oz, elektron yoki boshqa shakldagi)

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sokolov Ya.V. Eticheskij kodeks professionalnogo auditora. M.: «Buxgalterskiy uchets». №8, 1992 g. s. 12-13.

2. Musaeov H.N. Audit. Darslik, T.: "Moliya", 2003 y., 179 b.

3. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. TMI.. 2004. 348 b.

4. Arens E.A., Lobbek Dj.K. Audit: per. s angl. / Gl. redaktor serii prof. Ya.V.Sokolov – M.: «Finansi i statistika», 2012. – 560 s.:il. – (Seriya po buxgalterskomu uchetu i auditu).

5. "Auditorlik dalillari" 500 son AXS

6. Kucherov A.V. Osobnosti audita za rubejom / A.V. Kucherov, Ya.M. Kozicheva // Molodoy ucheniy. — 2013. — № 5. — S. 339–343.

7. Myasnikov V. V. Schetnaya palata kak institut gosudarstvennogo finansovogo kontrolya na urovne sub'ekta

auditorlik dalillari og'zaki olingan dalillarga qaraganda ishonchliroqdir (masalan, aksiyadorlar yoki ta'sischilarning yig'ilishlarida muhokama qilingan masalalarni og'zaki bayon etishdan ko'ra, yig'ilishlarning o'z vaqtida tuzilgan yozma bayonnomalari ishonchliroqdir).

5. Asl hujjatlar (hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomalari, bank ko'chirmalari va boshqalar) bilan tasdiqlangan auditorlik dalillari fotosuratga olingan, fotonusxalar yoki faksimil nusxalar, shuningdek, raqamlashtirilgan yoki boshqa usulda elektron shaklga o'tkazilgan hujjatlar bilan tasdiqlanganidan ko'ra ishonchliroqdir. Bunday dalillarning ishonchligi uni tayyorlash va saqlash bo'yicha nazorat choralari bog'liq bo'lishi mumkin.

Bizningcha, auditorlik dalillarini olish manbalari bo'lib birlamchi hujjatlar, buxgalteriya hisobi registrlari, moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish natijalari, inventarlash materiallari, buxgalteriya hisoboti xizmat qilishi mumkin. Agar auditor turli manbalardan olingan dalillardan ularni taqdim etishning turli shakllaridan foydalansa, u holda auditorlik tavakkalchiligi kamayadi. Eng ishonchli dalillar mustaqil manbalar (uchinchi shaxslardan), mustaqil tahlil va yozma shaklda olinadi.

Axborot o'rinni bo'lishi, auditorlik tekshiruv jarayonida aniqlangan dalillar va ishlab chiqilgan tavsiyalarni tasdiqlashi, shuningdek audit maqsadlariga mos kelishi kerak. Axborot xo'jalik yurituvchi sub'ekt uchun foydali bo'lishi hamda unga auditorlik tekshiruv vazifalarini bajarishda yordam berishi ham zarur.

Rossiyskoy Federasii: dis. ... kandidata ekon. nauk: 08.00.10 / Myasnikov Vladimir Viktorovich. – M., 2002. – 253 s.

8. K. Axmedjanov, I. Yakubov: Audit asoslari/ darslik/ Toshkent-2010/ 291 bet.

9. A. Karimov, F. Islomov va A. Avloqulov: Xalqaro audit/ darslik/ Toshket- 2015 / 397 bet

10. Nojkina T.V. Mejdunarodniy audit: Uchebnoe posobie / T.V. Nojkina. — Petropavlovsk-Kamchatskiy: KamchatGTU, 2007. — 127 s.

11. Plaksienko V.Ya. Perspektivi razvitiya auditorskoy deyatelnosti v Ukraine v sravnenii so stranami YeS / V.Ya. Plaksienko, K.V. Chernenko // Naukoviy visnik Ujgorodskogo nasionalnogo universi- tetu. — 2016. — Vipusk 7, chastina 3. — S. 12–14.



## DOES INFLATION SIGNIFICANTLY AFFECT STOCK INVESTMENTS AND THEIR PRICE?

Turanboyev Boburjon

Lecturer at the Department of International Tourism  
and Economy, Kokand University

Nishonkulov Shohruhxon

Kokand university 3rd year student of economics

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATION
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2023-yil  <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2023-yil  <b>Jurnal soni:</b> 1  <b>Maqola raqami:</b> 14  <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.251">https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.251</a></p>	<p>This paper uses data from 7 emerging markets and shows that investment of firms headquartered in countries with higher inflation is significantly less sensitive to their stock prices than that of firms headquartered in countries with lower inflation. We argue that stock prices are less informative in countries with high inflation. As a result, managers are less likely to use stock prices in their investment decisions, thereby lowering sensitivity of investment to stock prices in countries with higher inflation.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b>                      Capital Expenditures; Emerging Markets,                      Inflation, Stock Prices.</p>	

**Introduction.** This paper is an attempt to identify the welfare cost of inflation by documenting its impact on the relationship between capital expenditures (investment) undertaken by firms and stock prices. Our arguments take their motivation from prior literature that documents negative effect of inflation on the information content of prices. Friedman, for instance, argues that inflation reduces the information content in prices by increasing the noise. In another related study, Modigliani and Cohn state that investors suffer from "inflation illusion" and do not incorporate the effect of inflation in their forecasts, thereby causing equity mispricing. Fischer also maintains that inflation is associated with price variability that is unrelated to fundamentals. We argue that deviations from fundamentals should reduce the information content of stock prices. Above arguments are consistent with Ball and Romer who develop a model in which inflation reduces informativeness of prices. In their model, decision of consumers to enter into a long-term relationship with sellers depends on a firm's current price. They argue that firm's current price is a signal about prices that a firm will charge in future. They show that when inflation causes relative prices to vary, it reduces the information about future prices in current prices. Consequently, current prices become less informative. Tommasi also reports that inflation degrades the informational content of prices by making aggregate demand shocks unpredictable. 1 He maintains that it is optimal for firms to adjust output less in response to all shocks, including idiosyncratic real demand shocks. The outcome of this misperception is that prices fluctuate more to equate quantity demanded with the less variable quantity supplied. Given that inflation leads to higher variability in prices, it becomes hard for economic agents to detect relevant information from prices. 2 Our arguments are also consistent with a strand of literature that argues that stock market agents (that is, analysts and investors) are not able to make accurate forecasts in the presence of high inflation, thereby making stock prices less informative. Basu et al. show that analysts do not fully incorporate expected inflation information in their forecasts. In another related study, Chordia and Shivakumar show that, during periods of high inflation, investors do not accurately predict earnings.

An important implication of lower information value of stocks prices that accompany high inflation regimes is concerned with sensitivity of investment to stock prices. Prior literature argues that sensitivity of investment to stock prices is an increasing function of informativeness of prices. This strand of literature maintains that managers use information revealed via stock prices to find out what stock market participants think about the future prospects of their. Foucault and Frésard, for example, show that sensitivity of corporate investment to stock price increases as the amount of information in stock prices increase. They argue that investment sensitivity to stock prices increase because value maximizing managers are forced to use information transmitted via stock prices to forecast cash flows of their capital allocation decisions. Their forecasts depend not only on their own information but also on information conveyed via stock prices (because stock prices reflect information that is not known to them). They argue that value maximizing managers are inclined to use this

information to improve their investment decisions. It, therefore, leads to higher sensitivity of investment to stock prices. In another recent study, Farooq and Amin also document the same by showing that sensitivity of investment to stock prices increases as informativeness of stock prices increase. They argue that if informativeness of stock prices go down, managers rely less on stock prices to make investment decisions, thereby reducing sensitivity of investment to stock prices.

Consistent with above arguments, this paper shows that sensitivity of investment to stock prices depends on inflation prevailing in the country. Using data from 7 emerging markets, we show that higher inflation leads to reduction in sensitivity of investment to stock prices during the period between 2009 and 2014. We argue that higher inflation reduces efficiency of prices, thereby resulting in lower reliance of managers on stock prices. As a result, sensitivity of investment to stock prices goes down in regimes with high inflation. Our results are robust across various estimation procedures and across various subsamples. We also show that negative impact of inflation on sensitivity of investment to stock prices is less pronounced in countries with stronger governance and information environment.

The remainder of the paper is structured as follows: Section 2 summarizes the data. Section 3 presents assessment of our hypothesis. Section 4 presents additional tests, while the paper ends with Section 5 where we present conclusions.

**Literature review.** Inflation has long been a concern for investors, as it can erode the value of their investments over time. However, the relationship between inflation and stock investments is complex and multifaceted. Several studies have attempted to explore the impact of inflation on stock prices and investments, with varying results.

One study by Fama and Schwert (1977) found that there was a negative correlation between inflation and stock returns, meaning that as inflation increased, stock returns decreased. However, other studies have found mixed results, with some finding no significant correlation between inflation and stock returns (Chen et al., 1986; Bhatti et al., 2015).

Another factor to consider is the type of inflation. Demand-pull inflation, which occurs when demand for goods and services outstrips supply, is generally seen as positive for stocks as it indicates a growing economy. However, cost-push inflation, which occurs when production costs increase due to factors such as rising commodity prices or wage increases, can have a negative impact on stocks as it reduces corporate profits (Lutkepohl and Wolters, 2013).

Additionally, the impact of inflation on different sectors and industries can vary. For example, some studies have found that inflation has a stronger negative impact on consumer discretionary stocks than on consumer staples stocks (Bhatti et al., 2015). Similarly, high inflation may benefit companies in industries such as healthcare or utilities, which provide essential services and have pricing power.

Overall, the relationship between inflation and stock investments is complex and dependent on various factors. While some studies have found a negative correlation between inflation and stock returns, others have found no significant impact or even positive effects in certain

scenarios. Investors should consider the type of inflation, sector-specific impacts, and other economic factors when making investment decisions in relation to inflation.

**Data.** This paper documents the effect of inflation on sensitivity of investment to stock prices in emerging markets during the period between 2009 and 2014. For the purpose of this study, our sample consists of non-financial firms listed in China, Colombia, India, Indonesia, Russia, South Korea, Turkey. The following sub-sections will explain data in greater details. All data is in dollars.

**Main variables.** CAPEX: It is a measure of corporate investment in year t. It is measured by the ratio of capital expenditures in that year scaled by lagged book assets (Foucault and Frésard, 2012).

Q: This paper uses Tobin's Q as a measure of normalized prices. We compute Q as the market value of equity plus book value of assets minus the book value of equity, scaled by book assets (Foucault and Frésard, 2012).

**INFLATION:** It is defined as a sustained increase in the general level of prices for goods and services. It is measured as an annual percentage increase.

Table 1 documents descriptive statistics for the main variables used in analysis. The results shows relatively similar amount of capital expenditures across our sample countries. However, in case of Tobin's Q, our sample shows considerable variation across countries.

China, Colombia, India, Indonesia, Russia, South Korea, Turkey

**Table 1: Descriptive statistics**

Variables	NO. OF observations	Invest	q
China	7456	0.0750	2.0826
Colombia	116	0.0612	1.2864
India	10338	0.0697	1.2003
Indonesia	1272	0.0656	1.4399
Russia	1158	0.0665	1.0751
South Korea	7086	0.0585	1.1016
Turkey	1071	0.0494	1.2874

**Control variables.** In addition to above variables, we use log of total assets (SIZE), total debt to total asset ratio (LEVERAGE), earnings per share (EPS), growth sales (GROWTH), and dividend payout ratio (PoR) as control variables. All of these variables are expected to affect capital expenditures.

**Research methodology.** In order to document, the impact of inflation on sensitivity of investment to stock prices, we estimate various versions of the following equation. All variables are as defined above. For the purpose of completeness, we also include industry dummies (IDUM) and year dummies (YDUM) in our analysis. Our estimation is similar in spirit to earlier studies, such as Foucault and Frésard (2012) and Farooq and Amin (2017).

$$\text{CAPEX}_t = \alpha + \beta_1 (Q_{t-1}) + \beta_2 (\text{INFLATION}_{t-1}) + \beta_3 (Q_{t-1} * \text{INFLATION}_{t-1})$$

$$+ \beta_4 (\text{SIZE}_{t-1}) + \beta_5 (\text{LEVERAGE}_{t-1}) + \beta_6 (\text{GROWTH}_{t-1}) + \beta_7 (\text{EPS}_{t-1})$$

$$+ \beta_8 (\text{PoR}_{t-1}) + \sum_{Y=1}^{N-1} \gamma_1 (\text{IDUM}_{t-1}) + \sum_{Y=1}^{N-1} \theta \gamma (\text{YDUM}_{t-1}) + \varepsilon_t$$

The results of our analysis are reported in Table 2.<sup>40</sup> The parameter of interest in this analysis is the coefficient of Q\*INFLATION. Our results show that sensitivity of investment to stock prices is lower in regimes characterized by high inflation. We report significantly negative coefficient of Q\*INFLATION. We argue that high inflation reduces informativeness of stock prices (Ball and Romer, 2003). Lower informativeness of prices results in lower sensitivity of investment to stock prices.

**Results and Discussion**

**Table 2: Effect of inflation on investment-price sensitivity**

Variables	Model (1)	Model (2)	Model (3)
Q	0.0149***	0.0114***	0.0100***
INFLATION	0.0029***	0.0035***	0.0032***
Q*INFLATION	-0.0009***	-0.0009***	-0.0008***
SIZE		0.0047***	0.0045***
0.0045***			-0.0003***
EPS			-0.0003
PoR			0.0001
GROWTH			0.0002***
Fixed Effects	Yes	Yes	Yes
No. of Observations	43422	43422	37313
F-Value	76.36***	131.78***	100.82***
Adjusted R-Square	0.035	0.047	0.047

There may be concerns that our results are confined to certain stocks. In order to overcome this concern, we divide our sample into two

groups based on size. We reestimate Equation (1) for both groups. Table 3 documents the results of our analysis. Our results remain qualitatively

<sup>40</sup> As an additional test, we compute the standard errors by clustering the observations within each firm. Our unreported results show that significance of variables remains qualitatively the same.



the same for both sub-samples. We report significantly negative coefficient of Q\*INFLATION for sub-samples of small and large firms.

**Table 3: Effect of inflation on investment-price sensitivity in different sub-samples**

Variables	Small Firms	Large Firms
Q	0.0106***	0.0104***
INFLATION	0.0034***	0.0032***
Q*INFLATION	-0.0009***	-0.0008***
SIZE	0.0062***	0.0029***
LEVERAGE	-0.0002***	-0.0003***
EPS	0.0037***	-0.0013***
PoR	0.0001***	-0.0001***
GROWTH	0.0001***	0.0003***
Fixed Effects	Yes	Yes
No. of Observations	18144	19169
F-Value	40.94***	32.80***
Adjusted R-Square	0.034	0.040

**Additional tests.**

***Inflation and sensitivity of investment to stock prices (quantile regression analysis)***

Our analysis implies that no matter what point on the conditional distribution is analyzed, the impact of inflation on the sensitivity of investment to stock prices remains the same. To test the empirical validity of this restrictive assumption and to document the relationship

at different points of conditional distribution of capital expenditures, a quantile regression is applied at five quantiles (namely 0.10, 0.30, 0.50, 0.70, and 0.90). The results of our analysis are reported in Table 4. Consistent to above findings, we report significantly negative coefficient of Q\*INFLATION for all points of conditional distribution of capital expenditures.

**Table 4: Effect of inflation on investment-price sensitivity (quintile regression)**

Variables	0.10	0.30	0.50	0.70	0.90
Q	-0.0001	0.0025***	0.0057***	0.0129***	0.0344***
INFLATION	0.0001***	0.0007***	0.0018***	0.0040***	0.0098***
Q*INFLATION	0.0016***	0.0040***	0.0056***	0.0065***	0.0041***
SIZE	0.0016***	0.0040***	0.0056***	0.0065***	0.0041***
LEVERAGE	-0.0001***	-0.0001***	-0.0001***	-0.0002***	-0.0003***
EPS	0.0001	0.0003	0.0001	0.0001	-0.00011*
PoR	0.0001***	0.0001***	0.0001***	0.0001***	-0.0001
GROWTH	-0.0007**	0.0001***	0.0002***	0.0004***	0.0011***
Fixed Effects	Yes	Yes	Yes	Yes	Yes
No. of Observations	37313	37313	37313	37313	37313
Adjusted R-Square	0.0253	0.0480	0.0523	0.0504	0.0462

**Country-specific information environment and the relationship between inflation and sensitivity of investment to stock prices**

In order to document the effect of country-specific information environment on the relationship between inflation and sensitivity of investment to stock prices, we estimate various versions of the following regression equation. In the following regression, GOV is a variable that proxies for governance environment of a country. For the purpose of this paper, we use the following proxies of governance environment of a country: (1) Legal tradition, (2) Rule of law, (3) Property rights, and (4) Regulatory quality<sup>41</sup>.

$$CAPEX_t = \alpha + \beta_1(Q_{t-1}) + \beta_2(INFLATION_{t-1}) + \beta_3(Q_{t-1} * INFLATION_{t-1}) + \beta_4(GOV_{t-1}) + \beta_5(Q_{t-1} * INFLATION_{t-1} * GOV_{t-1}) + \beta_6(SIZE_{t-1}) + \beta_7(LEVERAGE_{t-1}) +$$

$$\beta_8(GROWTH_{t-1}) + \beta_9(EPS_{t-1}) + \beta_{10}(PoR_{t-1}) + \sum_{i=1}^{N-1} Y1 (IDUM_{t-1}) + \sum_{i=1}^{N-1} \theta_i Y(YDUM_{t-1}) + \epsilon_t$$

The results of our analysis are reported in Table 4. The parameter of interest in above regression equation is the coefficient of Q\*INFLATION\*GOV. We report significantly positive coefficient of Q\*INFLATION\*GOV for all proxies of governance environment of a country. Our result indicate that negative effect of inflation on sensitivity of investment to stock prices is less pronounced in countries with stronger governance environment. We argue that negative impact of inflation on informativeness of prices is less pronounced in countries with stronger governance environment. Therefore, managers in these

<sup>41</sup> Legal tradition is a dummy variable that takes the value of 1 if the country follows common law traditions and 0 otherwise. Rule of law indicates the quality of contract enforcement, effectiveness of police and courts, likelihood of crime and violence, and abidance of rules of society by the citizens. The variable is obtained from the World Bank Governance Indicators and is measured in a way that higher value indicates stronger rule of law. Regulatory quality captures

perceptions of the ability of the government to formulate and implement sound policies and regulations that permit and promote private sector development. The variable is obtained from the World Bank Governance Indicators and is measured in a way that higher value indicates better regulatory quality. A property right is defined as the exclusive authority to determine how a resource is used. The data regarding property rights is obtained from the Heritage Foundation.

countries are more likely to use information from stock prices relative to otherwise similar countries with weaker governance environment.

**Table 5: Country-level governance environment and the effect of inflation on investment-price sensitivity**

Variables	Legal Tradition	Rule of Law	Property Rights	Regulatory Quality
Q	0.0109***	0.0093***	0.0095***	0.0081***
INFLATION	0.0034***	0.0030***	0.0033***	0.0024***
Q*INFLATION	-0.0013***	-0.0007***	-0.0016***	-0.0005***
GOV	-0.0023*	-0.0077***	-0.0003***	-0.0099***
Q*INFLATION*GOV	0.0004***	0.0004***	0.0001***	0.0005***
SIZE	0.0046***	0.0043***	0.0043***	0.0044***
LEVERAGE	-0.0003***	-0.0002***	-0.0002***	-0.0002***
EPS	-0.0002	0.0001	0.0001	0.0002
PoR	0.0001	0.0001	0.0001	0.0001
GROWTH	0.0002***	0.0002***	0.0002***	0.0002***
Fixed Effects	Yes	Yes	Yes	Yes
No. of Observations	37313	37313	37313	37313
F-Value	92.97***	98.93***	101.08***	102.06***
Adjusted R-Square	0.047	0.048	0.049	0.049

**Conclusions.** In this paper, we test the hypothesis that high inflation emasculates the ability of managers to use information from the stock market to make value enhancing investment decisions. Using the data from 7 emerging markets, we show that investments of firms headquartered in high inflation regimes are significantly less sensitive to

stock prices than that of firms headquartered in low inflation regimes. We argue that our results are driven by the effect of inflation on the informativeness of stock prices. Inflation reduces the informativeness of stock prices, thereby leading to lower sensitivity of investment to stock prices.

#### References:

1. Ball, L. and Romer, D., (2003). Inflation and the Informativeness of Prices. *Journal of Money, Credit, and Banking*, 35(2), pp. 177-196.
2. Barro, R.J., (1976). Rational Expectations and the Role of Monetary Policy. *Journal of Monetary Economics*, 2(1), pp. 1-32.
3. Basu, S., Markov, S., and Shivakumar, L., (2010). Inflation, Earnings Forecasts, and Postearnings Announcement Drift. *Review of Accounting Studies*, 15(2), pp. 403-440.
4. Chordia, T. and Shivakumar, L., (2005). Inflation Illusion and Post-earnings-announcement Drift. *Journal of Accounting Research*, 43(4), pp. 521-556.
5. Dow, J. and Gorton, G., (1997). Stock Market Efficiency and Economic Efficiency: Is There a Connection? *Journal of Finance*, 52(3), pp. 1087-1129.
6. Farooq, O. and Amin, A., (2017). National Culture, Information Environment, and Sensitivity of Investment to Stock Prices: Evidence from Emerging Markets. *Research in International Business and Finance*, 39(A), pp. 41-46.
7. Saryal, F.S., (2007). Does Inflation Have an Impact on Conditional Stock Market Volatility? Evidence from Turkey and Canada. *International Research Journal of Finance and Economics*, 11, pp. 123-133.
8. Tommasi, M., (1996). Inflation and Informativeness of Prices: Microeconomic Evidence from High Inflation. *Brazilian Review of Econometrics*, 16(2), pp. 37-75.
9. Foucault, T. and Frésard, L., (2012). Cross-Listing, Investment Sensitivity to Stock Prices, and Learning Hypothesis. *Review of Financial Studies*, 25(1), pp. 3305-3350.



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI FAOLIYATIDAGI DAROMADLARI VA XARAJATLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Xojayev Azizxon Saidaloxonovich,**

"Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini dosenti,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
Farg'ona politexnika instituti,  
E-mail: a.xojayev@ferpi.uz, imf\_azizi83@mail.ru,  
Tel.: +99890-274-33-99,  
ORCID 0000-0002-6858-4327

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATION
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2023-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2023-yil <b>Jurnal soni:</b> 1 <b>Maqola raqami:</b> 15 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.252">https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.252</a></p> <p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b> byudjet tashkiloti, davlat oliy ta'lim muassasasi, byudjetdan tashqari mablag'lari, daromadlar va xarajatlar smetasi, faoliyat yo'nalishlari, byudjetdan tashqari daromadlari</p>	<p>Mazkur maqolada davlat oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari daromadlari va ularni hisobga olishning nazariy va amaliy masalalari to'g'risiga doir masalalar tadqiq qilingan. Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatlari bo'yicha daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirishga doir ishlarini tizimli tashkil qilish maqsadida analitik schyotlarni ochish bo'yicha tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan. Davlat oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari faoliyatlaridagi buxgalteriya hisobini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.</p>

**Kirish.** Bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarida daromadlari va xarajatlari hisobini to'g'ri tashkil qilishni hisobga olish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Chunki yaqinda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan taqdim etilgan axborotda davlat oliy ta'lim muassasalarining 69 tasidan 49 tasi o'z faoliyatini foyda bilan, qolgan 20 tasi esa zarar bilan yakunlangan [1]. Shunga ko'ra aytish mumkin, davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini o'rganish, ularning daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi smetalarni bajarilishi, byudjetdan tashqari mablag'lari hisobini to'g'ri tashkil etilishini o'rganish muhim masalalardan biri sanaladi. Chunki hozirgi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarining davlat byudjetidan moliyalashtirish o'rtacha 25-30 foizni tashkil etib, qolgan qismi esa byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari faoliyatida qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni topishga, ularni tizimli ishlatishga ruxsat berilgan. Shuning uchun ham bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining bu boradagi faoliyat yo'nalishlarini o'rganish, ularni ko'paytirish uchun zaruriy resurslarini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Ko'rinib turibdiki, davlat oliy ta'lim muassasalaridan byudjetdan tashqari mablag'larning mohiyati, turlari va ularni hisobga olish masalalarini o'rganish muhim masalalaridan biri hisoblanib, bu tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbliligini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari tarkibida byudjet tashkilotining rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish, tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari daromadlarini shakllantirish, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larini undiriladigan to'lovlar hisobidan shakllantirish masalalari yoritilgan Kodeks (2013) [2].

Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalari bo'yicha yo'riqnomalar tasdiqlangan bo'lib, unda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalari keltirilgan (Buyruq, 2010) [3].

A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayevlar (2010) tadqiqot ishida byudjet nazorati va auditi tashkil etishning nazariy va amaliy masalalari o'rganilgan [4].

M.Ostanqulov (2009) tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalari tadqiq qilingan [5].

S.U.Mehmonov (2018) tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari o'rganilgan [6].

M.X.Saidov (2011) tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish masalalari, byudjetdan tashqari mablag'larni tarkibiy jihatlarini tadqiq qilingan [7].

Sh.V.G'aniyev (2008) tadqiqotlarida ta'lim tizimi misolida byudjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan [8].


Yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek, qabul qilingan kodeks, nizom va buyruqlarda asosan byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'larning buxgalteriya hisobini tashkil etishga yetarlicha tadqiqotlarning olib borilmaganligi, mazkur mavzuning tadqiq ob'yekti sifatida o'rganilishiga sabab bo'ldi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash kabi statistik usullardan keng foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Oliy ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishda byudjetdan tashqari mablag'larning buxgalteriya hisobi va nazorati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oliy ta'lim muassasalari faoliyatida topilgan byudjetdan tashqari mablag'lar oliyog' rahbariyat tomonidan qabul qilingan qarorlarning natijadorligini "teskari aloqa" sifatida yaqqol ko'rsatib, yakuniy natijalari orqali baholash mumkin bo'ladi. Oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari bilan bog'liq faoliyatlarini to'g'ri tashkil qilish, eng avvalo, olinadigan axborotlarning ishonchligiga bog'liq. Oliy ta'lim muassasalarida ishonchli axborotlarni ushbu faoliyatlar bo'yicha to'g'ri tashkil qilingan buxgalteriya hisobi orqali olish mumkin.

Umuman olganda oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobini tashkil etishda ushbu axborotlardan foydalanuvchilarni aniqlab olish zarur bo'ladi. Eng avvalo, oliy ta'lim muassasalari buxgalteriya hisobining ma'lumotlaridan foydalanuvchilarni ichki va tashqi foydalanuvchilarga ajratish mumkin. Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun ishoqli, aniq ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etishni nazarda tutadi (1-rasm).

Bugungi kunda davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishda davlat byudjeti bilan bir qatorda byudjetdan tashqari mablag'lari hisobini yuritish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shunday ekan oliy ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari faoliyatlarini va ularning turlari bo'yicha olinadigan daromadlarini bilish zarur bo'ladi.



1-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida buxgalteriya hisobi axborotlaridan foydalanuvchilar [9]

Umuman olganda oliy ta'lim muassasiga daromad keltiradigan faoliyat yo'nalishlarini quyidagi rasm orqali ko'rish mumkin (2-rasm).


Oliy ta'lim muassasalarida daromad keltiruvchi faoliyat yo'nalishlari bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Asosiy faoliyati bo'yicha olingan daromadlar:

- talabalar, shu jumladan, xorijiy talabalarni o'qitish
- tayanch doktorant (PhD) va doktorantlarni (DSc) tayyorlash;
- chuqurlashtirilgan ta'lim berish;

- oliygohlarga kirish uchun qo'shimcha fanlardan tayyorlash;
- professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida o'qitish;
- qo'shimcha pullik ta'lim, shu jumladan to'garaklar, seksiyalar, klublar tashkil qilish;
- maxsus yaratilgan sharoitlarda o'qitish;
- boshqa ta'lim xizmatlari.

2. Ilmiy va ilmiy tadqiqot faoliyati bo'yicha daromadlari:



2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarining daromad keltiruvchi faoliyat yo'nalishlari tarkibiy tuzilishi [10]

- ilmiy (ilmiy-texnikaviy) yaratilgan ishlanmalarni, intellektual mulk obektlarini sotish;

- ilmiy tadqiqot ishlariga doir xizmatlarni ko'rsatish: konsalting, ekspertiza, patent ishlari va boshqalar;

- ilmiy tadqiqot ishlari asosida xo'jalik shartnomalari, davlat grantlariga bajarish;

- ilmiy jurnallarni chop etish, ilmiy konferensiyalar va seminarlar o'tkazishdan olingan daromadlar.

3. Innovasion faoliyatidan olingan daromadlari:

- innovasiyalarni joriy etishdan olingan daromadlari;

- professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan yangi ilmiy ishlanmalarni joriy etishdan olingan daromadlar.

4. Halqaro aloqalar bilan bog'liq faoliyatidan olingan daromadlar:

- Qo'shma ta'lim dasturlari asosida talabalarni o'qitish;

- Halqaro talabalarni ta'lim almashish dasturlariga jalb qilish;

- Halqaro konferensiyalar va seminarlar o'tkazish;

- Halqaro grantlarni jalb qilish.

5. Tadbirkorlik bilan bog'liq faoliyatidan olingan daromadlar:

- Binolarni ijaraga berishdan olingan daromadlari;

- Omonatga mablag'larni qo'yish;

- Boshqa kompaniyalarning aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotish olish va sotish;

- Talabalar turar joyidan olinadigan to'lovlar;

- Mehmonxona xizmatini ko'rsatish;

- Moliyaviy sanksiyalar bo'yicha olingan daromadlar (penya, shtraf va h.k.).

6. Ma'naviy ma'rifiy va sport faoliyatidan daromadlar

- ijtimoiy ma'naviy tadbirlarni o'tkazish;

- aholining ijtimoiy va moliyaviy savodxonligini oshirishi bo'yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish;

- oliygohning sport inshootlarini ijaraga berish yoki qo'shimcha foydalanuvchilarni to'garaklarga jalb etish orqali daromadlar olish.

Shuningdek bugungi kunda talabalarining bazaviy, oshirilgan yoki tabaqalashtirilgan to'lov shartnoma mablag'laridan, oliygohlarga kredit-modul tizimi bo'yicha talabalarining o'zlashtira olmagan fanlardan kredit qarzdorligi bo'yicha qayta o'zlashtirish uchun amalga oshiriladigan to'lovlari bo'yicha ham daromadlar olinmoqda. Lekin ularning barchasi bitta schyotda aks ettirilganligi uchun ham har biri bo'yicha shaffof ma'lumotlarni olish imkoniyati mavjud emas. Shunga ko'ra davlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagi analitik schyotlarni olish tavsiya etilmoqda:

- to'lov shartnoma mablag'lari bo'yicha bazaviy hisoblash miqdori, oshirilgan va tabaqalashtirilgan qismiga analitik hisob-kitoblarni takomillashtirish maqsadida quyidagi schyotlar tavsiya etiladi:

"343610 (175/1) – Bazaviy to'lov shartnoma miqdorida tushgan mablag'lar";

"343620 (175/2) – Oshirilgan va tabaqalashtirilgan to'lov shartnoma miqdorida tushgan mablag'lar" analitik schyotlari tavsiya etilgan. Mazkur tavsiya etilgan analitik schyotlar yordamida bazaviy, oshirilgan va tabaqalashtirilgan qismi bo'yicha to'lov shartnoma majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan axborotlarning aniq olishini va tegishli moliyaviy qarorlarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

- kredit-modul tizimi bo'yicha talabalarining o'zlashtira olmagan fanlardan kredit qarzdorligi bo'yicha qayta o'zlashtirish uchun amalga oshiriladigan to'lovlari yuzasidan "343630 (175/3)-Kredit modul tizimi bo'yicha fanlardan qarzdorlik to'lovlari" deb nomlangan yangi

#### Adabiyotlar/Literatura/Reference:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida. <https://edu.uz/media/53f956aa-be00-124a-3f8f-90a6fbd88bdf.pdf>

2. Kodeks (2013) O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.

3. Buyruq (2010) Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida, O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligining 105-sonli buyrug'i, 2010 yil 17 dekabr

analitik schyotni ochish va ular bilan bog'liq hisob-kitoblarni mazkur schyotda yuritish tavsiya etildi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi kredit-modul tizimi bo'yicha kredit qarzdorligi bo'yicha axborotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

- talabalar turar joyidagi talabalardan olinadigan to'lov mablag'larini hisobga olish maqsadida "343650 (175/5) -Talabalar turar joyi uchun to'lovlari" yangi analitik schyotni ochish va uni yuritish uslubiyoti tavsiya etildi. Bu orqali qilingan to'lov mablag'lari bo'yicha axborotlarni olish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Yuqoridagi analitik schyotlarni kiritilishi orqali oliy ta'lim muassasalaridan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha olingan daromad va xarajatlarni hisoblab, ta'lim muassasasining faoliyat yo'nalishlari bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalarni shaffof aniqlash imkoniyatiga ega bo'lanadi.

**Xulosa va takliflar.** Oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan

tashqari faoliyatidagi daromadlari va xarajatlari hisobini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar olindi:

1. Oliy ta'lim muassasasining faoliyat yo'nalishlari bo'yicha byudjetdan tashqari mablag'larni qo'shimcha topish maqsadida mavjud moddiy texnik bazasi, ilmiy salohiyati va professor-o'qituvchilarning imkoniyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirish zarur bo'ladi.

2. Byudjetdan tashqari faoliyati bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalarining daromad keltiruvchi faoliyat yo'nalishlari tarkibiy tuzilishi aniqlashtirildi va ular asosida topilishi mumkin bo'lgan daromadlari tarkibi tadqiq etildi.

3. Shuningdek bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida to'lov shartnoma mablag'lari bo'yicha: bazaviy hisoblash miqdori, oshirilgan va tabaqalashtirilgan qismiga alohida analitik schyotlar tavsiya etildi:

"343610 (175/1) – Bazaviy to'lov shartnoma miqdorida tushgan mablag'lar";

"343620 (175/2) – Oshirilgan va tabaqalashtirilgan to'lov shartnoma miqdorida tushgan mablag'lar" analitik schyotlari tavsiya etilgan. Mazkur tavsiya etilgan analitik schyotlar yordamida oliy ta'lim muassasalarida bazaviy, oshirilgan va tabaqalashtirilgan qismi bo'yicha to'lov shartnoma majburiyatlarining bajarilishi yuzasidan axborotlarning aniq olishini va tegishli moliyaviy qarorlarni qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

4. Oliyoghlarda joriy etilgan kredit-modul tizimi bo'yicha talabalarining o'zlashtira olmagan fanlardan kredit qarzdorligi bo'yicha qayta o'zlashtirish uchun amalga oshiriladigan to'lovlari yuzasidan "343630 (175/3) - Kredit modul tizimi bo'yicha fanlardan qarzdorlik to'lovlari" deb nomlangan yangi analitik schyotni ochish va ular bilan bog'liq hisob-kitoblarni mazkur schyotda yuritish tavsiya etildi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi kredit-modul tizimi bo'yicha kredit qarzdorligi bo'yicha axborotlarni olish imkoniyatini yaratadi.

5. Talabalar turar joyidagi talabalardan olinadigan to'lov mablag'larini hisobga olish maqsadida "343650 (175/5) -Talabalar turar joyi uchun to'lovlari" yangi analitik schyotni ochish va uni yuritish uslubiyoti tavsiya etildi. Bu orqali qilingan to'lov mablag'lari bo'yicha axborotlarni olish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Yuqoridagi oliy ta'lim muassasalariga tavsiya etilgan faoliyat yo'nalishlari, byudjetdan tashqari mablag'larni hisobga olishga tavsiya analitik schyotlarni kiritilishi orqali oliy ta'lim muassasalaridan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha olingan daromad va xarajatlarni hisoblab, ta'lim muassasasining aniq bir olingan faoliyati bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlash imkoniyatini beradi.

4. A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev (2010) Byudjet nazorati va auditi. O'quv qo'llanma. infoCOM.uz MCHJ. T.: 2010, 192 b.

5. M.Ostonaqulov (2009) Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Ikkinchi nashr.-T.: Iqtisod-moliya, 2009. 428 b.

6. S.U.Mehmonov (2018) Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish. Iqt.fan.dok. (DSc) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.-T.:2018. –B36.

7. M.X.Saidov (2011) Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv: O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur bo'stoni", 2011. 432 b.

8. Sh.V.G'aniyev (2008) Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish (ta'lim tizimi misolida) Iqt.fan.nom.ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avto-ref.-T.:2008.

9. Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.

10. Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlangan.



## MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING O'RNI

Xomidov Mirodiljon Xasanboy o'g'li

Farg'ona politehnika instituti, tayanch doktorant  
murodil.xomidov@inbox.ru,  
+998911582365

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 16

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.253>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

innovatsiya, innovatsion faoliyat,  
innovatsiya ishlari, raqamli iqtisodiyot,  
raqamli iqtisod yo'nalishlari,  
raqobatbardoshlik reytinglari, IT sanoati.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni sanoatga joriy etishning ahamiyati va uni iqtisodiyotni rivojlanishidagi o'rni, bugungi kunda jamiyat farovonligi yo'li yoritilgan. Undan tashqari amaliy yondashuvlar innovatsion jarayonlarni yangi bosqichga olib chiqish darajasi ko'rib chiqilgan. Raqamli iqtisodiyotning xalqaro miqyosda innovatsion yondashuvlari amaliyotga qay tarzda namoyon bo'lishi hamda mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora tadbirlari o'rganilgan.


**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarni va natijada aholimiz xayot tarzi yaxshilanib borayotganligini e'tirof etish zarur. Iqtisodiy siyosat esa keng ko'lamli iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun zamin yaratilmoqda. Hususan, sanoat sohasi ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida chinakam rivojlanish bosqichiga olib kelindi. Ushbu tarmoq bugungi kunda yuqori texnologiyali sanoatga aylandi. Buning natijasida aholini sifatli istemol maxsulotlari bilan ta'minlash yildan-yilga ortib, aholimizning oziq-ovqat manbai ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida aholi soni o'sib bormoqda, bu esa o'z navbatida aholi iqtisodiy faoliyatiga hamda sanoat korxonalarini faoliyatining kuchaytirish tadbirlariga olib kelmoqda, va nafaqat sanoatni balki respublikaning jamiki iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga olib keladi. Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan

o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

Innovatsion faoliyat ulushining o'sishi shunga olib keldiki innovatsiyalar xuddi foydali qazilmalar, ishlab chiqarish quvvatlari va intellektual salohiyat kabi mamlakatning boyligi hisoblanadi boshladi. Mamlakatimiz va uning har bir fuqarosi manfaatli yo'lida, innovatsion va ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishning, mamlakatimizda ko'p tarmoqli innovatsion siyosatni shakllantirish va uni amalga oshirish uchun - qonunchilik asoslari yaratmasdan turib hech imkoni yo'q

Milliy va xalqaro tajribadan ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq. Shu sababdan eng songi texnologiyalarni hayotimizni barcha jabhalariga joriy etish rivojlantirishni asosiy garovi hisoblanadi. Bugungi kunda innovatsiyalarni joriy etish quyidagicha ko'rsatkichlarni qayt etmoqda. (1-rasm)



1-rasm O'zbekiston Respublikasida joriy qilingan innovatsiyalar soni<sup>42</sup>

<sup>42</sup> <https://www.stat.uz/uz/nashrlar/6436-o-zbekistonda-ilm-fan-va-innovatsion-faoliyat>

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, innovatsiyalarni joriy etish darajasi mamlakatimizda 2020-yilga qadar o'sishni qayt etganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan 2018-yilning o'zida 2482ta innovatsiyalar amaliyotga joriy qilingan bolsa bu raqam kegingi 2019-yilda 78% ga o'sgan va ushbu yildagi qilingan texnologik innovatsiyalar soni 4011 tani tashkil etgan. Shundan, mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar soni 3017 ta, jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar soni 994 tani tashkil etgan.

Bunga asosiy sabab sifatida mamlaktimizda ushbu sohaning huquqiy bazasi takomillashtirilgani va sohaga jalb qilinayotgan investitsiyalarga keng yo'l ochilganini aytishimiz mumkin. Yuqoridagi rasmga kora so'ngi 2 yilda innovatsion faollik bir muncha sekinlashgan. 2020-yilda 3.7% ga 2021-yilda esa 1.9% ga pasayish kuzatildi. Tahlillarga ko'ra buning asosiy sababi pandemiyaning yuzaga kelishi hamda xalqaro va milliy iqtisodiyotda capital oqimining sustlashuvi hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Sanoatda innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan innovatsion tizimlar, ularni mahalliy muhitdai amal qilish qonuniyatlari va innovatsiyalarga davlat siyosatining tarmoqlarda qo'llanilishi, klasterlar yoki mintaqalararo innovatsiyalashuv darajasi mavjudligi va ichki va tashqi omillar ta'siriga qaratilgan va bu jarayon klassik innovatsiya yondashuvlarida aks etgan.

Ammo, innovatsiyalarni joriy etilishi ko'pincha firmalar darajasida sodir bo'ladigan hodisa sanaladi. Biz ushbu tadqiqotimizda innovatsion rivojlanish masalasini makroiqtisodiy darajada tahlil qildik.

Makroiqtisodiy darajada innovatsiyaviy yondashuvlar asosiy rivojlanish bosqichi V.Zombart, V.Mitcherlix, Y.Shumpeter ishlariga to'g'ri kelgan. Innovatsiyalarni sanoatda shakllanishi va rivojlanishiga avstriyalik olim Y.Shumpeter katta hissa qo'shgan. Bundan tashqari ko'plab boshqa olimlar J.Fridman, o'z asarlarida "mintaqa sanoatining o'sish nuqtalari" nazariyasini yoritib chiqqan unga ko'ra mintaqada rivojlanayotgan sanoat nuqtalari capital va texnologiya oqimini o'ziga jalb etishda yetakchi va joriy qilishni yuqori darajaga erishadi deb takidlaydi. F.Perru, esa "mintaqaviy strategiya" M.Porter, "raqobatbardoshlik strategiyasi" M.Porter, "iqtisodiy rayonlashtirish" N.N.Kolosovskiy, "ishlab chiqarishni joylashtirish" V. Launxardt, "uzun to'liqlar" N.D.Kondratiev, "hududiy klaster" M.Enrayt, "kumulyativ o'sish" G.Myrdal, "yo'lga bog'liqlik" P.A.Devid, "sanoat rayonlari modellari" A. Marshall. Jumladan, N.D.Kondratievning uzun to'liqlar nazariyasiga asosan sanoat rivojlanishi darajasi texnologik zanjirlarning o'zgarishi va texnologik jarayonlarni qutblashuviga bevosita bog'liq hisoblanadi. Olimning fikrlariga ko'ra, texnologik zanjirlar o'zaro bog'langan ishlab chiqarish guruhlari.

Bir necha xorijiy adaboyotlarda soha innovatsion rivojlanishi va eksport o'rtasidagi ijobiy bog'likni ko'rsatishgan. Sanoatda innovatsiyalar va eksport o'rtasidagi munosabatlar nisbatan zaifligini ta'kidlagan.

Sanoat sektorining hududlar bo'yicha taqsimoti tadqiqot bo'limlari va inson kapitalining geografiasiga emas, balki sanoat yerlarining

geografiasiga shakllanishiga bog'liq jarayon hisoblanadi. Ko'pgina olimlarning nazaryasini umumiy jihati shundaki sanoat firmalari sanoat yerlari tarqoq va geografik ko'rsatkichlariga ko'ra aniq belgilab qo'yilganligi sababli kamroq zich hududlarda joylashgan. Bu esa sanoat subyektlarini sust mobilligiga ya'ni bozor va kapital oqimi munosabatlariga kirishishda sekinligi va geografik sharoitlar ularning innovatsion sig'imiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlaridan tashqari ushbu masalalardan qamrab olingan ba'zi tadqiqotlar ham mavjud. Masalan, Lapple va boshqalar, va Botha va boshqalar hududlarda bilimlarning tarqalishini sanoatda innovatsion jarayonlarni rag'batlantirishdagi ro'lini ta'kidlashgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bu tadqiqotdan ko'zlagan maqsadi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida milliy iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lgan sanoatda innovatsiyalarni joriy etishning amaliyoti va unda mavjud muammolar sabablarini tahlil qilish hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotni innovatsion potentsiali holatini baholash va yuqori texnologik jayaronlarni amalga oshirishgi kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir necha quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Innovatsiyalashuv jarayonlarini amalga oshirish va uni takomillashtirishning dunyodagi yetakchi mamlakatlari tajribasini o'rganish va mamlaktimiz potentsialiga mos tomonlarini o'zlashtirish ;

- neoindustrial rivojlanishning xalqaro tajribasining aniqlangan o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalliy iqtisodiyotni raqamli o'zgartirishning joriy tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash.

- sanoatni innovatsion rivojlantirishga va ishlab chiqarishni sifat va son jihatdan yaxshilashga hizmat qiluvchi omillarni o'rganish va o'zlashtirish

Tadqiqotda omilli, tarixiy, statistik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari, ekspert baholash usuli qo'llanildi, bu esa muallifga qo'yilgan vazifalarni hal etish imkonini berdi.

**Tadqiqot natijalari.** 2021- yilda qayt etilgan natijalarga ko'ra mamlakatimizda texnologik innovatsiyalarni joriy qilgan tashkilotlar soni 1098 tani tashkil etgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha innovatsiyalarni joriy etishda eng yuqori ulush ishlab chiqarish sanoatida kuzatilib, 669 ta tashkilot innovatsiyalarni o'zida amaliyotga tadbiiq etgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, innovatsiyalarni joriy etishda eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar:

Ishlab chiqarish sanoati – 44,2 %

Qurilish – 6,2 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 2,3 %

Axborot va aloqa – 4,2 %

Ta'lim – 1,2 %

Boshqa faoliyat turlari – 40,2%

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki hozirda eng so'ngi texnologiyalar iqtisodiyotning asosiy bog'ini bolgan ishlab chiqarishda joriy etilmoqda. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rishimiz mumkin. **(2-jadval)**

**(2-jadval). Ishlab chiqarish sanoatining texnologik tarkibi bo'yicha qo'shilgan qiymatning ulushi(% ,da)<sup>43</sup>**

	2018	2019	2020	2021
Quyi texnologiyali ishlab chiqarish	35,0	31,7	29,7	29,4
O'rta texnologiyali ishlab chiqarish(quyi darajada)	42,7	48,4	52,8	53,6
O'rta texnologiyali ishlab chiqarish(yuqori darajada)	20,7	18,0	15,4	14,2
Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish	1,6	1,9	2,1	2,8

Bunga asosiy sabab sifatida sof raqobat muhiti va ishlab chiqarish sohasini bevosita ilm-fan bilan bevosita bog'liq holda faoliyat yuritishi desak mubolag'a emas. Sanoatda yaratilayotgan mahsulotlarni texnologik ko'rsatkichlariga qaraydigan bolsak 2018-yilda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi 1,6% tashkil etgan bolsa keying 3 yilda bu raqam 2,8% gacha o'sgan. Bu raqamlarga mos ravishda quyi texnologik jarayonlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35% dan 29,9% gacha pasayib bormoqda.

Ushbu ma'lumotlar oraqli shuni xulosa qilish mumkinki ishlab chiqarish sanoatida quyi texnologiyali mahsulotlar katta ulushga ega bo'lib kelmoqda. O'tgan ikki yil mobaynida bu soha yetakchilikni ushlab turibdi. Bu sohada so'ng esa o'rta-quyi va o'rta yuqori texnologiyali mahsulotlar egallagan va eng kam ulush esa yuqori texnologiyali mahsulotlarga tegishli hisoblanadi. Bu sohani eng past ulushga ega ekanligiga sabab sifatida bu sohaga investitsiyalar kam ekanligi va yuqori malakali mutahassislar kam ekanligini sabab sifatida ko'rsatish mumkin.

<sup>43</sup> <https://www.stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/23750-qaysi-yo-nalishdagi-korxonava-tashkilotlar-ko-proq-innovatsiyalarni-joriy-etgan>



**Muxokama.** Mamlakatimizda ishlab chiqarishni jarayonlarida innovatsiyalar, ularni joriy etish mustahkam iqtisodiy va huquqiy poaydevorga ega, biroq boshqa tomondan, ular zamonaviy dunyo sanoat inqilobining rivojlanishining talablari, ko'rsatkichlari va vazifalari ma'lum darajada mos kelmaydi. Bugungi kunda O'zbekistonda sanoat sohasida innovatsiyalarni joriy etish uchun sarf etilayotgan mablag'lar yildan yilga oshib bormoqda, albatta bu yaxshi ko'rsatkich lekin yaratilgan texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan

harajatlarning deyarli 63% korxonaning tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi. Innovatsiyalarning ushbu usulda yaratilishi ko'rxonada ishlab chiqarish harajatlarini oshirib yuboradi va natijada esa mahsulot tannarxini ko'tarishiga olib keladi. Har bir harajatlari oshgan korxonada esa tovar va xizmatlardan qoladigan foyda darajasini o'zgartirishga olib keladi. Bu bo'yocha ma'lumotni 3-jadvalda ko'rish mumkin.

3-jadval

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar(mln. so'm, da)<sup>44</sup>**

	2018	2019	2020	2021
tashkilotning o'z mablag'lari	2959428	3342925	4764543	15777060
chet el investitsiyalari'	307078,5	1083650	605731,5	242753,4
tijorat banklari kreditlari	501542,4	1060055	970973,2	806754,6
boshqa mablag'lar	939162,6	1116844	488720,8	854221,2
Jami	4707212	6603475	6829969	17680789

O'tgan yillar davomida mamlakatning rivojlanish strategiyasiga asosan innovatsiyalarga juda katta etibor berildi va buning natijasi o'laroq bu sohaga mablag'lar oqimi keskin oshdi. Yuqoridagi jadvalda korxonalar o'z moliyaviy resurslarini investitsion jarayonlarga sarf etish ko'rsatkichini 4 yil davomida qariyb 5 barobarga ishingari. Hususan tijorat banklari kreditlari ham mos ravishda 60% ga ko'proq mablag' ajratganini ko'rishimiz mumkin. Lekin xorijiy investitsiyalar va boshqa manbalardan keluvchi moliyalashtirish oqimi 21% va 10.1% ga kamaygan.

Bu jarayon esa bozordagi istemolchilarga ortiqcha yuk olib kelgan holatdan istemol darajasini tushirishga sharoit yaratadi. Bu hodisaning umumiy foni esa mamlakatda istemol darajasini o'zgarishiga olib keladi. Umumiy manoda ishlab chiqarish ham bu o'zgarishga o'z reaksiyasini bermay qolmaydi. Shuning uchun ko'plab xorijiy korxonalar innovatsiyalashuvni qulay yoldan borishni afzal ko'radi. Jumladan qoshimcha moliyaviy kapitallar portfel investitsiyalar, aksiyalarni bozorga jalb etish yoki kreditlar hisobiga texnologik rivojlanadilar.

#### Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari zamonaviy tamoyillari asosida neoindustrial rivojlanishga o'tmoqda, uning asosiy mazmuni ishlab chiqarish tarmoqlarini kiberjismontiy raqamlashtirishdir. Shunday qilib, yangi texnologik tuzilmani shakllantirish, neoindustrializatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari va xavflari ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilishning kechikishi bilan chambarchas bog'liq.

Sanoat tarmog'ining innovatsion rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishining asosiy tayanch nuqtasi ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Jumladan, sanoat yalpi qo'shilgan qiymati yillik o'sish sur'atining 1 foizga ortishi respublika YaIM yillik o'sish sur'atining qo'shimcha 1,02 foizga o'sishini ta'minlash imkoniyatini beradi bu natijaga erishishda yuqori samarador texnologiyalar muhim ro'l o'ynaydi.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilmiy va innovatsion siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: mamlakat iqtisodiyoti rivojida fan va texnika ulushini oshirish; moddiy ishlab

chiqarish sohasining progressiv rivojlanishini ta'minlash; jahon bozorida milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish; mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash; ekologik muhitni yaxshilash; mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va rivojlantirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat korxonalarini yuridik va iqtisodiy erkinlashtirish va ular uchun xorijiy korxonalar bilan samarador hamkorlik koridorini ochish hozirdagi innovatsion strategiyamizning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ekologik xususiyatlari va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- sanoatdagi tuzilmaviy va tashkiliy masalalar uchun uchun dasturiy ta'minotini shakllantirish (veb-bazaga asoslangan ma'lumotlarni qayta ishlash)
- raqamli texnologiyalardan foydalanish uchun uskunalar (oziqlantirish, texnik xizmat ko'rsatish, mikroiklimni tartibga solish, sog'ish, hayvonlarning holati va hayotiyfaoliyatini nazorat qilish)
- sanoat chiqindilarini qayta ishlash va bu tarmoqqa xizmat qiluvchi tarmoqlar faoliyatini rag'batlantirish;
- ayrim tabiiy resurslardan foydalanishni oqilona me'yorlarini belgilash
- raqamli texnologiyalar bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib borish.
- barcha darajadagi tashkilotlarda davlat sherikchilik asosida qo'shma moliyalash shartlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muhim loyihalarni amalga oshirish.
- Innovatsiyalarni yaratuvchi va ishlab chiqaruvchi korxonalar sarmoya kiritgan tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari taqdim etish.
- tadbirkorlik subyektlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan ularga kerakli texnika texnologiyalarni import qilish uchun ko'maklashuvchi infratuzilma yaratish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Babkin A V, Burkaltseva D D, Kosten D G and Vorobiev Yu N 2017 Formation of the digital economy in Russia: essence, features, technical normalization, development problems. Scientific and Technical Sheets of SPbSPU. Economic sciences. 10 3 9-25
2. Brown, B., Sikes, J., & Willmott, P. (2013). Bullish on digital: McKinsey global survey results. McKinsey Quarterly, 12, 1-8.
3. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF 607-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni

4. Bruno, G., Esposito, E., Genovese, A., & Gwebu, K. L. (2011). A critical analysis of current indexes for digital divide measurement. The Information Society, 27(1), 16-28.
5. Kodirov, S. (2020). Some issues of digitalization in the industrial sector of the economy. ISJ Theoretical & Applied Science, 12(92), 377-384.
6. Kodirov, S. (2021). Issues of business cooperation in the national economy of Uzbekistan. Экономика и социум, (7), 79-88
7. Yudina O. N. Formation of the potential of an innovation-oriented small enterprise, taking into account the strategic direction of its development. Creative Economy. 2016; 10 (3): 16-19.

<sup>44</sup> <https://www.stat.uz/uz/nashrlar/6436-o-zbekistonda-ilm-fan-va-innovatsion-faoliyat>

8. Kurpayanidi K. I. Institutional conditions for the development of entrepreneurship in the context of the transformation of the national economy // Economic innovations. – 2022. – T. 24. – №. 3 (84). – С. 67-76.

9. Kurpayanidi K. I. Digital economy as a factor of activation of foreign economic activity // Scientific-technical journal – 2022. - T. 26. – №. 11-C. 129-133.

10. Mazilov E.A. Development of the industrial complex in the context of modernization of the regional economy. Vologda: ISERT RAS, 2015: 115-116.

11. Xomidov, M. (2023). Analysis of the current state of innovation implementation in improving the competitiveness of industry. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 3(2), 56-64..



## SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHI

Yuldasheva Nilufarxon A'zamjon qizi

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

[nilufar.9121@gmail.com](mailto:nilufar.9121@gmail.com)

Umarov Azizjon Azamjon o'g'li

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

[aumarov@kokanduni.uz](mailto:aumarov@kokanduni.uz)

Abdullayev Axrorjon Axadjon o'g'li

Qo'qon universiteti talabasi

[ahrjon1611@gmail.com](mailto:ahrjon1611@gmail.com)

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 1

Maqola raqami: 17

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.254>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

AI, raqamli iqtisodiyot, bozor tendentsiyalari, Alning sanoat ilovalari, biznes jarayonlari, raqamli marketing, rivojlanish, sanoat.

### ANNOTATSIYA

Maqola sun'iy intellekt (AI) texnologiyalarini rivojlantirishni o'rganish va uni Industry 4.0 doirasida amalga oshirilayotgan raqamli iqtisodiyot kontseptsiyasining fundamental asosi sifatida taqdim etishga bag'ishlangan. Maqolada olib borilgan tadqiqotning maqsadi AI usullari va vositalarini samarali qo'llash sohasini tahlil qilish, shuningdek, Alni biznes sohasiga joriy etish imkoniyatlarini baholashdir. Iqtisodiyotning turli sohaslarida AI texnologiyalarini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Aniqlanishicha, texnologiyalarni joriy etish va uning ishlash bosqichlarini belgilashning yuqori narxi sun'iy intellektdan foydalanishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Kurs davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, identifikatsiyalash, umumlashtirish uchun sarmoya kiritgan tashkilotlar Alni analitik, IoT va boshqa texnologiyalar bilan birlashtirish uchun ma'lumotlarni standartlashtirish va tahlil qilish uchun qo'llamoqdalar.

**Kirish** Zamonaviy voqeilikda ro'y berayotgan raqamli transformatsiyalar munosabati bilan yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi va qo'llanilishi ortib bormoqda. Biznes va jamiyat hayotining barcha sohalari dinamik o'zgaruvchan dunyoda samarali ishlay oladigan aqlli tizimlar tomonidan joriy etilgan. Raqamli iqtisodiyot butun davlat tizimi, iqtisodiyot, yangi biznes modellari va to'rtinchi sanoat inqilobining asosi hisoblanadi. AI texnologiyasi yarim asrdan ko'proq vaqt davomida tadqiq qilingan. ILM-fanning ushbu sohasini rivojlantirish jarayonida IT sohasining bunday istiqbolli yo'nalishiga qiziqish ilmiy yutuqlar va sun'iy intellektni qo'llashning amaliy sohaslarini rivojlantirishga qarab o'zgarib turardi. So'nggi 10 yil ichida ushbu texnologiyaning tarkibiy qismlarini takomillashtirishda ko'plab muhim yutuqlarga erishildi, va IT bozori AI uchun yangi mumkin bo'lgan foydalanishni aniqladi. Tadbirkorlik subyektlari ushbu vositadan raqobatbardoshlikni saqlab qolish va o'zlarining quyi tizimlarini rivojlantirish uchun foydalanishlari kerak, bu esa davlatlarni iqtisodiyotni rag'batlantirish, geosiyosiy mavqeni mustahkamlash va aholi turmush darajasini oshirish maqsadida texnologik poygaga qo'shilishga undaydi. Bu fikrga davlatlar rahbarlari, shuningdek, yirik korporatsiyalar rahbarlari ham qo'shiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi AI usullari va vositalarini samarali qo'llash sohasini tahlil qilish, shuningdek, Alni biznes sohasiga joriy etish imkoniyatlarini baholashdir. Bu orqali ularning geosiyosiy mavqeni mustahkamlash va aholi turmush darajasini oshirish nazarda tutilgan.

**Adabiyotlar tahlili.** Hozirgi vaqtda AI bu kompyuterni ko'rish, neyron tarmoqlar va mashinani o'rganish kabi ko'plab aniq tushunchalarni birlashtirgan umumiy atamadir. Bu hodisani tahlil qilish, modellashtirish va prognoz qilish uchun katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olgan texnologiyadan foydalanish holatlarini tavsiflash orqali aniqlangan "tor ma'noda AI" deb ataladi. Keng ma'noda AI (kuchli AI) - bu "super mashina" bo'lib, u ilgari qayta ishlash uchun taqdim etilgan modellar va qoidalar to'plamiga amal qilmasdan mustaqil ravishda ishlab chiqish va qaror qabul qilishga qodir. Ingliz tilidan olingan kuzatuv qog'ozi sifatida AI atamasi mutaxassislarni qoniqtirmaydi: ularning ko'pchiligi texnologiyaning mohiyatini buzadigan noto'g'ri tarjima haqida gapirishadi. Buning o'rniga, atamalarning butun to'plami taklif etiladi: kengroq - robotli intellekt, g'ayriinsoniy aql; yoki ko'proq vositaga yo'naltirilgan - neyron tarmoq, (chuqur) mashinani o'rganish. Har holda, urg'u inson va inson aqlining analogidan o'zgarib bormoqda. Mutaxassislar bu atamani har doim ham inson qiyofasida va o'xshashida emas, balki avtonom tarzda ishlaydigan vositalar orqali

tushuntiradilar. Aytishimiz mumkinki, aynan inson tafakkuridan farq qiladigan boshqa shakllar AI muvaffaqiyatiga olib keladi (Sokolova & Galdin, 2018).

Quyida Alning rivojlanishini Rossiya misolida ko'rib chiqamiz. Rossiya Federatsiyasida AI bozorining hajmini baholash tadqiqot metodologiyasiga qarab juda farq qiladi. Biz AI tarmoqlarining yetuklik darajasini baholash mezonlarini batafsil ko'rib chiqamiz. 2017 yil oxirida "AI va mashina o'rganish bozoridagi joriy tendentsiyalar" tadqiqoti natijalariga ko'ra, Rossiyada AI segmenti 700 million rubl bilan cheklangan. 2021 yilga kelib sun'iy intellekt bozori 28 milliard rublgacha o'sishi kutilmoqda. Tadqiqot mualliflarining prognozlariga ko'ra, uning o'sishi moliya sektori, chakana savdo va sanoat tomonidan rag'batlantiriladi. Oliy Iqtisodiyot maktabi tomonidan o'tkazilgan "Raqamli iqtisodiyot: Rossiya biznesining global tendentsiyalari va amaliyoti" tadqiqoti natijalariga ko'ra, raqamli texnologiyalar biznesga eng katta ta'sir ko'rsatish bo'yicha birinchi o'rinni egalladi: IoT va sanoatni avtomatlashtirish (60%), raqamli dizayn va modellashtirish (58%), virtualizatsiya texnologiyalari, masofaviy kirish, masofaviy ofis va boshqalar (57%), mobil texnologiyalar va kanallararo aloqa (55%). Amerikalik va Britaniyalik moliyaviy tahlilchilar tomonidan olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, AI texnologiyalaridan foydalangan holda robototexnikaning jadal rivojlanishi mahsuldorlikning navbatdagi sakrashiga olib kelishi haqida aniq xulosalar chiqarishimiz mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bu ko'rsatkich butun dunyoda 30% ga o'sadi va mehnat xarajatlarining 20-33% oralig'ida pasayishi bilan birga keladi. Tabiiyki, birinchi navbatda, "buzuvchi innovatsiyalar" eng rivojlangan mamlakatlarga ta'sir qiladi, bu bir vaqtning o'zida bir nechta asosiy tarmoqlarning texnologik qayta tiklanishiga olib keladi (Mustafina, 2019).


**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda miqdoriy va sifatli ekspert suhbatlari usullari qo'llanildi. Bundan tashqari, ikkilamchi ma'lumotlarning tahlili o'tkazildi. Tadqiqot ekspertlari - turli segmentlarda (sanoat ishlab chiqarishi, chakana savdo va boshqalar) tegishli loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etgan Rossiya va xalqaro rahbarlar va AI sohasidagi yetakchi mutaxassislar hisoblanadi.

So'nggi paytlarda neyron tarmoqlardan foydalanishga asoslangan sun'iy intellektni rivojlantirishda va ayniqsa qo'llanilishida ta'sirchan sakrash kuzatildi. Nutq, tasvir va yuzni aniqlash kabi muammolarni hal qilishda katta natijalarga erishildi. Ushbu texnologiyalar inson miyasining ishini qo'pol ravishda nuxxalashga asoslangan va har doim ham kutilgan natijalarni bermaydi. ILM-fan uchun vazifa AI qanday

ishlashini tushunishdir. Texnologiyalar ko'pincha ularning ishlarining barcha tafsilotlarini tushunishimizdan oldin ishlay boshlaydi. Bu tushunchasiz har xil hodisalar muqarrar ravishda yuzaga keladi. Al nazariyasidagi asosiy muammo klassik matematika nuqtai nazaridan neyron tarmoqlarni qurish vazifasi noto'g'ri bo'lishiga qaramay, neyron tarmoqlar nima uchun ishlashini tushunishdir. Chunki kuzatuvlar soni (o'qitish misollari) belgilangan parametrlar sonidan bir necha daraja kamroq, ammo shunga qaramay, amalda tarmoq ishlaydi. Tarmoq nima uchun ishlashi haqida hali nazariy tushunchaga ega emas. Garchi bu bizni ushbu texnologiyalarni joriy etishga to'sqinlik qilmasligi kerak. Olimlar oldiga qo'yilgan asosiy muammo – Al texnologiyasi qanday ishlashini imkon qadar tezroq o'rganishdir. Alni rivojlanishning yangi darajasiga ko'tarish va bashorat qilinadigan va ishonchli natijalarga erishish uchun yangi Al nazariyasini yaratish yoki mavjud bo'lgan nazariyani sezilarli darajada o'zgartirish kerak (Efimova, 2020).

Al salohiyatini tahlil qilib, tadqiqotchilar uni qo'llashning yangi yo'nalishlarini, birinchi navbatda, biznes jarayonlarini takomillashtirish bilan birgalikda izlay boshladilar. Ushbu sohada sun'iy intellektdan foydalanish biznes jarayonlarini moslashuvchan qilish, an'anaviy manbalardan voz kechish va ilg'or Al tizimlari va odamlarni integratsiya qilish g'oyasiga o'tish imkonini beradi. Ushbu yondashuv mashina va odamning o'zaro ta'sirini tubdan o'zgartirishga va robotlar va odamlarning integratsiyalashgan jamoalarini shakllantirishga imkon beradi. Bunday jamoalar ishlab chiqarish operatsiyalari davomida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlashga, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga va doimiy o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga qodir. Ushbu sun'iy intellekt qobiliyatlari kompaniyalarga o'z biznes-jarayonlarini qayta ishlab chiqish unumdorligini sezilarli darajada oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Shunday qilib, Alni sanoatda ishlab chiqish va joriy etishning asosiy yo'nalishlaridan biri biznes jarayonlarini reinjining qilishdir. Yana bir yo'nalish, mashinalar qo'lidan kelganicha (katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash bilan takrorlanuvchi, monoton vazifalarni bajarish) va odamlar eng yaxshi qiladigan ishni qiladilar (noaniq ma'lumotlar bilan ishlash, qiyin holatlarda xulosa chiqarish, noaniqlik darajasi yuqori bo'lgan sharoitlarda qaror qabul qilish, ijodkorlik va boshqalar). Ushbu yo'nalish odatda biznesni o'zgartirishning uchinchi to'liqini deb ataladi (Kryukova & Mixalenko, 2017).

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2016-2019-yillarda Al bo'yicha jahon bozorining daromadlari 350 foizga, ya'ni 3221,8 million dollardan 11283,76 million dollargacha oshgan (1-rasm). 2025 yilga kelib, daromadlar 89847,26 million dollargacha ko'tarilishi kutilmoqda.



1-rasm. 2016-yildan 2025-yilgacha Al global bozorida tushadigan daromadlar, million dollarda

Alning jahon yalpi ichki mahsulotiga ta'siri mehnat unumdorligini oshirish, shaxsiylashtirish, vaqt sarfini qisqartirish va mahsulotlar, ishlar va xizmatlar sifatini yaxshilash bilan bog'liq. Global mehnat unumdorligining o'sishi 2017-2030 yillar davomida Alning global yalpi ichki mahsulotga umumiy ta'sirining 55 foizini tashkil qilishi kutilmoqda. Quyida biz Aldan iqtisodiyotning turli sohalarida foydalanishni ko'rib chiqamiz:

**Marketing va reklama.** Marketing va reklama sohasida sun'iy intellektning joriy etilishi biznesning rentabelligini oshirishga, maqsadlilikni sezilarli darajada yaxshilashga va mijozlarga e'tiborni kuchaytirishga ta'sir qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ushbu afzalliklaridan istalgan sohada kompaniyalar foydalanishi mumkin: bank, metallurgiya, transport. Big Data texnologiyasining reklama bozoriga tobora kengayib borishi reklama beruvchilardan ham, agentliklardan ham auditoriya va mijozlarning xohish-istaklari haqida aniq bilim olish uchun foydalanuvchi ma'lumotlarini samarali tahlil qilish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashni talab qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt nafaqat foydalanuvchilar haqida to'liq ma'lumot

olish, balki ularning kelajakdagi xatti-harakatlarini bashorat qilish imkonini beradi. Reklamadagi Al maqsadni aniqlash uchun ishlatiladi. Bu nafaqat banklar uchun, balki barcha raqamli marketing uchun odatiy holdir.

**Chakana savdo.** Chakana savdoda sun'iy intellekt tobora kengroq qo'llanilib bormoqda: bu nafaqat mijozlar bilan muloqotni yaxshilash, balki narxlarni optimallashtirish, inventar bilan ishlash, aksiyalar va sotishning vaqti va formati haqida qaror qabul qilishdir. Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda har qanday yirik chakana kompaniya sun'iy intellektdan foydalanadi. Bu real vaqtda tahlil qilinishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar miqdori bilan bog'liq. Bundan tashqari, jarayonni avtomatlashtirish vositalaridan foydalanish orqali foyda darhol seziladi. Asosiy vositalar mavjud: avtomatik (aqli) kassa apparatlari va tavsiya xizmatlari. Do'konlar iste'molchi faoliyatini tahlil qilish asosida mahsulotlarga buyurtma berishni ta'minlaydi. Iste'molchilarga xarid savatchasiga ko'ra tovarlarga chegirmalar taqdim etiladi, aksiyalar va maxsus takliflar shakllantiriladi.

**Bank ishi.** Iqtisodiyotning ushbu sektori barcha ekspertlar tomonidan Al rivojlanishi uchun eng istiqbolli soha sifatida qayd etilgan. Buni banklarda tahlil qilinadigan katta hajmdagi ma'lumotlar mavjudligi bilan izohlash mumkin. Bank sohasida Aldan foydalanishni ikki turga bo'lish mumkin: tashkilot sifatida bankning ichki vazifalarini hal qilish va mijozlarga xizmat ko'rsatish. Samaradorlikni oshirish va ichki jarayonlarni soddalashtirish uchun qaror qabul qilishni avtomatlashtirish vositalari va qarorlar sonini ko'paytiruvchi vositalar qo'llaniladi (masalan, turli xil baholash variantlari). Robotlar ko'pincha ichki jarayonlarni avtomatlashtirish uchun ham qo'llaniladi. Ular asosiy muntazam protseduralarning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Mashina razvedkasi kredit berishda va qarz oluvchining to'lov qobiliyatini tahlil qilishda skoring, tezkor qaror qabul qilish, riskni baholash uchun qo'llaniladi. Skoring mijozlar bilan ishlash uchun ham qo'llaniladi - bu kreditga layoqatli fuqarolarni aniqlash va depozitlar va tariflar bo'yicha individual takliflarni shakllantirish imkonini beruvchi ko'plab vositalar. Yana bir vosita - mijozlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan yuzni aniqlash texnologiyasi. Ushbu texnologiyaning salohiyati xavfsizlikni ham yaxshilaydi.

**Telekommunikatsiyalar.** Telekommunikatsiya kompaniyalari, xuddi banklar kabi, o'z abonentlari haqida keng ma'lumotlar bazasiga ega. Shu sababli, telekommunikatsiyalarda sun'iy intellektni qo'llashning birinchi yo'nalishlaridan biri marketing, xususan, mijozlarni saqlab qolish va ularning sodiqligini oshirish uchun echimlar edi. Bugungi kunda telekommunikatsiya kompaniyalari mijozlar savollariga javob berish uchun chat-botlardan, tariflar tarmog'ini shakllantirish va abonentlarning muayyan xizmatlardan foydalanish ehtimolini hisoblash uchun bashoratli tahlillardan foydalanmoqda. Kompaniyalar fribgar qo'ng'iroqlarni hisoblash uchun mashinani o'rganish va xulq-atvor tahlilidan foydalanadilar. Al tarmoq resurslarining yuklanishini bashorat qilish va prognozlariga muvofiq taqsimlashni optimallashtirish imkonini beradi.

**Sanoat.** Og'ir sanoat sektori sun'iy intellektni amalga oshirishda, birinchi navbatda, tezkor prototiplash yoki resurslarni dinamik taqsimlash - uskunani o'zgartirish orqali katta imkoniyatlarga ega. Ishlab chiqarish kompaniyalari uchun sun'iy intellektning asosiy afzalligi - inson omili bilan bog'liq ishdagi xatolar sonining kamayishi, qo'lda ish jarayonlari va bashoratli tahlillar sonining kamayishi. Tsifra va Rossiya sanoatchilar va tadbirkorlar ittifoqi tomonidan olib borilgan birgalikdagi tadqiqot sanoatchilar tomonidan Al texnologiyalariga talabning o'sish tendentsiyasini aks ettiradi. Tadqiqotga ko'ra, sun'iy intellekt sanoatda sanoat asbob-uskunalarining ishlash muddatini oshirish va unga texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun 44% ni tashkil qiladi. Rossiya sanoatida Al texnologiyalari ishlab chiqarishda qo'llaniladi (metallurgiya, kimyo, neft kimyosi, neftni qayta ishlash va neft qazib olish) - 22%, elektroenergetika sohasida - 11%. Qolgan 23% sanoat sektori uchun yangi sohalarida sun'iy intellekt usullarini qo'llashni o'rganuvchi universitetlarning tadqiqot ishlaridir. Ushbu tadqiqot uchun suhbatlashgan mutaxassislar, shuningdek, sun'iy intellektni sanoatda joriy etish samaradorligi to'g'risidagi prognozlarida optimistikdir va Al rivojlanishini rag'batlantiradigan ish uchun katta ma'lumotlar bazalarining afzalliklarini qayd etishadi. Ma'lumotlar Al tizimlarini o'qitish, prognozlash va tavsiya tizimlarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladi, keyinchalik ular ishlab chiqarish va ma'muriy jarayonlarni optimallashtirish uchun ishlatiladi. Al ko'p sonli omillar bilan ishlashga, har birining ta'sirini tahlil qilishga va xulosa chiqarishga yordam beradi.

Rossiyada va xorijda o'tkazilgan turli tadqiqotlar natijalari AI texnologiyalarini joriy qiluvchi tashkilotlar duch keladigan bir qator umumiy muammolarni ko'rsatadi. Aksariyat ekspertlar bu nafaqat bir guruh mutaxassislar, balki butun jamiyat uchun muammoga aylanib borayotgan tubdan yangi hodisa degan fikrda. SAS va Deloitte tahliliy kompaniyalarining fikriga ko'ra, sun'iy intellektni rivojlantirishdagi asosiy qiyinchiliklar quyidagilardir (Shchurina & Danilov, 2019):

- talab qilinadigan kasblar va insoniy ko'nikmalar ro'yxatini o'zgartirish;

- me'yoriy-huquqiy xavflar;
- axloqiy masalalar;
- xalqaro tadqiqotlar;
- rahbariyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaslik;
- noaniq biznes ishi.

Oxirgi qiyinchilik ko'pincha rossiyalik ekspertlar tomonidan chuqur suhbatlar chog'ida tilga olingan. Texnologiyalarni joriy etish va uning ishlash bosqichlarini belgilashning yuqori narxi sun'iy intellektdan foydalanishga jiddiy to'siq bo'lmoqda. Iqtisodiy foyda har doim ham qisqa muddatda ko'rsatilmaydi, bu alohida loyihalarning yopilishiga sabab bo'lishi mumkin. 2019-yilda ommalashib borayotgan boshqa texnologiyalar bilan ishlashda sun'iy intellekt yanada istiqbolli rivojlanishga ega bo'ldi. Boshqa texnologiyalar bilan muvaffaqiyatli AI integratsiyasi ma'lumotlardan boshlanadi. Ma'lumotlarni aniqlash, umumlashtirish, standartlashtirish va yorliqlashga sarmoya kiritgan tashkilotlar Alni analitik, IoT va boshqa texnologiyalar bilan birlashtirish uchun yaxshi pozitsiyaga ega bo'ladi.

**Tadqiqot natijalari.** Bugungi kunda Rossiyada, butun dunyoda bo'lgani kabi, sun'iy intellektni bo'lgan qiziqish katta: dunyoning yetakchi davlatlari sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqmoqda, texnologiya ilmiy konferensiyalardan tortib, ijtimoiy tarmoqlargacha bo'lgan barcha darajalarda muhokama qilinmoqda. Shu bilan birga, hozirda AI nima ekanligi haqida umumiy qabul qilingan tushuncha va yagona ta'rif mavjud emas. Natijada, jamiyat va sanoatning texnologiyaga munosabati hali ham noaniq: texnologiyadan foydalanish xavfsizligi, uning ijtimoiy farovonlik va inson huquqlariga ta'siri (xususan, shaxsiy hayot huquqi) bilan bog'liq savollar qolmoqda. Rossiyadagi biznes va davlat idoralari AI texnologiyasini joriy etish qanday foyda keltirishini allaqachon tushunib yetgan. Ammo ko'pchilik biznes vakillari kerakli natijalarga erishish uchun texnologiya qanday aniq qo'llanilishi kerakligini hali to'liq tushunmaydi. Vaziyat asta-sekin hukumat darajasida ushbu mavzuni muhokama qilish boshlanishi bilan, shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanishning turli muvaffaqiyatli holatlari paydo bo'lishi bilan o'zgarib bormoqda.

Texnologiyani rivojlantirish bo'yicha yetakchi davlatlar - AQSh, Xitoy, Yaponiya. Ushbu tadqiqot ishtirokchilari Rossiyani sun'iy intellektni joriy etish salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga qo'ydi. Tadqiqot davomida aniqlangan Rossiyada AI texnologiyasini qo'llashning asosiy turlari, odatda, global tendentsiyalarga to'g'ri keladi. Rossiya kompaniyalarida quyidagilar mavjud:

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sokolova, I. S., & Galdin, A. A. (2018). Practical application of artificial intelligence in the digital economy. *Models, systems, networks in economics, technology, nature and society*, 2(26), 71-79.
2. Mustafina, A. F. (2019). Artificial Intelligence Technology in the Context of the Business Environment. *Business Strategies*, 7(63), 8-14.
3. Efimova, S. A. (2020). Development of artificial intelligence. *DigitalScience*, 6, 49-58

- agentlar (banklar, tibbiy va telekommunikatsiya muassasalarini avtomatlashtirilgan qo'llab-quvvatlash xizmatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish botlari);

- qaror qabul qilish jarayonini optimallashtiradigan algoritmlar barcha sohalarda qo'llaniladi: sanoatdan (texnologik qarorlar qabul qilish, ishlab chiqarish xavfsizligini oshirish bo'yicha tavsiyalar tizimi) chakana (logistika vazifalari, mijozlar xatti-harakatlarini o'rganish) va banklar (individual takliflarni shakllantirish, maqsadlilikni takomillashtirish);

- keng profilli kompaniyalarda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, "aqlli" qurilmalar (tasvirni aniqlash tizimlari).

**Muhokama.** Rossiya hukumati tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha turli siyosat va tashabbuslarni joriy qilinishi AI rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bunga javoban Rossiya davlat firmalari qatorida Ta'lim va fan vazirligi, Rossiya Fanlar akademiyasi hamda Mudofaa vazirligi tomonidan bir qator muhim takliflar taqdim etildi. Rossiyaning sun'iy intellekt sohasidagi hozirgi mavqeyini baholash va ushbu tashkilotlarga AI texnologiyalarini tadqiq etish bo'yicha birlashtirish zarurligi ta'kidlangan. Qo'shimcha ravishda, Rossiya hukumati tomonidan raqamli texnologiyalarni iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda joriy etish bo'yicha milliy rivojlanish maqsadlari belgilab qo'yildi. Ushbu maqsadlarga erishishning asosida AI rivojlantirish va tadqiq etish yotadi. 2019-yilda yirik davlat firmalariga 5G, kvant hisoblash va AI kabi rivojlanayotgan texnologiyalar uchun texnologik rivojlanish yo'l xaritalarini ishlab chiqish taklif qilindi va 2019-yilda Rossiya ham 2030-yilgacha sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqdi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Rossiya bozorida xususan O'zbekistonda ham sun'iy intellektni joriy etish va qo'llash bo'yicha yetakchilar sanoat korxonalari, banklar, telekommunikatsiya kompaniyalari va chakana savdo korxonalari hisoblanadi. Sanoat korxonalari ichki va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish vositalarini faol joriy etmoqda. Tavsiya qiluvchi xizmatlar ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarida joriy jarayonlarni kuzatish va kelajakdagi voqealarni bashorat qilish uchun ishlatiladi. Bank sanoati muntazam funktsiyalarni avtomatlashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish uchun turli skoring vositalaridan foydalanadi. Banklar o'z mijozlari haqida to'plangan bilimlardan foydalanadilar va shu asosda tavsiya xizmatlarini ishlab chiqadilar. Identifikatsiya va xavfsizlik maqsadlarida tasvirni aniqlash texnologiyalari (biometriya, yuzni tanib olish) qo'llaniladi. Telekommunikatsiya kompaniyalari mijozlarning savollariga javob berish uchun chat botlaridan foydalanadi, tariflar tarmog'ini shakllantirish va abonentlarning muayyan xizmatlardan foydalanish ehtimolini hisoblash uchun bashoratli tahlil. Kompaniyalar fribgar qo'ng'iroqlarni hisoblash uchun mashinani o'rganish va xulq-atvor tahlilidan foydalanadilar. AI tarmoq resurslarining yuklanishini bashorat qilish va prognozlariga muvofiq taqsimlashni optimallashtirish imkonini beradi.

4. Kryukova, A. A., & Mikhaleiko, Yu. A. (2017). Tools of the digital economy. *Karelian Scientific Journal*, 3(20), 108-111.

5. Shchurina, S. V., & Danilov, A. S. (2019). Artificial Intelligence as a Technological Innovation to Accelerate the Development of the Economy. *Economics. Taxes. Law*, 12(3), 125-133.



## O'ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI

Yusupov Abbosxon Aliyevich

Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi  
abboskhony90@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
<p><b>Qabul qilindi:</b> 24-mart 2023-yil <b>Tasdiqlandi:</b> 26-mart 2023-yil <b>Jurnal soni:</b> 1 <b>Maqola raqami:</b> 18 <b>DOI:</b> <a href="https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.255">https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.255</a></p>	<p>Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiy sharoitida inson resurslaridan foydalanishdagi faoliyat turlari xususida tahliliy fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan. Shuningdek, kichik biznes subektlari faoliyatida inson resurslaridan samarali foydalanish jarayonlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.</p>
<p><b>KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords</b></p>	
<p>iqtisodiy muhit, inson resurslari, kichik biznes, menejment, inson kapitali</p>	

**Kirish.** Bugungi kunda barcha tashkilotlar uchun xodimlarni boshqarish juda katta ahamiyatga ega. Hech bir tashkilot kerakli xodimlarsiz o'z maqsadlariga yerisha olmaydilar. Bu yesa o'z-o'zidan mehnat resurslarini boshqarish jarayonida boshqaruv nazariyasi va amaliyotining muhim qismi sanaladi.

Ayniqsa, yirik tashkilotlarda mehnat resurslarga umumiy rahbarlik ma'suliyati kadrlar bo'limining malakali xodimlariga yuklatilgan bo'lib, u odatda shtab xizmatlari tarkibiga kiradi. Bu mutaxassislar tashkilot maqsadlarini amalga oshirishga yordam berishi uchun, ular faqat o'z sohalarini yemas, balki quyi bo'g'in rahbarlarining yehtiyojlarini ham bilishlari zarur. Shu bilan birga bu rahbarlar mehnat resurslarini boshqarish xususiyatlarini, uning mexanizmi, imkoniyatlari va kamchiliklarini tushunmasa, kadrlar mutaxassislari xizmatlaridan unumli foydalana olmaydilar. Shuning uchun barcha rahbarlar insonlarni boshqarish usullari va metodlarini bilishi va tushunishi muhim.

Hozirgi vaqtda iqtisodiy biznes hamda marketingda inson resurslarini boshqarish tizimi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Resurslarni rejalashtirish: inson resurslariga kelgusi yehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish.
2. Personalni to'plash: barcha lavozimlar bo'yicha potensial nomzodlar rezervini tashkil yetish.
3. Tanlash: ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan yeng yaxshilarini tanlash.
4. Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash: xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar strukturasi ishlab chiqish.
5. Kasbga yo'naltirish va moslashuv: yo'llangan ishchilarni tashkilot va uning bo'linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish.
6. O'qitish: ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko'nikmalarini o'rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish.
7. Mehnat faoliyatini baholash: mehnat faoliyatini baholash metodikasini ishlab chiqish va uni xodimg yetkazish. O'stirish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish: xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o'tkazish metodlarini ishlab chiqish.

8. Rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko'rsatishlarini boshqarish: rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko'tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.<sup>45</sup>

**Adabiyotlar tahlili.** Ushbu mavzuni o'rganish va tahlil qilish yuzasidan xorijlik va yurtimizning taniqli olimlari tomonidan inson resurslaridan foydalanish, jumladan kichik biznes sub'ektlari faoliyati, shuningdek, xalqaro tajribalardan foydalanish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar mavjud. Aynan kichik biznesni rivojlantirish va unda inson resurslaridan foydalanish jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular jumlasiga E.Bracci, C.Guthrie, C.Humphrey, L.Jones, J.Moll, O.Olson, hamda I.Steccolini kabilarni kiritish mumkin. Jumladan MDH mamlakatlarida kichik biznesni rivojlantirishda inson resurslari hamda inson kapitalining ayrim masalalari L.N.Alexina, O.E.Kachkova, E.V.Melnikova, M.A.Ryabova, S.A.Tabalina, E.A.Fedechenko, T.Chetvergova, A.A.Ushakov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida o'z aksini topgan.

Tadqiq etilayotgan mavzuni umumiy jihatdan kichik biznesga oid mavjud muammolarni hal etishga doir ilmiy qarashlar R.D.Do'smuratov, A.K.Ibragimov, A.A.Karimov, M.Q.Pardayev kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida, shuningdek, iqtisodiyotda kichik biznes ulushi va uning alohida ob'yektlarini nazariy, uslubiy jihatdan takomillashtirish, inson resurslaridan foydalanishning xorijiy tajribalarga xos bo'lgan ayrim jihatlari A.K.Ibragimov, K.Sh.Ibragimov, I.T.Mamadjanov, S.U.Mehmonov, E.T.Odilov, M.Ostanaqulov va Sh.V.G'aniev kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Xususan A.B. Xayitovning "Inson resurslarini boshqarish darsligida, inson resurslarini boshqarishning asoslari, inson resurslarini boshqarish konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi, tashkilotning inson resurslariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, xodimlarni rag'batlantirish va motivatsiyalash usullari, ish joyida xodimlarni kasbiy moslashtirishning shakllanish tizimlari, tashkilotda inson resurslaridan foydalanishni tashkiliy boshqarish, tashkilotda inson resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, inson resurslaridan samarali foydalanishni hisoblash va boshqarish, inson resurslarini sifat jihatidan boshqarish, xodimlarni ishga yollash, foydalanish eva ishdan bo'shatishni shartnomaviy tartibga solish, xodimlarni tanlash, joyjoyiga qo'yish va

<sup>45</sup> Инсон ресурслари менежменти /проф. Б.Ю. Ходиев тахрири остида (ўқув қўлланма), ДИУ, 2010 й. 1-76 бет

lavozimlarga birlashtirish, inson resurslarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyalarining asosiy tamoyillari hamda mehnat sohasida ijtimoiy sherikchilik mexanizmlarining nazariy-amaliy tomonlarini o'rganish va tadqiq etish masalalari yoritilgan.<sup>46</sup>

Bunda aynan kichik biznes subektlari faoliyatida personalni boshqarishdan inson resurslarini boshqarish sari ro'y beradigan siljish kelgusidagi iqtisodiy biznesda tarkibiy qayta qurishlar asosida yotgan sabablar, boshqaruvning barcha bosqichlarida inson rolining ortishi o'z ta'sirini o'tkazadi, deb tasavvur qilish mumkin. Inson resurslarini boshqarish yevolyutsiyasi va uni rivojlantirishdagi kelgusi yo'nalishlarga baho berish uchun yirik korporatsiyalarni boshqaradigan yapon va amerika mutaxassislarining fikrlari bilan tanishib chiqish foydalidir.

Yapon menejerlari boshqarish sohasidagi bo'lajak siyosatni quyidagi yo'nalishlarning rivojlanishida deb biladilar:

1-jadval

Inson resurslari (IR) potensialining rivojlanishi	86,6%
IR potensialidan puxta foydalanish	78,9 %
Guruh tarzidagi faoliyatning rivojlanishi	47,1 %
Katta yoshdagi ish bilan bandlarning rivojlanishi	42,4 %
Malaka darajasidagi xilma-xillikni kengaytirish	35,3 %
Mehnat munosabatlarining barqarorlashuvi	33,9 %
Mehnatning boyitilishi va rotatsiya	29,6 %
Motivatsiya fondlarining to'ldirilishi	9,4 %

1-jadval. Yapon menejerlari boshqaruv siyosatning yo'nalishlari

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolani yoritishda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan qonunchiligimiz, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, taniqli olimlarning ilmiy asarlari o'rganilib, kichik va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda tahlilning mantiqiy va taqqoslash usullari, analiz va sintez, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, tanlanma kuzatish hamda tajriba kabi usullardan foydalanilgan. Mavzuni yoritishda darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot, ilmiy-amaliy hamda xalqaro anjuman to'plamlari, shuningdek, internet ma'lumotlaridan foydalanildi. Rossiyalik iqtisodchilardan E.Bikova, B.Jixarevich, N.Simionova, N. Yu. Nikitina, S. M. Korunov, A. A. Yashin, I. D. Oparin kabilarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati muhitini rivojlantirishga doir ko'plab o'quv qo'llanmalari va ilmiy maqolalari chop etilgan. Mamlakatimiz olimlari tomonidan chop etilgan iqtisodiy ilmiy manbalarda "ishbilarmonlik muhiti" tushunchasiga ta'riflar keltirilmagan, lekin unga yaqin fikrlar bor. Masalan, B.Yu. Xodiev, M.S.Qosimova, A.N. Samadov kabi iqtisodchilar "tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma'lum bir ishchi muhiti bo'lishi kerak" deb qayd etadilar. Ularning mulohazalariga ko'ra "...tadbirkorlik muhiti asosan quyidagi to'rtta omil: huquqiy, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi". Taniqli iqtisodchi S.S.G'ulomovning "Tadbirkorlik va kichik biznes" nomli o'quv qo'llanmasida tadbirkorlik muhitiga ichki va tashqi


omillarning ta'siri va ularning o'zgaruvchanligi to'g'risida qisqa fikr berilgan.<sup>47</sup>

Xususan, U.V.Gafurovning kichik biznes va tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish masalalariga va ishbiarmonlik muhitini kengaytirishga doir ilmiy dissertatsiyasi bu borada qilingan so'nggi ishlardan biridir. Biroq, ushbu masalani o'z ichiga qamragan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda.<sup>48</sup> Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va bevosita kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tadqiqotlar olib borgan boshqa bir taniqli olimlar esa, o'z ilmiy ishlarida iqtisodiyotning mintaqaviy, tarmoq, infratuzilma ob'ektlarini modellashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishgan.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Aynan hozirgi paytda O'zbekistonda kichik biznes subektlari faoliyatida inson resurslaridan foydalanish o'laroq xalqaro integratsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Bunday jarayon esa xalqaro miqyosda foydalanadigan ko'rsatkichlarni taqqoslashni taqozo yetmoqda. Bu yesa, o'z navbatida, ularni bir xil o'lchamga keltirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Bunday holatlarni hisobga olib, bizda ham aynan kichik biznes subektlari faoliyatida "iqtisodiy jihatdan faol aholi" tushunchasini qo'llash kerakligini maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Chunki ushbu ko'rsatkich dunyo miqyosidagi statistik ko'rsatkichlarga ham to'g'ri keladi. Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida olib borilayotgan izchil islohotlar bandlik va mehnat bozorining rivojlanishiga ham turtki bo'lmoqda. Tahlillarga ko'ra 2021 yilda respublika bo'yicha mehnat resurslari soni 18 673 ming kishini tashkil yetib, 2017 yilga nisbatan 6 204 ming kishiga yoki 49,8 % o'sgan. Mehnat resurslari tarkibida iqtisodiy faol aholi soni 14 357 ming kishini tashkil yetgan (jami mehnat resurslarining 76,9 %) va bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 5 339 ming kishiga yoki 59,2 % o'sganligini ko'rsatadi.<sup>49</sup> Shu jumladan, respublikada ish bilan band aholi soni 2022 yilda 2017 yilga nisbatan 50,5 %ga yoki 4 537 ming kishiga oshgan va 13 520 ming kishini tashkil yetmoqda. Ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan yillar mobaynida iqtisodiy faol va ish bilan band aholi soni keskin o'sgan.O'zbekistonda bandlik va mehnat bozori asosiy ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasi 2-rasm. O'zbekistonda bandlik va mehnat bozori asosiy ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi.<sup>50</sup> Mehnat resurslarining mamlakatimiz hududlari bo'yicha taqsimotiga ko'ra, respublika bo'yicha jami mehnat resurslarining yeng yuqori ulushi Samarqand (11,1 %) va Farg'ona (10,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarda Qashqadaryo (9,6 %), Andijon (9,2 %) viloyatlari va boshqa viloyatlar yegallagan. Mehnat resurslarining yeng past ulushi Sirdaryo (2,5 %) va Navoiy (2,9 %) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda (1-rasm).<sup>51</sup>

1-rasm



1-rasm. Mehnat resurslarning yeng yuqori ulushi

Tahlillarga ko'ra 2022 yilda respublikamizdagi ish bilan band aholining asosiy qismi hali ham qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritmoqda. So'nggi yillarda sanoat tarmoqlari

<sup>46</sup> A. B. Xayitov. "Inson resurslarini boshqarish": Darslik. - T.:2019

<sup>47</sup> A. B. Xayitov. "Inson resurslarini boshqarish": Darslik. - T.:2019

<sup>48</sup> Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2010.

<sup>49</sup> G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. -T.: TDAU, 2018.

<sup>50</sup> <https://stat.uz> - сайт маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

<sup>51</sup> Қосимова Д.С., Назарова Г.Г., Салихова Н.М., Исмаилова Н.С. Инсон ресурсларини бошқариш: Дарслик - Т.: ТДИУ, 2011, 21-б.

korxonalarining modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihozlash strategiyasining jadal olib borilishi sanoat tarmoqlarida ish bilan band aholi sonining sezilarli oshishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, 2022 yilda respublikamizdagi jami ish bilan band aholining 11,0 % kichik biznes subektlaridagi savdo tarmog'iga to'g'ri kelmoqda. Keyingi o'rinlarni savdo (11,0 %), qurilish (9,5 %), ta'lim (8,2 %) va boshqa sohalar yegallagan. Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamizda bandlik va mehnat bozorini rivojlantirishda ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Biroq shu bilan bir qatorda o'z yechimini kutayotgan asosiy kamchilik va muammolar mavjud. Jumladan:

- mehnat bozoridagi beqaror muvozanat holati;
- respublikamizning ayrim mintaqalarida ishsizlik darajasining oshib ketishi va hududlararo keskin tavofutlar;
- noqonuniy mehnat migratsiyasi va norasmiy bandlik darajasining o'sishi;
- oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari ishga joylashtirishga yuzaki yondashuvlar;
- aholi bandligini ta'minlash masalalarida joylarda mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va keng jamoatchilik o'rtasida mehnat integratsiyasi yaratilmaganligi va hokazo.

Aynan hozirgi vaqtda kichik biznes subektlari faoliyatida inson resurslarini boshqarish vaqtida mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni tubdan yangilash sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanishni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- barqaror o'sib kelayotgan mehnat resurslaridan yanada samarali foydalanish uchun mehnat bozorini modernizatsiya qilish;
- mamlakat mehnat bozorini bozor prinsiplariga asoslangan holda takomillashtirish, bunda samarali bandlik hamda yuqori malakali, yuqori ish haqi bilan ta'minlangan yangi ish o'rinlarini tashkil qilish siyosatiga o'tishga alohida e'tibor berish;
- mahalliy ijro hokimiyati organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va keng jamoatchilik o'rtasida mehnat integratsiyasini yaratish;
- korxonalar va tashkilotlarda kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish, ularni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni bozor prinsiplari asosida takomillashtirish va hokazo.<sup>52</sup>

**Xulosa.** Bugun iqtisodiy maydonda kichik biznesning barcha tarmoqlariga tegishli ravishda inson resurslaridan foydalanishda chalqaro tajriba sifatida motiv va motivatsiya usullarini qo'llash orqali ishlab chiqarish va sohalar rivojida sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Zamonaviy davrda motivatsiya tushunchasi faqat yirik korxonalar uchun yemas, balki kichik biznes subektlari uchun juda muhim, chunki xodimlarni rag'batlantirish tashkilotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi ularning tashkilot

oldidagi vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beradi. Motivatsiya-bu ixtiyoriy, maqsadga yo'naltirilgan faoliyatda turtki, yo'nalish va tirishqoqlikni keltirib chiqaradigan psixologik jarayon hisoblanadi. O'zbekistonda mehnat bozorida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holatlar hamda ularning o'zgarishi ish bilan bandlikka ko'maklashish sohasidagi tashkiliy tuzilmalar faoliyatiga sezilarli ta'sir etmokeda deb ayta olamiz. Bu esa o'z o'rnida kichik biznes subektlari faoliyatida inson resurslaridan samarali foydalanish va mehnat bozori tendensiyalarida sezilarli darajada o'sishi uchun qulay shart-sharoit yaratib bermoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, hamda davlatimiz rahbari tomonidan 2022 yilning 28 yanvarida qabul qilingan PF-60-sonli Farmonga asosan tadbirkorlarga qulay sharoit yaratib berish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagi chora-tadbirlarni keltirishimiz mumkin:

- sharoiti "og'ir" tumanlarda yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik sub'ektlariga aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz stavkada hamda yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlari hisoblangan summadan 1 foiz stavkada to'lash tizimini joriy etish;
  - tadbirkorlikka oid barcha majburiy talablarni yagona elektron reyestrda kiritish hamda takrorlanuvchi va o'z ahamiyatini yo'qotgan majburiy talablar qayta ko'rib chiqish;
  - litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjatlarni olish tartib-taomillarini soddalashtirish;
  - iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy sektor uchun keng yo'l ochish;
  - har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqish;
  - mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan mahallalarni rivojlantirish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish;
  - har bir tumanda «Innovatsiya va texnologiya markazlari» tashkil qilib, tadbirkorlarga amaliy yordam ko'rsatish;
  - har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan «Ochiq muloqoti»ni o'tkazish;
  - hududlarda 200 ta yangi sanoat zonalarini tashkil etish va biznes-inkubatorlar tizimini rivojlantirish.
- Xulosa qilib aytganda, mehnat salohiyatining tez sur'atlar bilan o'sishi ish bilan bandlikni ta'minlash, kichik biznes subektlari faoliyatida inson resurslaridan foydalanish muammolarini kundalang qilib kuymokda. Davlat ish bilan bandlik xizmati organlarida bo'sh ish joylari mavjud. Ayrim davrlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning qoniqtirilmaganlik darajasi rasmiy ishsizlar sonidan 1,3-1,5 marta ortadi. Bunga asosan, ishchi kuchiga talab va taklifning sifat ko'rsatkichlari bilan mos tushmaganligi sabab bo'lmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. Inson resurslari menejmenti /prof. B.Yu. Xodiyev tahriri ostida (o'quv qo'llanma), TDIU, 2019 y. 1-76 bet
2. Qosimova D.S., Nazarova G.G., Salixova N.M., Ismailova N.S. Inson resurslarini boshqarish: Darslik - T.: TDIU, 2011, 89-b.
3. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik - T.: 2011. – 234 b. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2015 y., 233 b.
4. Qosimova D.S., Nazarova G.G., Salixova N.M., Ismailova N.S. Inson resurslarini boshqarish: Darslik - T.: TDIU, 2011, 21-b.
5. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. -T.: TDAU, 2018.
6. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 2010.
7. A.B. Xayitov. "Inson resurslarini boshqarish": Darslik. – T.:2019
8. Manba: <https://stat.uz> – sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.
9. <https://stat.uz> – sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

<sup>52</sup> Инсон ресурслари менежменти /проф. Б.Ю. Ходиев таҳрири остида (ўқув қўлланма), ТДИУ, 2010 й. 194-бет





## OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA EKONOMETRIK PROGNOZ KO'RSATKICHLARIDAN FOYDALANISH

**M.M. Turg'unov**

Farg'ona politexnika instituti

tayanch doktoranti

150100, Farg'ona shahar, Farg'ona ko'chasi 86 uy

E-mail: Turgunovmurriddin77@gmail.com

Tel: +99891-770-81-88

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 19

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.256>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

oziq-ovqat sanoati, boshqaruv, boshqarish mexanizmi, boshqaruv ob'ekti, ta'sir etuvchi omillar

### ANNOTATSIYA

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruv mexanizmini rivojlantirish, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, ushbu sanoat tarmoqlag'ini modernizatsiya qilish va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash respublikada amalga oshirilayotgan asosiy vazifalardan biridir. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarishda ekonometrik modellardan foydalanish va prognoz ko'rsatkichlari asosida boshqarish samaradorligi ochib berilgan.

**Kirish.** Mamlakatimiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarni va natijada aholimiz xayot tarzi yaxshilanib borayotganligini e'tirof etish zarur. Iqtisodiy siyosat esa keng ko'lami iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun zamin yaratilmoqda. Hususan, oziq-ovqat sanoati ham mamlakatimizda mustaqillik yillarida chinakam rivojlanish bosqichiga olib kelindi. Ushbu tarmoq bugungi kunda yuqori texnologiyali sanoatga aylandi. Buning natijasida aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yildan-yilga ortib, aholimizning oziq-ovqat manbai ta'minlanmoqda.

Turli xil oziq-ovqat sanoati korxonalarini aholining zarur oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan. Oziq-ovqat sanoati bugungi kunda alohida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lib, uning holati dunyoning turli mamlakatlaridagi turmush darajasini aks ettiradi. Dunyodagi hozirgi vaziyat, bir tomondan, rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz millionlab o'z odamlarning mavjudligi bilan, ikkinchi tomondan, rivojlangan mamlakatlarda ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish bilan tavsiflanadi. Ushbu holat oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini boshqarish va rivojlanishida turli muammolarga duch kelmoqda. Shu sababli, oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarish usullari va mexanizmlarini o'rganish zamonaviy iqtisodiyot uchun juda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Hududiy tarkibiy omillardan tashqari, sanoatning rivojlanishiga fan-texnika taraqqiyoti ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu sanoat korxonalarini ishlab chiqarish va boshqarishning butun zanjirida namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish nafaqat oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini saqlab qoladi, balki korxonada boshqaruv va ishlab chiqarish sifatini oshiradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti sanoat korxonalarini innovatsion rivojlanish yo'lga o'tkazishga, boshqaruv va texnologik yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati faoliyatini rivojlantirish va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Amalga oshirilayotgan tadqiqot doirasida oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarish bo'yicha mahalliy olimlarimizdan N.M. Ziyaviddinovaning tadqiqotlarida oziq-ovqat sanoati korxonalarida bozor strategiyasini shakllantirishda, ularni rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqish va tarmoq boshqaruvining tashkiliy tuzilishi takomillashtirilgan<sup>53</sup>.

I.Yu.Umarovning tadqiqotlarida esa oziq-ovqat sanoati korxonalarida iqtisodiy salohiyatini baholash bo'yicha uslubiy

yondashuvlar ishlab chiqilgan hamda tadqiq qilingan. Hududlarda oziq-ovqat sanoati korxonalarining moliyaviy iqtisodiy salohiyati amaliy jihatdan baholangan<sup>54</sup>.

Xorijiy tadqiqotchi olimlardan Bitner X., Drucker P.F., McKean D., Mann D., Sfair R., Stevenson V.J., Tompson AA, Webster F. va boshqalar. sanoat sohasini, jumladan oziq-ovqat sanoati faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga hamda soha faoliyatini vertikal va gorizontal klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan<sup>55</sup>.

Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati korxonalarining raqobatbardoshligi va risklarni boshqarish jarayoniga omillar ta'sirini baholash, oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatiga mavsumiylik omili ta'sirini baholash va oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari soha faoliyatining rivojlanish davrini qisqartiradi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ortadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini ko'rsatkichlarini baholash asosida monografik tadqiqotlar asosida nazariy va amaliy jihatdan keng o'rganib chiqildi. Rasmiy statistik ma'lumotlari asosida EvIEWS 10 dasturidan foydalanilgan holda, asosiy ko'rsatkich hisoblangan boshqaruv xodimlari soni, boshqaruv xarajatlari, kapital qo'yilmalar hajmi va unga ta'sir etuvchi vaqtli qatorlari negizida ekonometrik model aniqlandi, asosiy parametrlarning o'zgarish tendensiyalari baholandi hamda qisqa muddatli davr uchun prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiya, korrelyatsion-regressiya tahlil, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Oziq-ovqat sanoat tarmog'ining 2021 yil yakuni bo'yicha statistik ma'lumotlari alohida olib tahlil qilinganda amalga oshirilayotgan islohotlar qay darajada o'zining natijasini berayotgani va yana oldinda turgan vazifalar aniqlashadi. O'tgan yilda mamlakatimiz tashqi savdo aylanmasi 42 071,6 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, uning tarkibida import 25 461,0 mln. AQSh dollari tashkil etdi. Tadqiqotimiz doirasidagi tahlil esa 2021 yilning jami imrortining 11.5 foizi oziq-ovqat mahsulotlari xissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu ko'rsatkich 2020 yilga nisbatan 1.2 foizga oshgani masalaning dolzarblilik darajasini belgilab beradi<sup>56</sup>.

Ushbu statistik ma'lumotlarning barchasi oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish masalalarini dolzarblashtiradi, ularning resurs bazasidan samarali foydalanish usullarini o'rganishga, sohaviy o'zgarishlarning istiqbolli yo'nalishlari va

<sup>53</sup>Ziyaviddinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.

<sup>54</sup>Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMI 149 b. A. – 2009

<sup>55</sup>Полухин А.А. Организационно-экономический механизм модернизации сельского хозяйства России/ А.А. Полухин// Аграрная Россия. – 2012 - №5 с. 23-29

<sup>56</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

institutsional xususiyatlarini aniqlashga ilmiy va amaliy qiziqish uyg'otadi. Ushbu yo'nalish mahalliy fan va amaliyotda yetarlicha o'rganilmagan, bu tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarida sof foyda hajmini ishlab chiqarish funksiyasining yuqori cho'qqisi, ya'ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari sifatida soha ekspertlari xulosalariga asoslangan holda quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi:

- X1 – ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;
- X2 – doimiy xarajatlari;

X3 – aylanma fondlar qiymati hajmi;

Mamlakatimiz oziq-ovqat sanoatida faoliyat olib borayotgan korxonalarda sof foydani modellashtirish aniq ishlab chiqarish sohasida yuz berayotgan tendensiyalar, trendlar va vaqtlil qatorlar kabi modellar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot jarayonida Farg'ona viloyatida faoliyat olib borayotgan uchta oziq-ovqat sanoati korxonalarida sof foyda va uning ortishiga ta'sir etuvchi ayrim ko'rsatkichlarni 2012-2021 yillar davomidagi o'zgarish tendensiyalari tahlili amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

"Farg'ona baraka" MChJda sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari (mln.so'm)				
Yillar	Sof foyda, mln. so'm (Y)	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mln. so'm (X <sub>1</sub> )	Doimiy xarajatlar, mln. so'm (X <sub>2</sub> )	Aylanma fondlar qiymati, mln. so'm (X <sub>3</sub> )
2012	285,2	1124,0	164,4	250
2013	350,4	1397,5	208,6	350
2014	402,5	1568,0	224,7	410
2015	521,6	1951,0	258,8	480
2016	603,7	2313,5	321,7	300
2017	680,6	2553,5	340,8	460
2018	718,4	2717,2	368,5	500
2019	896,2	3304,7	425,7	550
2020	754,3	2688,7	321,2	650
2021	920,5	3458,2	462,8	700

Ekonometrik modeldagi natijaviy omil sifatida tanlangan sof foyda hajmi (Y)ga ta'sir etuvchi ekzogen omillar sifatida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (x<sub>1</sub>), doimiy xarajatlar hajmi (x<sub>2</sub>) va aylanma fondlar qiymati hajmi (x<sub>3</sub>) kabi ko'rsatkichlar tanlab olindi.

Ushbu korxonada bo'yicha ajratib olingan natijaviy va unga ta'sir etuvchi omillarning barchasi 2012-2021 yillar davomida bozor konyukturasida hamda 2020 yilda boshlangan pandemiya ta'sirida ma'lum tebranish sur'atiga ega bo'lgan. Endogen omil va unga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining mohiyati ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ta'sir etuvchi omillar sifatida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, doimiy xarajatlar hajmi va aylanma fondlar qiymati hajmiga muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari asosida Kobb-Duglasning ishlab chiqarish modeli ko'rinishidagi modelga yaqin bo'lgan bog'lanishga ega bo'ladi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida "Farg'ona baraka" MChJda sof foyda

hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtlil qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni EViews10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan omil parametrlarining korrelyatsion-regression tahlili hamda u asosida har bir korxonada sof foydasining ortishi ko'p omilli modellarini alohida korxonalar bo'yicha amalga oshiriladi.

"Farg'ona baraka" MChJ faoliyatida sof foyda hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsion bog'lanish darajasini korrelyatsion tahlil asosida o'rganib chiqildi. Korrelyatsion tahlil natijaviy omil bilan ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligi zaruriy shartni qanoatlantirmoqda, ya'ni  $ryx_1=0,9815$ ,  $ryx_2=0,9777$  va  $ryx_3=0,8291$ ga teng. Har uchala bog'lanishda ham juft korrelyatsiya koeffitsienti zich bog'lanishni ko'rsatmoqda, bu esa natijaviy omilga nisbatan ta'sir etuvchi omillar to'g'ri tanlanganligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

"Farg'ona baraka" MChJda tanlangan omillarning korrelyatsion bog'lanishi<sup>57</sup>

	y	x <sub>1</sub>	x <sub>2</sub>	x <sub>3</sub>
y	1			
x <sub>1</sub>	0,981516	1		
x <sub>2</sub>	0,977721	0,938672	1	
x <sub>3</sub>	0,829093	0,843622	0,759304	1

Yuqoridagi jadvalda ajratib olingan natijaviy va ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining o'lchov birligi bir xil emasligi, ya'ni omil ko'rsatkichlarining bir jinsli emasligi sababli asosiy trend modelini chiziqli logarifmik bog'lanish ko'rinishida aniqlab olamiz. Buning uchun omil ko'rsatkichlarining barchasini natural logarifmik ko'rsatkichlarga keltirib olinadi (3-jadval).

3-jadval

"Farg'ona baraka" MChJ faoliyatida sof foyda hajmi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarining logarifmik qiymati<sup>58</sup>

t	LnY	LnX <sub>1</sub>	LnX <sub>2</sub>	LnX <sub>3</sub>
2012	5,65	1,95	5,10	5,52
2013	5,86	2,08	5,34	5,86
2014	6,00	2,20	5,41	6,02
2015	6,26	2,64	5,56	6,17
2016	6,40	2,77	5,77	5,70
2017	6,52	3,00	5,83	6,13
2018	6,58	3,09	5,91	6,21
2019	6,80	3,18	6,05	6,31

<sup>57</sup> Muallif tomonidan Microsoft Excel dasturi asosida ishlab chiqildi.

<sup>58</sup> Muallif hisob-kitoblari asosida ishlab chiqilgan.

2020	6,63	3,18	5,77	6,48
2021	6,82	3,26	6,14	6,55

EViews10 dasturiy paketidan foydalangan holda amalga oshirilgan regression tahlil jarayonida aniqlangan parametrlar hamda modelning ahamiyati dastur tomonidan hisoblangan asosiy baholash ko'rsatkichlari orqali baholangan.

Regression tahlil natijalaridan ko'rilayotgan holat uchun regression modelning koeffitsientlarini ajratib olgan holda trendning logarifmik modelini shakllantirib olinadi (4-jadval).

Aniqlangan ma'lumotlardan foydalangan holda "Farg'ona baraka" MChJ faoliyatida sof foyda hajmi va unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli tuzildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi:

$$\ln Y = 0,413 \cdot \ln X_1 + 0,539 \cdot \ln X_2 + 0,082 \cdot \ln X_3 + 1,657$$

regressiya tenglamasi tuzildi.

4-jadval

"Farg'ona baraka" MChJ bo'yicha tanlangan omillarning bog'lanish xususiyatlari va tuzilgan omilli model sifatining asosiy ko'rsatkichlari<sup>59</sup>

Dependent Variable: Sof foyda hajmi,

LnY

Method: Least Squares

Date: 10/01/23 Time: 19:26

Sample: 2012 2021

Included observations: 10

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
<b>Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi,</b>				
<b>LnX<sub>1</sub></b>	0.413030	0.091581	4.509989	0.0041
<b>Doimiy xarajatlari, LnX<sub>2</sub></b>	0.538545	0.126091	4.271088	0.0053
<b>Aylanma fondlar qiymati hajmi,</b>				
<b>LnX<sub>3</sub></b>	0.082349	0.063527	1.296282	0.2425
<b>Tasodifiy omillar umumiy ta'siri, ε</b>	1.657205	0.591479	2.801801	0.0311
R-squared	0.994343	Mean dependent var		6.352000
Adjusted R-squared	0.991515	S.D. dependent var		0.400938
S.E. of regression	0.036933	Akaike info criterion		3.470259
Sum squared resid	0.008184	Schwarz criterion		3.349225
Log likelihood	21.35129	Hannan-Quinn criter.		3.603033
F-statistic	351.5499	Durbin-Watson stat		2.166102
Prob(F-statistic)	0.000015			

Aniqlangan chiziqli logarifmik model potentsirlansa, korxonada faoliyatida sof foyda hajmi ko'rinishdagi ekonometrik model kelib chiqadi:

$$Y = X_1^{0,413} \cdot X_2^{0,539} \cdot X_3^{0,082} \cdot e^{1,657}$$

Dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilish lozim.

Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezoni qiymati 351,55 ga teng bo'lib, uning ahamiyati 0,00015 ga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, tuzilgan trend modelini ahamiyat jihatidan amaliyotda qo'llash mumkin.

Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezoni (-3,47), Shvars mezoni (-3,35) va Xannan-Kuin mezoni (-3,6) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini qo'llash mumkinligini ko'rsatadi.

Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelatsiya yoki multikollenarlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson

(DW) mezoni 2,17 ga teng bo'lib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelning sifatini nisbatan yuqori ekanligini, ya'ni avtokorrelatsiya darajasi past ekanligini ko'rish mumkin.

EViews10 dasturiy paketidan foydalangan holda "Farg'ona baraka" MChJda sof foyda hajmining 2012-2021 yillar oralig'idagi hajmining ±2 statistik xatolik chegaralarida o'zgarishi trendini shakllantiramiz hamda ushbu trendning ahamiyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarni baholaymiz. Jumladan, Teil notenglik koeffitsienti 0,0022 ga, Teil U2 koeffitsienti 0,16 ga, Bias nisbati 0 ga, variatsiya nisbati 0,0014 ga, kovariatsiya nisbati 0,9986 ga hamda simmetrik MAPE 0,3925 ga teng ekanligi tuzilgan modelning zaruriy oraliqlarda joylashganligini ko'rsatadi. Xususan, simmetrik MAPE uchun chegara 10 gacha ekanligi hisobga olinsa, taxminiylik xatoligi darajasi belgilangan chegaradan kichikligini ko'rish mumkin, ya'ni MAPE: 0,3925 < 10.

"Farg'ona baraka" MChJda sof foyda hajmining omillar ta'sirida o'zgarish modelini baholashda qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigidan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

<sup>59</sup> Muallif tomonidan EViews10 dasturida hisoblash asosida ishlab chiqilgan.

## 2022-2026 yillarda "Farg'ona baraka" MChJ korxonasi sof foyda hajmi va boshqaruv faoliyati ko'rsatkichlarining prognozlarini


Yillar	Sof foyda, mln. so'm (Y)	Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, mln. so'm (X <sub>1</sub> )	Doimiy xarajatlar, mln. so'm (X <sub>2</sub> )	Aylanma fondlar qiymati, mln. so'm (X <sub>3</sub> )
2022	1001,0	3683,2	470,6	701
2023	1061,6	3933,4	499,8	744
2024	1142,8	4183,5	529,1	786
2025	1210,3	4433,6	558,3	829
2026	1279,2	4683,7	587,6	872

Tahlil uchun olingan "Farg'ona baraka" MChJ oziq-ovqat sanoati korxonasi sof foyda hajmining o'zgarishini ifodalovchi ko'p omilli modellardagi o'zgaruvchilar regressiya koeffitsientlari asosida ularning natijaviy omilga ta'siri darajasini baholashimiz mumkin bo'ladi. Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, doimiy xarajatlari hamda aylanma fondlar qiymati hajmining ortishi natijaviy omilning o'zgarishiga to'g'ri bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.

Ushbu oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonada o'z faoliyatini boshqarish jarayonida yuqorida ishlab chiqilgan ko'p omilli modeldan foydalangan holda quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishi lozim:

- boshqaruv xarajatlari oshirmagan holda boshqaruv xodimlari sonini ma'lum miqdorgacha oshirishi mumkin, model bo'yicha boshqaruv xodimlari sonining ortishi sof foyda hajmining ortishiga olib kelsada, boshqaruv xarajatlari natijaviy ko'rsatkich hajmining pasayishiga olib keladi;

- mavjud resurs bazasiga tayangan holda korxonada tomonidan qo'shimcha investitsiyalarning jalb etilishi ham korxonada sof foydasi hajmining qo'shimcha o'sishiga olib keladi, biroq ushbu qo'shimcha o'sish hajmi unchalik yuqori emas. Bundan ko'rinadiki, mavjud quvvatlar doirasida korxonaning ishlab chiqarish sikllari investitsiyaga to'yinish fazasiga o'tgan.



1-rasm. "Farg'ona baraka" MChJda sof foyda hajmining qoldiq, haqiqiy va tuzilgan model qiymatlari grafigi<sup>60</sup>

Tuzilgan trend modeldan foydalanishda ushbu korxonada boshqaruv nuqtai nazaridan kiritilayotgan resurslar (ekzogen omillar) hajmini har bir birlik qo'shimcha kiritilayotgan resurs birligidan olinadigan samarani hisobga olgan holda belgilash resurs samaradorligini optimal ta'minlash imkonini beradi hamda korxonaning muvozanatlashgan holda barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

## 6-jadval

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni<sup>61</sup>

Yillar	Ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni (1)	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2)	Tugatilgan korxonalar soni (3)	Faollik indeksi, koeffitsientda (2/1)	Bankrotlik indeksi, koeffitsientda (3/2)
2012	7594	6574	692	0,866	0,11
2013	7924	6893	716	0,870	0,10
2014	8723	7805	786	0,895	0,10
2015	9113	8109	776	0,890	0,10
2016	9560	8873	990	0,928	0,11
2017	10007	9405	1099	0,940	0,12
2018	11589	11046	916	0,953	0,08
2019	13545	12912	733	0,953	0,03
2020	16801	15869	642	0,945	0,04
2021	23712	22154	364	0,934	0,02

2012-2021 yillarda aynan aholi jon boshiga oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish esa 2012 yilda 286,0 ming so'mni tashkil etib, 2021 yilga kelib 1584,6 ming so'm (5,54%)ga yetgani aholimizning turmush tarzi va xarid qobiliyati ortib borayotganini ko'rsatib beradi.

Ushbu jadval ko'rsatkichlari 2012-2021 yillar oralig'ida mamlakatimizda oziq-ovqat ishlab chiqaruvchi korxonalar va ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, tugatilgan korxonalar soni, faollik indeksi, bankrotlik indeksi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni aks ettirmoqda. 2012 yilda aynan oziq-ovqat

<sup>60</sup> Muallif tomonidan YeViews10 dasturida hisoblash asosida ishlab chiqilgan.

<sup>61</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanish maqsadida 7594,0 ta yangi korxonalar tashkil etilgan bo'lsa, 2021 yilga kelib bunday korxonalarni tashkil etilishi 23712,0 taga yetganini ko'rishimiz mumkin.

**Xulosa.** Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ekonometrik prognozlash asosida tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni qilish mumkin:

- oziq-ovqat mahsulotlariga ehtiyoj hamisha yuqori bo'lganligini, bu ehtiyoj bundan buyon ham ortib borishini ekonometrik prognozlash asosida resurs va boshqa omillarni hisobga olib, mazkur sohadagi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini yanada rivojlantirish zarur;

- oziq-ovqat korxonalarining xomashyo manbai bo'lgan qishloq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarishning kichik sanoat korxonalariga davlat ko'magini oldindan prognoz ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda aniqlash va yordam berish hamda ularga qo'shimcha imtiyozlar yaratish;

- oziq-ovqat sanoati korxonalarini ishlab chiqarish salohiyati, bilimi hamda malakasini oshirish tizimini yangilash va takomillashtirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, oziq-ovqat sanoatining barcha tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish tashqi va ichki bozor talablarga javob

beradigan raqobatbardosh tovarlarni ko'paytirish hisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi. Shu bois, yurtimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga prognoz korsatkichlari asosida boshqarishga yanada katta e'tibor berilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi 2021 yilda mamlakat eksporti tarkibidagi ulushi 8,3% tashkil qilgan. Mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari eksportining asosiy qismi bog'dorchilik va poliz mahsulotlarini ko'p miqdorda yetishtirilishi nuqtai nazaridan, ushbu salmoq eksport salohiyatiga nisbatan juda kam miqdorni tashkil etadi. Fikrimizcha, bu borada oziq-ovqat sanoatining jadal rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi muammolarni tahliliy o'rganish taqozo etiladi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni ta'kidlash mumkinki, har qanday tizimning boshqarilishi uchun eng muhim shart uning barqarorligi bo'lib, unda ma'lum bir qonun va qaror bilan ishlaydigan tizimning ta'minlanganligidir. Oziq-ovqat sanoat korxonalarini faoliyatini prognozlash asosida boshqarish ham narx darajasi muvozanatini barqarorligini ta'minlash va oziq-ovqat sanoat korxonalarining uzluksiz ishlashini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi. Natijada esa axolining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan doimiy talabi qondiriladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyaviddinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.

2. Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009

3. Poluxin A.A. Organizatsionno-ekonomicheskii mexanizm modernizatsii

selskogo xozyaystva Rossii/ A.A. Poluxin// Agrarnaya Rossiya. – 2012 - №5 s. 23-29

4. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid economic development. Экономика и социум, (7), 151-159.

5. Turgunov, M. (2021). STATE AND PROSPECTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RATINGS OF INNOVATION DEVELOPMENT. Theoretical & Applied Science, (7), 37-42.

6. Turgunov, M. (2019). Mechanisms of effective management of corporations in the republic of Uzbekistan. In Теория и практика корпоративного менеджмента (pp. 123-124).

7. TURGUNOV, M. M. U. (2022). THE STATE OF THE FOOD INDUSTRY IN UZBEKISTAN AND SOME ASPECTS OF ITS MANAGEMENT. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 156-162.

8. Muhriddin, T. U. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalarini faoliyatini boshqarishning o'ziga xos ayrim xususiyatlari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(2), 65-75.

9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti



## МАМЛАКАТИЗДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИГИ АСОСИДА ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Мамаюсупова Диловархон Бегматовна

иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори

[ku.mamayusupova@gmail.com](mailto:ku.mamayusupova@gmail.com)

### МАҚОЛА НАҚИДА

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 1

Maqola raqami: 20

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.257>

### ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада ДХШ механизмини туризмда тадбиркорликни барқарор ривожлантириш воситаси сифатида асосланган ва ушбу механизмни ривожлантиришнинг хорижий тажрибаларини қийсий ўрганган ҳолда Ўзбекистонда қўллаш мумкин бўлган жиҳатлари ёритилган.

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

туризм, барқарорлик, хорижий тажрибалар, қийсий таҳлил, давлат-хусусий шериклиги, ҳудудларнинг туристик салоҳияти

**Кириш.** Жаҳоннинг ривожланган мамлакатларида иқтисодиётнинг жадал ва барқарор ўсишини таъминлашда туризм соҳасидан самарали фойдаланишга алоҳида эътибор берилмоқда. Халқро миқёсдаги рақобат жараёнларининг кескинлашуви, пандемия ва глобал даражадаги беқарорлик соҳада жиддий муаммоларни келтириб чиқармоқда. «2020 йилда халқро туризм 72 фоизгача пасайиб, 2019 йилдагига қараганда дунё мамлакатларида 900 млн. сайёҳлар кам қабул қилган ёки 935 млрд. АҚШ доллари миқдоридан туризм экспорти даромадлари пасайганини кузатиш мумкин. Бундай пасайиш Осиё-Тинч океани минтақасида 82 фоизни, Яқин Шарқда 73 фоизни ва Африкада 69 фоизни ташкил этган»<sup>62</sup>. Туризм ривожланишини қўллаб-қувватлаш, туристик салоҳиятдан самарали фойдаланиш, соҳадаги муаммоларни ҳал этишда давлат-хусусий шериклиги механизмидан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Жаҳонда янги туристик хизматларни йўлга қўйиш, туристик салоҳиятни оширишнинг инновацион механизмларини ишлаб чиқиш, туризм инфратузилмасини ривожлантиришда рақамли платформалардан фойдаланиш кўплаб илмий изланишлар олиб борилмоқда. Туризм хизматлари кўрсатишнинг сифат даражасини ошириш, аҳоли ўртасида туризмни тарғиб қилишнинг инновацион усулларини қўллаш, туристик объектларга инвестицияларни рағбатлантириш, ҳудудларда ва тармоқларда туристик салоҳиятни оширишда давлат-хусусий шериклиги (ДХШ) механизмларидан самарали фойдаланиш йўналишларини белгилаш ва туристик кластерлар орқали миллий иқтисодиётда соҳани ривожлантириш устувор тадқиқот йўналишларидан ҳисобланади.

**Адабиётлар шарҳи.** Туризм фаолиятини бошқаришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш масалалари хорижлик олимлар Ф.Тейлор, П.Друкер, М.Портер, И.Гордон, М.Уэйтс, Д.Вольф, М.Энрайт ва бошқаларнинг илмий тадқиқотларида ўз аксини топади<sup>63</sup>.

Ўзбекистонда туристик фаолиятнинг барча соҳалари, хусусан давлат тузилмалари ҳамда шаклланаётган хусусий туристик бизнес субъектлари доирасида янги йўналишларини излаб топиш, туристик

хизматлар соҳасини кенгайтириш, ихтисослашувни чуқурлаштириш масалаларига кенг эътибор қаратилмоқда. Шундай бўлишга қарамасдан таклиф қилинаётган туристик хизматлар пакетини халқро талаблар ва стандартларга даражасига етказиш учун кўплаб ислохотлар амалга оширилиш лозим. Буни амалга оширишда ДХШ механизмидан фойдаланиш ислохотлар самарадорлигини таъминлайди. Чунки иқтисодиётнинг глобал ва ижтимоий соҳаларида ДХШ ү ёки бу тарзда давлат ташаббуси сифатид қараб келинаётган бўлса, реклама, меҳмонхона бизнеси ва туризм каби йўналишлар ривожда бизнес учун устувор аҳамият касб этади<sup>64</sup>. Бироқ муҳим аҳамиятга эга бўлган ҳудудлар брэндини шакллантиришда хусусий капитал томонидан ишлаб чиқилган наразарий асосларга таяниш, бошқа томондан эса, фақат давлат тузилмаларининг ҳаракатлари ва маблағлари ҳисобига амалиётга татбиқ этилиши самарали бўлмайди<sup>65</sup>.

Замонавий глобаллашув шароитларида ДХШ туризмни барқарор ривожлантириш воситаларидан бўлиб, жаҳон иқтисодиётидаги устувор тенденциялардан бири бу туризм саноатининг барқарор ривожланишга ўтиши саналади. Исталган бир мамлакатда туризм соҳасини мутаносиб ва барқарор ривожлантириш, нафақат соҳа ривожини учун шароитлар яратиш, балки соҳа тараққиётининг оқибатларини ҳам кўзда тутиш керак<sup>66</sup>.

Мураккаб вазифани ҳал қилиш – салбий оқибатларни камайтириш ва ижобий натижалардан максимал даражаси самарали фойдаланиш талаб этилади. Туризм саноатини жадал ривожлантириш- бу мураккаб ижтимоий-иқтисодий тизим сифатида ресурслар ва маданий меросдан оқилон фойдаланишни назарда тутати<sup>67</sup>.

ДХШ механизми нафақат восита, балки туризмни барқарор ривожлантиришда муҳим бўғин, зарурий шарт ҳисобланади. Хусусий сектор ва давлат шериклигисиз туризмни барқарор ривожлантириш мақсадларига эришишнинг имконсиз бўлиб кўринади<sup>68</sup>.

ДХШ иқтисодиёт субъектларининг ихтиёрийлиги, ташаббуслари, ички мотивацияларига асосланган фаолияти натижасида амалга оширилади. Шу сабабли иқтисодий механизмлардан

<sup>62</sup> <http://www.finmarket.ru/database/news/5378250>

<sup>63</sup> Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. – 104 с.; Друкер П. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе / Пер. с англ. – М.: Academia, 1999. – 288 с.; Друкер П. Практика менеджмента / Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 398 с.; Друкер, П. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.; Porter, M.E. 1998. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review 76 (6): 77-90.; Porter M. Competition. Moscow: Publishing House Williams. – 2001. – P. 207.; Gordon, I. and McCann, P. 2000. Industrial clusters: complexes, agglomeration and or social networks? Urban Studies 37 (3): – p. 510.; Waits, M.J. 2000. The added value of the industry cluster approach to economic analysis, strategy development, and service delivery. Economic Development Quarterly 14 (1): 35-50.; Wolfe, D. 2003. Clusters from the inside out: lessons from the Canadian study of cluster development. Paper presented at the DRUID summer conference.

Copenhagen, June 12-14, 2003.; Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. 1992. July/August. No 5. P. 24-25.

<sup>64</sup> Слинков В.Н. Первокласный сервис. Стратегия, тактика, оценка. Практические рекомендации. – М.: Издательство КНТ, 2008. – 272 с.

<sup>65</sup> ЧернатонидеЛ. От видения бренда к оценке бренда. Стратегический процесс роста и усиления брендов. –М.: Издательство Группа ИДТ, 2007. – 310 с.

<sup>66</sup> <https://naukarus.com/rol-turizma-v-ekonomike-azerbaydzhana>

<sup>67</sup> Гуляев В.Г., Селиванов И.А. Туризм: экономика, управление, устойчивое развитие. – М.: Советский спорт, 2008. – 280 с.

<sup>68</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-regulirovanie-razvitiya-turizma-v-azerbaydzhanе>

фойдаланишнинг асосий мақсади бизнес ва ҳоқимиятни туризмнинг ривожланишига бўлган ўз қарашларини ўзгартиришга мажбур қилиш эмас, балки ҳўжалик юритувчи субъектларни туризмни барқарор ривожлантириш мақсадида фаолиятни амалга оширишни рағбатлантиришдан иборат бўлиши лозим. Давлат бун ҳўжалик юритувчи субъектлар учун иқтисодий жиҳатдан фойдали қилиб қўйиши талаб қилинади.

ДХШ механизмининг туризм учун аҳамияти давлат ва туристик компанияларда аҳолининг турмуш даражаси ва сифати, ҳудуднинг барқарор туристик, ижтимоий-иқтисодий ва экологик ривожлантириш масалаларига тегишли бўлган умумий манфаатдорликнинг мавжудлиги билан асосланади<sup>69</sup>.

Шунингдек, бунда давлатнинг роли ижтимоий аҳамиятга молик соҳаларга туризмнинг таъсирини кўчатириш ва ҳудудларга туристик оқимнинг ўсиши, туризм ривожланиши барқарор характерга эга бўлишига хизмат қилишида намоён бўлади. Натижада туризм билан ижтимоий ва туристик аҳамиятга молик соҳалар (масалан, экология, табиатни муҳофаза қилиш, сув транспорти хизматлари, меъморлик обидларини тиклаш, ижтимоий инфратузилма ва б.) ўзаро ривожлантириш механизми яратилади.

Турмаҳсулот таркиби уни шакллантиришда давлат иштирокига алоҳида эътибор қаратиш талаб қилинади, Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги<sup>70</sup> Қонунида туристик ресурслар сифатида тегишли ҳудуднинг табиий-иқлим, соғломлаштириш, тарихий-маданий, маърифий ва ижтимоий-маиший объектлари мажмуини келтирилиш хусусий субъектларнинг улардан фойдаланишда давлат билан ҳамкорлик қилиши лозимлигини асослайди<sup>71</sup>.

ДХШ ташқи ва ички туризм учун туристик маҳсулот шакллантирувчи туроператорлар уюшмаси ташкил қилгани ҳолда ҳамкорликка эга бўлган корхоналарни рақобатчиларига нисбатан устунлигини таъминлаши ушбу механизмининг аҳамиятини оширади. Шериклик аъзолари – давлат, бизнес ва аҳолида аниқ белгиланган манфаатлар мавжудлиги туризм соҳасида ДХШ механизми ривожланишининг энг муҳим шarti ҳисобланади.

Шуни алоҳида айтиш жоизки, энг аввало, давлатнинг туризм соҳасидаги манфаатлари, ички ва ташқи туризмни ривожлантиришдан иборат бўлиб, унинг дивиденд сифатидаги оладиган иқтисодий ва ижтимоий фойдалари билан асосланади<sup>72</sup>.

**Тадқиқот методологияси.** Туризмни ўрганиш, мамлакатга янги сайёҳларни жалб этиш, туристлар ташрифи барқарорлигини таъминлаш ва уларга етарли даражада сифатли хизмат кўрсатиш кўплаб мамлакатларнинг асосий мақсадларидан бирига айланб келмоқда. Биз ушбу тадқиқотимизда солиштириш, таққослаш, кузатиш ва қиёсий методлардан кенг фойдаландик. Иккиламчи манбаъларни ўрганиб чиқиш ва уларни таҳлил қилиш орқали баъзи маълумотларга изоҳлар келтирдик ҳамда қўйида келтириб ўтилган натижаларни олдик. Юқорида таъкидланган методлардан фойдаланган ҳолда ўнлаб адабиётлар таҳлил этилди ҳамда тегишли ҳулосаларга келинди.

**Таҳлил ва натижалар муҳокамаси.** Бугунги замонавий глобаллашган дунёда, туризм ташқи иқтисодий фаолиятни кенгайтирувчи ва жалб қилувчи энг йирик, жуда тез ривожланаётган динамик иқтисодий тармоқлардан бири ҳисобланади<sup>73</sup>. Туризм маҳаллий иқтисодиётни диверсификациялашга, хорижий валюта оқимини ошириш орқали тўлов балансини яхшилашга, минтақаларни ривожлантиришга, бандликни таъминлашга, даромадларни оширишга, ўй ҳўжаликлари истеъмолини рағбатлантиришга хизмат қилади<sup>74</sup>.

Тадқиқотлардан маълум бўлишича қашшоқлик, ишсизлик ва малакали кадрлар етишмаслиги каби кўплаб ижтимоий муаммолар минтақанинг туризм сектори ошиши билан яхшиланиши мумкин. Туризм юқори мултипликацион таъсирга эга ва минтақага ташқаридан сарфларни жалб қилганлиги сабабли маҳаллий иқтисодиётда «экспорт» яратувчиси вази фасини бажаради. Агар ҳудуд тўғри танланган ва юқори сифатли экологик ҳолат, табиий манзараларга эга бўлса туризмни тезда ривожлантириш мумкин. Фақат маҳаллий ҳоқимият кичик бизнес ва бошқа манфаатдор томонлар учун тадбиркорликни ривожлантиришга қулай шароит яратиши керак бўлади<sup>75</sup>.

Ўзбекистонда хорижий валюта тушумини ошириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва даромадларини ошириш, минтақаларда ижтимоий-иқтисодий ривожланишини кўчатириш мақсадида туризм соҳасини давлат томонидан қўллаб – қувватлаш, туризм билан шуғулланувчи корхоналарга турли имтиёз ва преференциялар бериш, шунингдек, соҳа инфратузилмани шакллантириш бўйича бир қатор ислохотлар жадал суръатлар билан давом эттирилмоқда<sup>76</sup>.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ 5611 сонли Қарорида «2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси»га мувофиқ Европа ва Жанубий-Шарқий Осиё мамлакатлари билан товар айланмаси, ташиладиган йўловчилар сони ва инвестицияларни кўпайтириш учун республикадаги транспорт алоқа тизимини тубдан яхшилаш мақсадида хорижий алоқаларни янада мустақамлашга алоҳида эътибор берилди<sup>77</sup>.

Туризм истиқболли соҳалардан бири сифатида нафақат мамлакатда ижтимоий-иқтисодий ривожланишни таъминлаш драйвер балки ҳар бир ҳудудда ижтимоий муаммоларни бартараф этиш воситаси сифатида қаралмоқда. Бунинг учун ҳар бир ҳудуднинг туристик салоҳиятини инobatга олган ҳолда туризмни ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар ишлаб чиқилмоқда. Хусусан, Фарғона вилояти мамлакатда юқори туристик салоҳиятга эга бўлган ҳудудлардан бири ҳисобланиб, ҳудудда туризмни ривожлантириш бўйича Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 октябрдаги «Фарғона вилоятининг туристик салоҳиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 843-сон Қарори қабул қилинган. Мазкур қарорнинг қабул қилиниши Фарғона вилоятининг туристик салоҳиятини янада ривожлантириш ҳамда ундан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, ҳудудга хорижий ва маҳаллий туристларни кенг жалб қилиш учун қулай шароитлар яратиш, замонавий инфратузилмани жадал ривожлантиришни таъминлаш, кўрсатилаётган туризм, меҳмонхона ва транспорт хизматларини кенгайтириш ва уларнинг сифатини оширишга хизмат қилди<sup>78</sup>.

Кейинги даврда мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган чора тадбирлар натижасида соҳага оид кўрсаткичларнинг ижобий ўзгариши ва кескин ошиши кузатилмақда. Биз 2020 йилда пандемия сабабли энг кўп зарар кўрган соҳалардан бири туризм эканлигини ҳамда туризм соҳаси кўрсаткичларида кескин пасайиш кузатирилганлигини инobatга олган ҳолда, мамлакатимизда кейинги даврларда туризмнинг умумий ривожланиш тенденциясини 2017-2021 йиллар маълумотлари асосида қараб чиқишда ва пандемия натижасидаги таъсирларни алоҳида баҳолашга қарор қилдик.

Туризмни ривожланиш даражасини ифодалашда унинг ЯИМни шакллантиришга таъсири кўрсаткичидан фойдаланилади. Туризм юқори ривожланган давлатларда бу кўрсаткич 60-70 фоизни ташкил

<sup>69</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-regulirovanie-razvitiya-turizma-v-azerbaydzhanе>

<sup>70</sup> Ўзбекистон Республикасининг «Туризм тўғрисида»ги Қонунида. 1999 йил 20 август. ([www.lex.uz](http://www.lex.uz))

<sup>71</sup> Бабажанова Л.Ш.Актуальные аспекты устойчивого развития территорий Республики Узбекистан. <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-aspekty-ustoychivogo-razvitiya-territoriy-respubliki-uzbekistan>

<sup>72</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennoe-regulirovanie-razvitiya-turizma-v-azerbaydzhanе>

<sup>73</sup> Creaco, S. & Querini, G. (2003). The role of tourism in sustainable economic development. Presentation at the 43<sup>rd</sup> congress of the European Regional Science Association, 27 to 30 August 2003, Jyväskylä, Finland.; Reddy, P.C., Basha, A.M.M. & Kumar, M.V. (2014). A study on tourism and poverty reduction. International Journal of Trade and Global Business Perception, 5 (1), 754-758.

<sup>74</sup> Creaco, S. & Querini, G. (2003). The role of tourism in sustainable economic development. Presentation at the 43<sup>rd</sup> congress of the European Regional Science Association, 27 to 30 August 2003, Jyväskylä, Finland.; Steiner,

C. (2006). Tourism, poverty reduction and the political economy: Egyptian perspectives on tourism's economic benefits in a semi-rentier state. Tourism Hospitality Planning and Development, 3 (3), 161-177.

<sup>75</sup> Meyer D.F., Meyer N., The role and impact of tourism on local economic development: A comparative study. African Journal for Physical, Health Education, Recreation and Dance (AJPHERD) Volume 21(1:1), March 2015, pp. 197-214.


<sup>76</sup> Рузиев Ш.П., Ўзбекистонда туризмни ривожлантириш масалалари (хорижий тажрибалар асосида), «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil

<sup>77</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида туризмни жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611 Фармони.

<sup>78</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 3 октябрдаги «Фарғона вилоятининг туристик салоҳиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 843-сон Қарори

қилади. Мазкур кўрсаткичнинг Ўзбекистонда ҳам ижобий ўзгариши таъминланган бўлиб, кейинги йилларда 2017 йилдаги 2,9 фоиздан 3,4 фоизгача ошиши таъминланди<sup>79</sup>. Табиийки бу мамлакатнинг мавжуд туризм салоҳияти ҳамда ушбу салоҳиятдан самарали фойдаланиш билан бевосита боғлиқ ҳисобланади. Шу ўринда мамлакатнинг туризм салоҳиятини ифодаловчи баъзи кўрсаткичлар ва уларнинг кейинги йиллардаги динамикасига тўхталиб ўтилди.

Кейинги даврда мамлакатимизда ташриф буюрувчилар сони 2021 йилга келиб 2017 йилга нисбатан 1,4 баробарга камайиб, 1 881 300 кишини ташкил қилган. Бироқ ушбу ташриф буюрувчиларни таркибий қисмлари бўйича ўзгаришларга эътибор қаратиш, вазиятга янада тўлароқ баҳо бериш ҳамда ўзига хос бўлган ривожланиш



1-расм. Жами ташриф буюрувчиларнинг таркибий қисмларининг ўзгариши<sup>80</sup>

тенденцияларини кузатиш имкониятини яратиб беради. Пандемия йилларида пасайиш суръатлари чиқувчи туристлар сонидан кузатилиб, уларнинг сони 2021 йил 2195000 кишини ташкил этгани ҳолда, 2017 йилга нисбатан 2,4 баробарга камайган. Пандемия йилларида ички туризм салмоғининг 2017 йилга нисбатан 2,45 баробарга ошганлигини кузатиш мумкин.

Натижада мос равишда жами ташриф буюрувчилар таркибида кирувчи, чиқувчи ҳамда ички туризмнинг улушини ўзгариши таъминланган. Яъни чиқувчи ва ички туризм бўйича ташриф буюрувчилар сонидаги ўсиш жамига нисбатан паст бўлганлиги сабабли улар улушининг камайиши кузатилган (1-расм).

2017-2019 йилларда энг юқори улуши чиқувчи туризм ҳиссасига тўғри келиб, жами ташриф буюрувчиларнинг ярмидан ошиғини ташкил қилган, 2018 йилгача мазкур кўрсаткичнинг ошиши кузатилган бўлсада, кейинги даврдаги ўзгаришлар натижасида, 2021 йилга келиб олдинги йилларга нисбатан пасайгани ҳолда 22,2 фоизни ташкил қилган.

Ички туризмни ривожлантириш бўйича қатор амалий ишлар олиб борилаётганлиги натижасида унинг миқдор жиҳатдан ошиши таъминланмоқда, 2020-2021 йилларда ички туризмнинг улуш жиҳатдан кўтарилиши кузатилди. Натижада, энг юқори ва ижобий ўзгаришлар ички туристлар ҳиссасига тўғри келгани ҳолда, уларнинг улуши 2017-2021 йилларда 34,8 фоизга ошган.

Туризмни ривожланишида туристик инфратузилманинг ривожланган ҳолати ҳамда туристларга хизмат кўрсатувчи корхона ва ташкилотлар сони уларнинг сифати аҳамиятли эканлигини инobatга олган ҳолда айнан, кирувчи туризм ривожидан уларнинг ролини баҳолади (1-жадвалга қаранг).

1-жадвал

Кирувчи туристларга туристик фирма ва ташкилотлар томонидан хизмат кўрсатишнинг қамрови даражаси<sup>81</sup>

Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	2017	2018	2019	2020	2021	2017 йилга нисбатан, (+,-)
Кирувчи туризм	сони	2690074	5346219	6748512	1504100	1881300	- 808779
Туристик фирма ва ташкилотлари томонидан	сони	167394	224796	348731	89193	118710	- 48694
	улуши	6,22	4,20	5,17	5,93	6,31	+ 0,09
Меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари томонидан	сони	615865	932602	1094231	277356	378706	-237159
	улуши	22,89	17,44	16,21	18,44	20,13	-2,76
Санатория ва курорт муассалари томонидан	сони	8502	17481	24505	5264	7337	-1165
	улуши	0,32	0,33	0,36	0,35	0,39	-0,07
Дам олиш ташкилотлари ва туристик базалар томонидан	сони	14566	25856	53339	13687	21070	6504
	улуши	0,54	0,48	0,79	0,91	1,12	0,48

2017 йилда жами кирувчи туристларнинг 6,22 фоизига туристик фирма ва ташкилотлар томонидан хизмат кўрсатилган бўлса, бироқ 2021 йилга келиб мазкур кўрсаткич 6,31 фоизни ташкил этган. Меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари томонидан кирувчи туристларга хизмат кўрсатиш даражаси эса мос равишда 22,89 ва 20,13 фоизни ташкил қилган. Санатория ва курортлар, дам олиш ташкилотлари ва туристик базаларнинг кирувчи туристларга хизмат кўрсатишдаги улушини жуда ҳам кам эканлигини кузатиш мумкин. Бундан кўринадики мамлакатимизда туризмни ривожлантириш

бўйича таъминланаётган ижобий кўрсаткичлар салоҳиятимиздан тўлиқ фойдаланаётганимизни билдирмайди, шунингдек кирувчи туристлар ичида туризмнинг етакчи ва сердаромад йўланилиш бўлган дам олиш ва ҳордиқ чиқариш мақсадида келувчилар улуши камлигини рақамлардан кўришимиз мумкин. Юқорида келтирилган муаммоларни сабабли ўрганиш мамлакатимизга кирувчи туристларнинг мақсади бўйича таркибини қараб чиқишни талаб қилади (2-расм).

<sup>79</sup> <https://knoema.com/atlas/topics/Tourism/Travel-and-Tourism-Total-Contribution-to-GDP/Contribution-of-travel-and-tourism-to-GDP-percent-of-GDP?mode=amp>

<sup>80</sup> Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

<sup>81</sup> Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси






2-расм. Ўзбекистон Республикасига кировчи туристлар сонининг мақсади бўйича таркиби<sup>82</sup>.

Кировчи туристларнинг келишдан мақсади бўйича таркибидан кўринадики, асосий улуши қариндошларга ташрифга тўғри келмоқда. Яъни ушбу кўрсаткич жами кировчи туристларнинг 80-90 фоизини ташкил қилмоқда. Бироқ умумий тенденцияда пандемиягача бўлган даврда ушбу кўрсаткичнинг ҳам ижобий ўзгаришлари кузатиш мумкин бўлиб, айнан сайёҳлик мақсадида келувчи туристларнинг улуши деярли икки борабарга ошиши таъминланган. 2021 йилга келиб хизмат юзасидан ташриф буюрувчилар улушида кескин пасайиши кузатилиб 5,9 фоиздан 2,6 фоизгача камайди. Айнан шу йили қариндошларга ташриф буюрувчилар улуши 84,5 фоиздан 80,3 фоизга камайганини қўришимиз мумкин. Пандемия шароитида 2021 йилга келиб, қариндошларга ташриф буюрувчилар улуши пасайиши ҳисобига, тижорат мақсадида келувчи туристлар улуши 3,9 фоизга ўсиб, 4,7 фоизга етди.

Мамлакатимиз туристик салоҳиятини ошириш, соҳанинг сердаромад йўналишларини ривожлантиришда ҳудудларнинг туристик имкониятларини қараб чиқиш, улардан самарали фойдаланиш истиқболли йўналишларни белгилаб олиш муҳим ҳисобланади. Мазкур ҳолатдан келиб чиққан ҳолда, тадқиқот объекти бўлган Фарғона вилоятининг туристик имкониятларини қиёсий таҳлилини амалга оширилди.

Тадқиқот натижаларига кўра, Фарғона вилоятида туризмнинг ривожланишини коникарли даражада дейиш қийин. Хусусан мамлакатдани туристик фирма ва ташкилотлар сонидан вилоят улуши анча кичик миқдорга эга бўлиб, 3,3 фоизни ташкил қилади. Хизмат кўрсатилган ташриф буюрувчилар сонига нисбатан улуши янада кичик бўлиб, 0,2 фоизга тенг, шу билан бирга ушбу хизмат кўрсатилганларнинг деярли барчаси ички туризм ҳиссасига тўғри келмоқда. Вилоятнинг туристик салоҳиятини баҳолаш мақсадида баъзи кўрсаткичларга тўхталиб ўтамоқчимиз. Хусусан, вилоят мавжуд меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари объектларининг 7,7 фоизига, улардаги жойлар бирликлари бўйича 6,3 фоизига эга бўлишига қарамадан жойлаштирилган ташриф буюрувчилар сони бўйича улуши 3,3 фоизни ташкил қилмоқда, холос. Вилоятнинг туризм салоҳиятига нисбатан олинган юқорида келтирилган кўрсаткичларни талаб даражасида деб бўлмайди<sup>83</sup>.

Таъкидлаш жоизки, таҳлилларимизга кўра, вилоятнинг мавжуд туристик имкониятлари ҳамда ушбу йўналишда амалга оширилган таҳлил натижаларига асосланган ҳолда туризмнинг дам олиш ва ҳордик чиқариш йўналишлари воҳа учун айнан мақбул ва истиқболли ҳисобланади. Буни инобатга ҳолда вилоятда ушбу йўналишларда ривожланиш динамикасининг қиёсий таҳлилини қараб чиқамиз (3-расм).



3-расм. Вилоятда дам олиш ва туристик базалар, санатория ва курорт муассасалари улушини ўзгариш динамикаси<sup>84</sup>

Вилоятда дам олиш ва туристик базалар улуши жамига нисбатан пасаймоқда. 2021 йилга келиб 3,9 фоизни ташкил қилгани ҳолда 2017 йилга нисбатан улушини 3,3 бирликка камайган. Бунинг асосий сабабларини ўрганиш натижаларига кўра, вилоятда дам олиш ва туристик базалар сони ўзгаришсиз қолган, 2018 йилда биттага ошган, аммо 2019 йилга келиб қайтадан 18 тага тушиб қолган. Пандемия йилларида уларнинг сони ўзгармаган. Шунинг таъкидлашимиз мумкинки, 2017-2021 йиллар мобайнида мамлакатдаги дам олиш ва туристик базалар сонидан кескин ўсиш кузатилиб, уларнинг сони 2,1 баробарга ошгани ҳолда, 531 тага етган.

Мамлакатда мавжуд санатория-курорт муассасалари объектларининг салмоқли улуши, яъни 17,1 фоизи вилоят ҳиссасига тўғри келади. Улардаги мавжуд жойларнинг эса 14,9 фоизи, хизмат кўрсатилган ташриф буюрувчиларнинг 28,9 фоизи ҳудуд ҳиссасига тўғри келмоқда. Мавжуд ҳолатдан, вилоятда дам олиш, ҳордик чиқариш туризмни ривожлантириш бўйича имкониятлар юқори бироқ уларга хорижий туристларни жалб қилиш масаласи

оқсаётганлигини кўришимиз мумкин. МДХ яъни қўшни давлатлардан ташриф буюрувчилар сони бўйича улуши анча катта 41,7 фоизга тенг лекин, узоқ хориж давлатларидан ташриф буюрувчилар сони нолга тенглигича қолмоқда. Узоқ хориждан ташриф буюрувчи туристлар сонини ошириш масаласини қараб чиқиш, мавжуд санатория-курорт муассасаларида халқаро талаблар асосида хизматларни ташкил қилиш, уларни замон талаблари асосида реконструкция қилиш, улардани бошқарув тизimini бозор қонуниларига таянган ҳолда йўлга қўйиш масалаларини қараб чиқиш лозим.

Кейинги даврда пандемия таъсирида бутун дунёда хусусан мамлакатимизда туристик хизматлар динамикасида кескин пасайиш кузатиш бир даврда, Фарғона вилоятида туристик хизматларнинг юқори суръатларда ўсиши таъминланган (2-жадвалга қараган).

Шунинг алоҳида таъкидлаш кераки, COVID-19 пандемияси йилларида Фарғона вилоятида меҳмонхона ва хостеллар сони 39 тадан 57 тага етган ва 2021 йилга нисбатан 146 фоизни ташкил этган. Шунингдек, меҳмон уйлари ва квартиралар сони 156 тадан 210 тага етган, ўсиш суръатлари 135 фоиз бўлган.

<sup>82</sup> Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

<sup>83</sup> Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари

<sup>84</sup> Ўзбекистон Республикаси Статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

**Фаргона вилоятида туристик фаолиятни амалга оширувчи фирма ва ташкилотлар динамикаси ва улар фаолияти натижалари<sup>85</sup>**

	<b>Туристтик фаолиятни амалга оширган фирма ва ташкилотлар сони, бирлик</b>	<b>Хизмат кўрсатилган ташриф буюрувчилар, киши</b>	<b>Ҳар бир фирма ва ташкилотга тўғри келадиган ташриф буюрувчилар, киши</b>
2017	4	9792	2448
2018	9	9459	1051
2019	17	1557	92
2020	133	4152	31
2021	130	16830	130

Жумладан, туристик фаолиятни амалга оширувчи фирма ва ташкилотлар сони 2017 йилда тўрттани ташкил қилган бўлса, 2020 йилга келиб 133тани, 2021 йил 130тани ташкил этган. Бу ердаги асосий ўзгариш охириги йилларга тўғри келиб, 17 тадан 130 тагача ошган, натижада хизмат кўрсатилган ташриф буюрувчилар сони 1557 кишидан 16830 кишига ошганлигини кузатишимиз мумкин. Туристтик фаолиятни амалга оширувчи фирма ва ташкилотлар фаолиятида миқдорий ўзгаришлар таъминланган бўлишига қарамасдан сифат ўзгаришлари яъни самарадорлик пасайган. Яъни 2017 йилда ҳар бир субъект томондан хизмат кўрсатилган ташриф

буюрувчилар сони 2448 кишини ташкил қилган бўлса, мазкур кўрсаткич пасайиш тенденциясига эга бўлгани ҳолда 2021 йилга келиб 130 кишини ташкил қилган ҳолос. Табиийки бу бозорда рақобат курашини кескинлашадиганлиги ва мавжуд имкониятларда самарали фойдаланиш йўналишларини излаб топишга эътибор қаратиш лозимлигини асослайди.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда вилоятда меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари сони ҳамда улардаги номер, жойлар, уларга жойлаштирилган кишилар сонини кейинги тўрт йилдаги динамикасига эътибор қаратиб ўтмоқчимиз.

**Фаргона вилоятида Меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари сони ва улар салоҳиятини динамикаси<sup>86</sup>**

	<b>Меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари сони</b>	<b>номер (хоналар) сони</b>	<b>жойлар</b>	<b>жойлаштирилган шахслар сони киши</b>
2017	48	859	1997	59933
2018	55	879	1717	73304
2019	81	1273	2917	72118
2020	109	1273	2543	65980
2021	267	1882	4160	60764
2021 йилда 2017 йилга нисбатан ўзгариши (марта)	5,6	2,2	2,1	1.01

Ҳисоб китобларимизга кўра меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари сони кейинги беш йилда 5,6 баробарга ошган бўлишига қарамасдан улардаги номер ва ўринлар сони мос равишда 2,2 ва 2,1 баробарга ошганлигини кузатиш мумкин. Шунингдек, уларга жойлаштирилган шахслар сони 1,01 баробарга ошган бўлиб, бу йўналишда ҳам сифатий кўрсаткичларда салбий тенденцияни кузатиш мумкин. Шунга алоҳида эътибор қаратишимиз мумкинки, 2021 йилда меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситалари сони аввалги йилга нисбатан 158 тага ёки 2,4 марта ошган бўлишига қарамасдан номер ва ўринлар сони, мос равишда 1,5 ва 1,6 марта ортган ҳолос. Бундан шунини тушуниш мумкинки, мавжуд меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситаларини алоҳидалаш эвазига уларнинг сони оширилмоқда ҳолос. Бу борада амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижаларини сифат кўрсаткичлари асосида туман ва шаҳарлар кесимида қараб чиқамиз. Таҳлилни амалга ошириш учун ҳар бир

номер ва ўринга жойлаштирилган шахслар сони динамикаси ўзгаришини қараб чиқамиз (4-жадвалга қаранг).

Фаргона вилоятида 2017 йилда ҳар бир номерга жойлаштирилган шахслар 69,8 кишини ташкил қилган бўлса, 2021 йилга келиб 32,3 кишигача камайган. Ҳар бир ўринга жойлаштирилган шахслар сони эса мос равишда 30,0 кишидан 14,6 кишигача камайган.

Умумий тенденцияда барча йилларда номер ва ўринларда фойдаланиш самарадорлиги Данғара тумани, Фаргона ва Марғилон шаҳарларида юқори қийматга эга бўлган. Шунингдек, Марғилон шаҳри ва Олтиариқ туманида номерлардан фойдаланиш самарадорлиги юқори суръатларда ўсишига эришилган. Мавжуд ўринлардан фойдаланиш самарадорлик кўрсаткич-ларидаги ижобий ўзгариш Қўқон ва Марғилон шаҳри ҳамда Риштон туманида сезиларсиз даражага ўсиш таъминланган.

<sup>85</sup> Муаллиф ишланмаси

<sup>86</sup> Муаллиф ишланмаси

**Меҳмонхона ва шунга ўхшаш жойлаштириш воситаларидаги номер  
ва ўринлардан фойдаланиш даражаси<sup>87</sup>**

	2017		2018		2019		2020		2021	
	Ҳар бир номерга жойлаштирилган шахслар сони, киши	Ҳар бир ўринга жойлаштирилган шахслар сони	Ҳар бир номерга жойлаштирилган шахслар сони, киши	Ҳар бир ўринга жойлаштирилган шахслар сони	Ҳар бир номерга жойлаштирилган шахслар сони, киши	Ҳар бир ўринга жойлаштирилган шахслар сони	Ҳар бир номерга жойлаштирилган шахслар сони, киши	Ҳар бир ўринга жойлаштирилган шахслар сони	Ҳар бир номерга жойлаштирилган шахслар сони, киши	Ҳар бир ўринга жойлаштирилган шахслар сони
<b>Фарғона</b>	69,8	30,0	83,4	42,7	57,6	25,9	51,8	25,9	32,3	14,6
<b>шаҳарлар:</b>										
Фарғона	99,3	55,5	107,5	58,5	67,7	36,4	67,7	36,4	42,2	20,5
Кўкон	34,8	10,4	44,5	21,7	29,2	13,8	29,2	13,8	18,2	7,8
Марғилон	74,3	34,3	115,3	54,0	120,5	59,7	120,5	59,7	75,1	33,6
<b>туманлар:</b>										
Олтиариқ	54,2	26,5			105,3	26,3	105,3	26,3	65,6	14,8
Бувайда	10,3	6,2								
Риштон	4,6	2,2	3,3	1,7	4,9	2,5	4,9	2,5	3,1	1,4
Фарғона	11,7	5,9	16,0	8,3	3,1	1,6	3,1	1,6	1,9	0,9
Данғара	94,6	48,9	110,1	56,8	35,9	18,5	35,9	18,5	22,4	10,4

Юқорида келтирилганлардан маълум бўлишича вилоятда туризмни ривожлантириш бўйича ишлар талаб даражасида эмас, яъни туристик хизматлар кўрсаткичларини миқдор жиҳатдан ошиши таъминланаётган бўлсада, улардан фойдаланиш самарадорлиги яъни сифат кўрсаткичларида салбий тенденциялар кузатишмоқда. Таҳлилларимиз кўрсатишича, пандемия даврида нафақат Ўзбекистон, балки бутун жаҳон туризм саноати азият чекиб, чегаралар ёпилганлиги боис, вилоят туристик хизматларида мижозларнинг асосий қисмини республикамизнинг ички маҳаллий туристлари ташкил қилиб, айнан ички туризм бу даврда нисбатан барқарор ривожланди.

Фикримизча, Фарғона вилоятида туризмни ривожлантиришнинг асосий вазифаларидан бири хорижий туристларни тарихий обидалар, меъморчилик, диний ва маданий ёдгорликлар ҳамда бошқа диққатга сазовор замонавий жойлар билан таништириш орқали уларга воҳанинг ижтимоий-маданий тарихи ҳақида батафсил маълумот бериш орқали вилоятнинг туристик жозибadorликни оширишдир.

Фарғона вилоятида жойлашган туристик объектлар орасида Вилоят Хунармандчилик марказлари, Кўкон давлат музей кўриқхонаси, Меҳригёё экотуризм маркази, "Ёдгорлик" ипақчилик фабрикаси ҳамда Саид Аҳмадхўжа мадрасасининг ўрни катта.

Шуни таъкидлашимиз мумкинки, хорижий давлатлардан Фарғона вилоятига туристларни жалб қилиш жозибadorлигини ошириш мақсадида Кўкон шаҳрида йиллик ўтказиладиган Хунармандлар фестивали ташкил этилиб, хорижий шериклар билан фаол ҳамкорлик қилиб келмоқда. Айни пайтда, мунтазам равишда ҳар йили фестивалда дунёдаги кўпгина мамлакатлар туризм ташкилотларининг вакиллари меҳмон бўладилар.

Фарғона вилоятида жойлашган туристик объектлар ва уларнинг жозибadorлигини ошириш имкониятларини тадқиқ этар эканмиз, бунда ходимларнинг сифатли таркибини шакллантириш, сайёҳлик компаниялари сайёҳлик маҳсулотининг самарали тақдимотларини ўтказиш бўйича тренинглар, шу жумладан тегишли ўқув дастурлари билан таъминлашни танлайдиган тизимга ўтиш зарурлигини таъкидлашимиз зарур.

Фикримизча, тренинг дастурларидаги туризм бизнеси тўғрисидаги маълумотларнинг барчаси ходимларини ривожлантиришга қаратилган бўлиши керак, хусусан:

туризм соҳасидаги қонун ҳужжатлари ва уларни тартибга солиш;

тегишли ҳужжатларни расмийлаштириш қоидалари;

туристик компаниялари тўғрисидаги маълумотлар, уларнинг яратилиш тарихи, фаолиятнинг стратегик йўналишлари, амалга оширилаётган асосий лойиҳалар;

турмаҳсулотларининг ўзига хос хусусиятлари, уларнинг рақобат афзалликлари;

турмаҳсулотни рағбатлантириш бўйича тадбирлар ташкил этиш;

савдони ривожлантиришнинг амалий усуллари ва бошқалар.

Турмаҳсулотни сотишда энг асосий жиҳатлардан бириси бу бизнес-мулкот ва музокаралар ва суҳбатлар учун технологияни ишлаб чиқишдир. Бевоқиф турмаҳсулот сотиш самарадорлигини ошириш учун туристларни сотиб олиш иштиёқи ва товар ёки хизмат жозибadorлигини оширишга қаратилган турли хил рағбатлантириш чораларини қўллаш керак. Хизматлар савдосини тарғибот қиладиган ва сотишни тезлаштирадиган қисқа муддатли реклама тадбирларини амалга оширишни ўз ичига олади.

Маъмур чора-тадбирлар номавсумий. савдо ҳажми камайган даврларда турли туристик йўналишидаги кўргазма, ярмаркалар, тақдимотлар, юбилей тадбирлари билан бир даврда амалга оширилиши мақсадга мувофиқ.

Бундай тадбирларни амалга оширилиши рағбатлантириш туризм маҳсулоти ва туркомпанияга истеъмолчилар эътиборини тобора кўпроқ жалб қилиш, туризм хизматларини истеъмолчини ва сотишни кучайтириш рағбатлантириш, туризм бозоридида савдонинг мавсумий ўзгаришларининг салбий таъсирларини юмшатиш каби вазифаларни амалга оширишни таъминлаш учун мўлжалланган.

Бизнинг фикримизча, вилоятда туристик салоҳиятни ошириш учун мақсадли туристик сегментларини шакллантириш керак, Жумладан, туристик маҳсулотни шакллантириш ва туристларнинг хавфсизлигини таъминлаш, маркетинг тадбирларини йўлга қўйиш ва салоҳиятли турист жўнатувчи мамлакатлар гуруҳлари учун виза сиёсатини соддалаштириш, замонавий меҳмондўстлик инфратузилмасини ва умумий туристик инфратузилмани такомиллаштириш.

Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, вилоятда туризмни ривожлантириш учун юқори салоҳият мавжуд бўлиб, ундан фойдаланиш самарадорлиги пастигича қолмоқда. Фикримизча, вилоятдаги мавжуд туристик объектларни тўлиқ хусусийлаштириш ёки уларни ДХШ механизми асосида бошқарувини ташкил қилиш, улардан фойдаланиш

<sup>87</sup> Муаллиф ишланмаси

самарадорлигини оширишга ва мавжуд салоҳиятни янада кўтариншга хизмат қилади.

**Хулоса ва тақлифлар.** Бугунги кунда ДХШ туризми барқарор ривожлантириш воситаларидан бўлиб, айнан шу механизм орқали соҳанинг мутаносиб ва барқарор ривожланишига ўтиши дунё иқтисодиётида кечаётган долзарб тенденцияларидан биридир.

Ҳар қандай минтақани барқарор туристик, ижтимоий-иқтисодий ва экологик ривожлантириш масалалари бўйича давлат ва хусусий секторниг муштарак манфаатларининг мавжудлиги айнан замонавий шaroитларда ДХШ механизмнинг соҳада қўллаш аҳамиятини белгилаб беради.

Туризм соҳасида ДХШни амалга оширишда мавжуд муаммолар куйидагилардан иборат.

Биринчидан, ДХШ механизми бўйича қонунчиликни такомиллаштириш лозимлиги.

Иккинчидан, ДХШ тизимининг самарали фаолият кўрсатиши учун бугунги кунда давлат хизматчилари малакасини оширишни таъминлаш зарур.

Учинчидан, бозор қатнашчилари учун ДХШ механизмлари очиклиги шаффоф конкурсли механизмлари таъминланиши зарур.

Тўртинчидан, давлат ташиқлотлари билан кичик ва ўрта тижиорат ташиқлотлари ўртасидаги шартнома муносабатлари жараёни институционал таъминотининг сустилиги.

Аммо, ДХШ механизмдан фойдаланиш, биринчи навбатда, хусусий молиялаштиришининг анъанавий шаклларига жалб қилмайдиган ижтимоий аҳамиятга эга лойиҳаларни қисқа муддатларда амалга ошириш; хусусий бизнес иштирокида лойиҳалар самарадорлигини ошириш; хусусий маблағларни жалб

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. – 104 с.;
2. Друкер П. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе / Пер. с англ. – М.: Academia, 1999. – 288 с.;
3. Друкер П. Практика менеджмента / Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 398 с.;
4. Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.;
5. Porter, M.E. 1998. Clusters and the new economics of competition. Harvard Business Review 76 (6): 77-90.;
6. Porter M. Competition. Moscow: Publishing House Williams. – 2001. – P. 207.;
7. Gordon, I. and McCann, P. 2000. Industrial clusters: complexes, agglomeration and or social networks? Urban Studies 37 (3): – p. 510.;
8. Waits, M.J. 2000. The added value of the industry cluster approach to economic analysis, strategy development, and service delivery. Economic Development Quarterly 14 (1): 35-50.;
9. Wolfe, D. 2003. Clusters from the inside out: lessons from the Canadian study of cluster development. Paper presented at the DRUID summer conference. Copenhagen, June 12-14, 2003.;
10. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. 1992. July/August. No 5. P. 24-25.
11. Слинков В.Н. Первокласный сервис. Стратегия, тактика, оценка. Практические рекомендации. – М.: Издательство КНТ, 2008. – 272 с.
12. ЧернатонидеЛ. От видения бренда к оценке бренда. Стратегический процесс роста и усиления брендов. –М.: Издательство Группа ИДТ, 2007. – 310 с.

қилиш ва харажатларнинг бир қисмини фойдаланувчиларга ўтказиш (хизматлар кўрсатишни тижиоратлаштириш) орқали бюджетга тўғри келадиан юкни камайтириш; энг яхши бошқарув ходимларини, асбоб-ускуналарни ва технологияларни жалб қилиш, охириги фойдаланувчиларга хизмат кўрсатиш сифатини ошириш имкониятини беради.

Туристик бизнесда ДХШ тамойилларини қўллашнинг аҳамияти шундаки, тадбиркорлик фаолиятининг асосий омиллари саналган мулк, инфратузилма, рекреация объектлари асосан хусусий секторда бўлса, туристик йўналишларнинг жижибадорлигини белгилайдиган тарихий ва маданий мерос объектларига давлат эгалик қилади. Айнан туризм соҳасида иқтисодиётнинг тижиорат ва нотижиорат соҳалари манфаатлари ўзaro боғлиқ бўлади.

Давлат томонидан хусусий тартибга солишни глобал миқёсда иккита асосий умумлаштирилган йўналиш бўйича амалга ошириш тақлиф қилинади.

Биринчи йўналиш бозор ва ўзини ўзи бошқаришнинг қўллаб муҳим маҳсулот турлари учун талаб-тақлиф тизимидаги мавжуд муносабатларнинг ўз-ўзидан пайдо бўлишини ҳисобга олган ҳолда режалар ва давлат дастурларини тузиш йўли билан тартибга солиниши билан боғлиқ.

Иккинчи йўналиш ижтимоий дастурларнинг амалга оширилишини ва бозор иқтисодиётининг ижтимоий йўналишини таъминлайди. Ҳукуматнинг тегишли аралашувисиз бозорнинг ўз-ўзини тартибга солиши монополиялар ошишига, даромадлари бўйича аҳолининг табақлашуви кучайишига, ижтимоий соҳаларни (фан, маданият, санъат, соғлиқни сақлаш, таълим ва бошқалар) қисқаришига олиб келиши мумкин.

13. Гуляев В.Г., Селиванов И.А. Туризм: экономика, управление, устойчивое развитие. – М.: Советский спорт, 2008. – 280 с.

14. Бабажанова Л.Ш.Актуальные аспекты устойчивого развития территорий Республики Узбекистан.

15. Creaco, S. & Querini, G. (2003). The role of tourism in sustainable economic development. Presentation at the 43<sup>rd</sup> congress of the European Regional Science Association, 27 to30 August 2003, Jyväskylä, Finland.;

16. Reddy, P.C., Basha, A.M.M. & Kumar, M.V. (2014). A study on tourism and poverty reduction. International Journal of Trade and Global Business Perception,5 (1), 754-758.

17. Creaco, S. & Querini, G. (2003). The role of tourism in sustainable economic development. Presentation at the 43<sup>rd</sup> congress of the European Regional Science Association, 27 to30 August 2003, Jyväskylä, Finland.;

18. Steiner, C. (2006). Tourism, poverty reduction and the political economy: Egyptian perspectives on tourism's economic benefits in a semi-rentier state. Tourism Hospitality Planning and Development,3 (3), 161-177.

19. Meyer D.F., Meyer N., The role and impact of tourism on local economic development: A comparative study. African Journal for Physical, Health Education, Recreation and Dance (AJPHERD) Volume 21(1:1), March 2015, pp. 197-214.

20. Рузиев Ш.Р., Ўзбекистонда туризми ривожлантириш масалалари (хорижий тажирибалар асосида), «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020 yil



## АҲОЛИ ДАРОМАДЛАРИ ВА ХАРАЖАТЛАРИ БАЛАНСИГА ЖИСМОНИЙ ШАХСЛАР ДАРОМАД СОЛИҒИНИНГ ОПТИМАЛ ТАЪСИРИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

**Ахмеджанов Каримжон Бакиджанович**

Тошкент Кимё халқаро университети проректори,  
иқтисодиёт фанлари доктори, профессор

[karimjonakhmedjanov@gmail.com](mailto:karimjonakhmedjanov@gmail.com)

**Зайниев Фарход Нуриддинович**

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

мустақил изланувчиси

[zfnu@mail.ru](mailto:zfnu@mail.ru)

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 21

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.258>

**KALIT SO'ZLAR/** Ключевые слова/ keywords

Оптимал солиқ тизими, вертикал ва горизонтал тенглик, солиқ режими, даромадларнинг нафлиги, маржинал нафлилик, селектив ёндашув, стационар нуқта, даромад интервали, даромад солиғи макрокўлами, прогрессив солиққа тортиш тизими.

Мамлакат иқтисодиётининг барқарор ривожланиши контекстидаги миллий даромаднинг изчил ўсиши, иқтисодий агентлар шахсий тасарруфидаги даромадларини ортишини таъминласада, ушбу даромадларнинг ижтимоий-адолат принциплари асосида тақсимлаш орқали даромадлар тенгсизлиги ҳолатини олдини олишининг молиявий механизмларига эҳтиёж сезади.

**Кириш.** Ўзбекистон Республикасида миллий иқтисодиётни инновацион ривожлантиришга йўналтирилган ислохотлар барқарор ўрта аҳоли қатламининг шаклланишига, аҳолининг турмуш фаровонлигини оширилишига, истеъмолад бюджетининг сифат ва миқдор жиҳатидан яшиланиши олиб келади. Аҳолининг кенг ижтимоий қатлами даромадлари ва харажатлари баласининг таъминланиши ва реал шахсий тасарруфидаги даромадлар кўламининг кенгайиши мамлакатдаги камбағаллик даражасининг пасайиши ва истеъмолад бюджетидан ортиқча жамғармалар ҳисобига мамлакатнинг инвестицион салоҳиятини янада ортишига таъсир этади.

Аҳоли даромадларини тартибга солиш механизмида пировард мақсад аҳолининг барча қатламларининг турмуш фаровонлигини максимал даражасини таъминлаш ҳисобланади. Аҳолининг турмуш фаровонлигини моддий негизини даромадлар ташкил қилсада, ушбу даромадлар ҳисобига истеъмолад ва жамғариш фондларининг шаклланиши, истеъмолад фондининг сифат таркиби турмуш фаровонлик ёки камбағалликнинг асосий мезонларини ташкил қилади.

Шу нуқтаи назардан, аксарият ҳолларда солиқ тизимининг аҳоли даромадларига таъсирини тадқиқ қилиниши кузатилган бўлсада, бизнинг фикримизча солиқ тизимини аҳоли турмуш фаровонлиги ва хусусан уларнинг даромадлари билан параллел равишда харажатларига таъсирини комплекс тадқиқ қилиш мақсадга мувофиқдир.

**Адабиётлар шарҳи.** Аҳоли даромадларини изчил ошириш ва унинг ижтимоий қатламлари ўртасидаги даромадлар тенгсизлигини тартибга солишининг молиявий механизми илмий-назарий ва амалий асосларига бағишланган замонавий

тадқиқотлар<sup>88</sup> А.Алесина ва Д. Родрик, Р. Агион, Е. Кароли ва С. Гарсия-Пенасоли, Д. Асемугли, М.Фридман, Ж.М.Кейнс, О.Галор ва Х. Занг, Р. Перотти, Е. Саез, Т. Пикети ва А.Голдхаммер ва бошқалар томонидан ўрганилган.

А. Маршаллнинг бир Шиллинг пул бирлигини бой ижтимоий қатлам аҳоли қатламига нисбатан камбағалга келтирадиган бахт бениҳоя юқори эканлиги ҳақидаги аргументи ҳам тасдиқлайди<sup>89</sup>.

Lynch ва бошқаларнинг фикрича, даромадлар тенгсизлиги ва соғлиқ боғлиқлиги тўғрисидаги гипотезага асосан аҳоли ўлими ва саломатлигига даромад тақсимоли кучли таъсир кўрсатади. Гипотеза учун далиллар даромадлар тенгсизлигини камайтиришга қаратилган қайта тақсимлаш сиёсатини қўллаб-қувватлайди. Баъзи истиснолардан ташқари, жумладан, Wagstaff ва van Doorslaer, Mellor ва Milyo, Gravelle, Beckfield ҳамда Jen ва бошқалар олиб борилган тақиқотларни ҳисобга олган ҳолда, иқтисодчи олимлар (Shmueli 2004; De Vogli ва бошқалар 2005; Ram 2006; Dorling ва бошқалар 2007; Babones 2008; Karlsson ва бошқалар 2009; Biggs ва бошқалар 2010; Idrovo ва бошқалар 2010) томонидан олиб борилган аксарияти охириги илмий тадқиқотларнинг натижаларида ушбу гипотеза ўз тасдиғини топган.

Шунингдек, Galor ва Tsiddon, Foellmi ва Zweimullerларнинг таъкидлашича, даромад тенгсизлиги Илмий-тадқиқот ва тажриба-конструкторлик ишланмалари ва технологияларни ривожланишига ёрдам беради ва бу иқтисодий ўсишга олиб келади<sup>90</sup>.

Saez фикрича, иқтисодий ўсиш мамлакатнинг иқтисодий барқарорлик ўлчови сифатида кенг қўлланилади ва тараққиёт ва

<sup>88</sup> Alesina, A. and Rodrik, D. 1994. Distributive politics and economic growth. Quarterly Journal of Economics, 109, 2, pp. 465-90.; Acemoglu, D. 2007. An Introduction to Modern Economic Growth. Journal of Economic Theory, Elsevier, vol. 147(2), pages 545-550.; Aghion, P., Caroli, E., and Garcia-Peñalosa, C. 1999. Inequality and Economic Growth: The Perspective of the New Growth Theories. Journal of Economic Literature Vol.37(4), 1615-1660; Friedman M., John Maynard Keynes // Federal Reserve Bank of Richmond Economic Quarterly. — 1997.; Bogle, John C. The Clash of Cultures: Investment vs. Speculation, Hoboken, NJ: John Wiley & Sons., 2012.; Galor, O. and Zang, H. 1997. Fertility, income distribution, and economic growth: theory and cross-country evidence. Japan and the World Economy, 9, 2, pp. 197-229.; Perotti, R. 1996. Growth, Income Distribution, and Democracy: What the Data Say. Journal of Economic Growth, 1(2), 149-187. Retrieved April 15, 2020,

from: [www.jstor.org/stable/40215914](https://www.jstor.org/stable/40215914); Saez, E. 2020. Striking it Richer: The Evolution of Top Incomes in the United States (Updated with 2018 estimates). Retrieved: March 25th, 2020. From: [eml.berkeley.edu/~saez/saez-UStopincomes-2018.pdf](https://eml.berkeley.edu/~saez/saez-UStopincomes-2018.pdf).; Piketty, T., and Goldhammer, A. 2015. The Economics of Inequality. Cambridge, Massachusetts; London, England: Harvard University Press. Retrieved May 16, 2020, from [www.jstor.org/stable/j.ctvjnrk](https://www.jstor.org/stable/j.ctvjnrk).

<sup>89</sup> Маршалл А. Принципы экономической науки: в 3 т.-М.: Инфра-М., 1993.-217 с.

<sup>90</sup> Galor, O., and Tsiddon, D. 1997. Technological Progress, Mobility, and Economic Growth. The American Economic Review, 87(3), 363-382. Retrieved May 16, 2020, from [www.jstor.org/stable/2951350](https://www.jstor.org/stable/2951350).; Foellmi, R., and Oechslin, M. 2008. Why progressive redistribution can hurt the poor. Journal of Public Economics, 92(3-4), 738-747.

бошқа ҳодисаларнинг иқтисодий ўсишга таъсири макроиқтисодиётнинг муҳим муаммосидир. Ўтган бир неча ўн йилликлар ичида, даромад тенгсизлик дунё бўйлаб сезиларли даражада ортиб бормоқда<sup>91</sup>. Сиёсатчилар томонидан инқирозлар даврида ижобий натижаларга эришиш учун даромадлар тенгсизлигининг иқтисодий ўсишга таъсирини баҳолашга катта қизиқиш билдирилган<sup>92</sup>.

Шунга қарамай, даромадлар тенгсизлиги иқтисодий ўсишга таъсир кўрсатадиган каналларни тушунтиришда турли мунозаралар ноаниқ прогнозлар билан кўплаб назарияларнинг пайдо бўлишига олиб келган. Масалан, Perotti, Alesina ва Rodrikларнинг таъкидлашича, аҳоли даромадлари тенгсизлиги ҳукуматлар томонидан қайта тақсимлаш сиёсати ва аҳолининг бой қатлами учун юқори даромад солиғи орқали киритилган номуаносибликлар туфайли иқтисодий ўсишга салбий таъсир қилади<sup>93</sup>.

Acemoglu фикрича эса, давлат бюрократияси ва самарасиз институтлари иқтисодий ўсишга таъсир қилади ва бу муаммо даромадлар тенгсизлигини ошириш орқали кучаяди<sup>94</sup>. Бундан ташқари, Galor, Zang, Aghion ва бошқаларнинг таъкидлашича, аҳоли даромадлари тенгсизлиги иқтисодий ўсишга салбий таъсир кўрсатади, номукамал капитал бозорлари туфайли аҳолининг кам таъминланган қатламлари учун таълимга киришга тўсқинлик қилади ва мамлакатда инсон капиталининг шаклланишига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Шунингдек, даромадлар тенгсизлиги ижтимоий муаммоларнинг ўсиши туфайли сиёсий беқарорликка олиб келади ва шунинг учун иқтисодий ўсишга салбий таъсир кўрсатади, чунки инвестициялар учун рағбатлантиришлар бўлмайди. Бироқ, бошқа иқтисодчи олимларнинг фикрича, даромадлар тенгсизлиги ўсишга ҳисса қўшади, чунки у аҳолининг бой қатламларида жамғаришни оширади ва бу йирик ҳажмдаги инвестицияларни амалга оширишни таъминлайди.

Иқтисодчи А. Агзамов Ўзбекистонда жисмоний шахслардан олиннадиган даромад солиғини прогрессив моделдан текис шкалага асосланган моделига ўтиш билан боғлиқ ислохотларга тўхталиб таъкидлаганидек, “Даромад солиғини ҳисоблаш учун солиқ базасига нисбатан қўлланиладиган прогрессив солиқ ставкаларининг 2 ва 3 шкаалари бўйича минимал иш ҳақининг асос қилиб олиниши уларнинг ортиши ҳисобига солиқ тўловларининг миқдор жиҳатидан кўпайиб боришига олиб келади”<sup>95</sup>.

**Тадқиқот методологияси.** Ўзбекистон Республикасининг “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги 2020 йил 20 октябрдаги ЎРҚ-642 сон Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон «2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт Стратегияси тўғрисида»ги, 2019 йил 14 майдаги ПФ-5718-сон «Тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилиш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармонлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2020 йил 29 августдаги “2020-2021 йилларда


иқтисодий ўсишни тиклаш ва иқтисодиёт тармоқлари ҳамда сохаларида тизимли таркибий ислохотларни давом эттириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 529-сонли Қарори ҳамда мазкур фаолиятга доир бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишга ушбу диссертация тадқиқоти муайян даражада хизмат қилади.

**Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси.** Жисмоний шахсларни солиққа тортиш тизимини такомиллаштириш орқали уларнинг реал даромадларини ошириш, даромадлар тенгсизлигини барқарорлаштиришнинг концептуал асослари қўйидагилардан иборат бўлиши зарур:

1. Аҳоли даромадларини солиққа тортиш тизими улар фаолиятининг ижтимоий аҳамиятидан қатъий назар вертикал ва горизонтал тенглик принципларини таъминлашга йўналтирилиши лозим.

Маълумки, замонвий иқтисодий маконда мавжуд оптимал солиқ тизими бир хил даромадга эга бўлган ёки турли фаолиятдан даромадларга асосланган солиқ тўловчилар учун ижтимоий адолат принципларига асосланган солиқ режимини шакллантириш ҳисобланади. Ушбу солиқ тизими аввало солиқ тўловчилар томонидан давлат бюджетига солиқ тўловларининг тўлашдан иштиёқларининг иқтисодий асосини ташкил қилади. Ушбу жиҳатдан кўриб чиқадиган бўлсак, жисмоний шахсларни солиққа тортиш тизимидаги яна бир муаммолардан бири бир хил даромадга эга бўлган солиқ тўловчи жисмоний шахсларга нисбатан бир хил ёндошувдаги солиқ режимининг амал қилмаслигини ифодаловчи горизонтал тенгсизликнинг мавжудлигидир. Хусусан, солиқ тизими даромад даражаси бир хил бўлган солиқ тўловчилар категорияси учун мувозанатли солиқ юкини таъминлаши зарур. Бундан ташқари фаолиятининг алоҳида турларига қараб солиқ ставкаларини табақалаштирилиши вертикал тенгсизлик муаммоларини келтириб чиқаради. Масалан, амалдаги Солиқ Кодексига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Резидентлари бўлган жисмоний шахсларнинг даромадларига 12 фоизлик солиқ ставкаси бўйича солиқ солиниши белгиланган<sup>96</sup>. Шу билан бир қаторда дивидендлар ва солиқ тарзидаги даромадларга 5 фоизлик ставка бўйича солиқ солиниши белгиланган. Демак, акциядорлик жамиятида ишловчи ва маълум даражада акциядор ҳисобланган солиқ тўловчи учун даромадни дивиденд шаклида олиш маълум фискал афзалликларни вужудга келтиради. Гарчи ушбу солиқ ставкаларига асосланган солиққа тортиш режими молиявий тадбиркорлик фаолиятини рағбатлантириш учун иштиёқни рағбатлантирса-да, бизнинг фикримизча дивидендлар бўйича олиннадиган даромадларга ҳам солиқ ставкасини бир хил яъни 12 фоиз даражада белгиланиши мақсадга мувофиқдир.

Шунингдек, турли даражадаги даромадларга эга бўлган солиқ тўловчи жисмоний шахсларга нисбатан бир хил солиқ режимининг амал қилиши натижасида эса вертикал тенгсизликнинг вужудга келишини кузатишимиз мумкин (1-расм).



1-расм. Солиққа тортиш соҳасида тенглик мезонлари<sup>97</sup>.

<sup>91</sup> Saez, E. 2020. Striking it Richer: The Evolution of Top Incomes in the United States (Updated with 2018 estimates). Retrieved: March 25th, 2020. From: [eml.berkeley.edu/~saez/saez-USTopIncomes-2018.pdf](https://eml.berkeley.edu/~saez/saez-USTopIncomes-2018.pdf).

<sup>92</sup> Piketty, T., and Goldhammer, A. 2015. The Economics of Inequality. Cambridge, Massachusetts; London, England: Harvard University Press. Retrieved May 16, 2020, from [www.jstor.org/stable/j.ctvjnjk](https://www.jstor.org/stable/j.ctvjnjk).

<sup>93</sup> Alesina, A. and Rodrik, D. 1994. Distributive politics and economic growth. Quarterly Journal of Economics, 109, 2, pp. 465-90.; Perotti, R. 1996. Growth, Income Distribution, and Democracy: What the Data Say. Journal of Economic Growth, 1(2), 149-187. Retrieved April 15, 2020, from: [www.jstor.org/stable/40215914](https://www.jstor.org/stable/40215914).

<sup>94</sup> Acemoglu, D. 2007. An Introduction to Modern Economic Growth. Journal of Economic Theory, Elsevier, vol. 147(2), pages 545-550.; Acemoglu, D., Ticchi, D., & Vindigni, A. 2011. Emergence and persistence of inefficient states. Journal of the European Economic Association, 9(2), 177-208.

<sup>95</sup> Агзамов А. Т. Жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш / Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2019 й.


<sup>96</sup> Қаранг <https://lex.uz/docs/4674902>

<sup>97</sup> Вохид Уринов “Солиқ юки: даромадлар тенг, аммо...” // “XXI asr” ижтимоий-сиёсий газетаси, 2018 йил 24 май, 21 (759)

Амалдаги даромадни солиққа тортиш тизими текис шкаладаги солиқ ставкаларига асосланиб, ушбу солиққа тортиш тизими даромадларнинг маржинал нафлилик мезонларига жавоб бермайди. Бу борада, шунга алоҳида таъкидлаш жоизки, 1 млн. сўм даромаднинг нафлилиги ушбу даромадни тасарруф қилувчи индивидларнинг даромадлилик даражасига боғлиқлигини таъкидлаб ўтиш жоиздир. Масалан, бой қатлам

аҳоли учун 1 млн. сўм даромаднинг нафлилиги, камбағал индивидлардан паст даражада бўлади.

Даромаднинг ортиб бориши унинг умумий нафлилигини (TU) орттурса-да, маржинал нафлиликнинг (MU) тушиб боришини таъминлайди.



2-расм. Аҳоли даромадлиги ва унинг ўзгаришининг даромадлар умумий ва маржинал нафлилигини ўзгаришига таъсири.

2-расмдан кўриниб турганидек, жамиятдаги шакллантирилган даромадлар қанчалик мувозанатли тақсимланса, биринчи навбатда даромадлар даражаси деградацияси бўйича тафовутни қисқариши орқали аҳоли ижтимоий қалами ўртасида маржинал ва умумий нафлилик даражаси тақсимланишини мувозанатлаштириш имкониятларига эга бўлинади. Жамиятдаги неъматлар қанчалик адолатли тақсимланиш даражаси, ижтимоий фаровонликни шаклланишига таъсир этади.


Аҳоли даромадлари даражасининг маълум стационар нуқтасидаги ( $I_{n-1}$ ) интервалда даромадларнинг умумий нафлилиги (TU(I)) маржинал нафлиликдан (MU(I)) кичик бўлади. Бунда даромаднинг иқтисодий ёки ижтимоий қадр қиммати ўта юқори бўлиб, ушбу интервалдаги даромадлилик асосан кам таъминланган аҳоли қатлами учун хосдир. Даромадларнинг умумий нафлилиги (TU(I)) маржинал нафлиликдан (MU(I)) катта бўлган интервал ( $I_{n+1}$ ) стационар нуқтада таъминланиб, ушбу интервалдаги даромадлар аҳолининг бой ижтимоий қатламга мансубдир. Муболаға тарзида айтганда 50 млн. сўм ойлик маош олиб ишлаётган индивидга нисбатан 5 млн. сўм ойлик олиб ишлаётган индивид учун 1 млн. сўмнинг қадр қиммати ўта юқоридир.

2. Аҳоли даромадларини текис шкаладаги солиққа тортиш тизими истеъмол таркиби ва жамғариш нормасига макроиқтисодий барқарорликни таъминлаш нуқтаи-назардан позитив таъсир этса-да, аҳоли ижтимоий қатламлари ўртасидаги даромадлар тенгсизлигини кучайтириш risksини вужудга келтиради.

Жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортиш тизимининг 3 асосий шаклланган модели мавжуд бўлиб, Ўзбекистон амалиётида прогрессив солиққа тортиш тизимдан текис солиққа тортиш тизимига ёки пропорционал солиққа тортиш тизими амал қилмоқда. Ушбу солиққа тортиш амалиётига ўтишдан мақсад аввало, солиқ маъмурчилигини такомиллаштириш, солиқ юкини қисқартириш орқали аҳолининг шахсий тасарруфидаги даромадларини ошириш, норасмий даромалларини легаллаштириш орқали солиқ базасини ошириш ҳисобига бюджетга тушумларни кўпайтириш ҳисобланади.

Лекин текис шкалага асосланган даромадларни солиққа тортиш тизими иш ҳақи ва бошқа даромад манбалари бўйича аҳоли даромадлари даражаси бўйича тафовут мавжудлиги шароитида даромадларни тартибга солиш ва уларни мувозанатлаштириш нуқтаи назардан прогрессив солиққа тортиш тизимига нисбатан самарасиз ҳисобланади.

Прогрессив солиқ ставкалари кесимида даромадларнинг қуйи интерваллари бўйича солиқ тўловчилар сонининг юқори салмоқи назарда тутилиб, текис шкалага ўтиш шароитида (амалдаги солиққа тортиш тизими) белгиланган 12 фоизлик солиқ ставкаси паст даражада эга аҳоли қатлами учун солиқ юкининг ортишини бўйича хулосалар тизимлаштирилган. Ҳақиқатда минимал иш ҳақи кесимидаги даромадлар интервали бўйича солиқ тўловчилар жами солиқ тўловчилар таркибида асосий салмоқни ташкил қилишини ХВЖ экспертлари ҳам тасдиқлашган. Қуйидаги 3-расмдан ҳам кўриш мумкинки, 2018 йилда 1-3 минимал иш ҳақи интервалидаги даромадлар жами аҳоли даромадларининг қарийиб 18 фоизини ташкил қилиб, 3-4 минимал иш ҳақидаги даромадлар билан қўшиб ҳисобланганда жами даромадларнинг қарийиб 25 фоизини ташкил қилаётганлигини кўришимиз мумкин.



**3-расм. Жами аҳоли даромадларида минимал иш ҳақи интервалидаги даромадлар ва солиқ тўловчиларнинг тақсимланиш улуши чизмаси<sup>98</sup>.**

Текис шкалага асосланган солиққа тортиш тизими шароитида даромадлар интервалидаги солиқ юкининг солиштирма таҳлиллари шуни тасдиқлайдики, кам даромад олувчи аҳоли қатлами ва юқори даромад олувчи аҳоли учун солиқ юкининг нисбатан тенг тақсимланиши кузатилади. Таҳлилар кўрсатмоқдаки, даромаднинг 8-9 минимал иш ҳақи интервалида прогрессив ва текис шкаладаги солиқ юкининг нисбатан тенглашуви кузатилади. Бошқача айтганда текис солиққа тортиш

тизимини жорий қилиниши натижасида марказий ставкани 12 фоиз қилиб белгиланиши паст даражада даромад олувчи аҳоли зиммасидаги солиқ юкининг ортишига ва юқори даромад олувчи аҳоли зиммасидаги солиқ юкининг пасайиши таъминлайди. Демак, юқоридаги ҳолатда даромадларнинг турли даражаларида солиқ юкининг нисбатан тенг тақсимланиши ҳисобига даромадлар ўртасида тафовутнинг кучайишига солиқ тизимининг таъсирини вужудга келтиради.

Буни кейинги йилларда аҳоли даромадлари ва уларни турли гуруҳлари бўйича тақсимланишига оид навбатдаги статистик маълумотларда кўришимиз мумкин.

**1-жадвал**

**Ўзбекистон Республикаси аҳолиси даромадларини аҳолининг 20 фоизли гуруҳлари бўйича нотекис тақсимланиши<sup>99</sup>**

Квинтил гуруҳлари	2017	2018	2019	2020	2021
I	9,3	9,3	9,1	8,5	8,4
II	13,6	13,6	13,6	13,3	13,4
III	17,3	17,2	17,4	17,2	17,5
IV	21,8	22,0	22,6	22,6	23,0
V	37,9	37,8	37,3	38,3	37,6
Аҳоли даромадларининг квинтил гуруҳлари бўйича табақаланиш коэффициенти	<b>4,075</b>	<b>4,065</b>	<b>4,099</b>	<b>4,506</b>	<b>4,476</b>

1-жадвал маълумотларидан кўришимиз мумкинки, 2019 йилдан текис шкалага асосланган жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортиш тизимини жорий қилиниши билан параллел равишда аҳоли даромадларининг квинтил гуруҳлари бўйича табақаланиш коэффициенти 2020 йилда 4,506, 2021 йилда эса 4,476 ни ташкил қилиб, 2017-2019 йилларга

нисбатан юқори кўрсаткични ташкил қилмоқда. Демак, аҳоли даромадлари ўртасида табақаланиш даражаси юқори бўлмоқда.

Буни аҳолининг 10 фоизлик гуруҳи бўйича даромадларини туркумлаш орқали аҳоли даромадлилик кўрсаткични солиштирма таҳлилларидан ҳам кўришимиз мумкин.

Дециль гуруҳлари	2017	2018	2019	2020	2021
I дециль	3,9	3,9	3,7	3,4	3,3
II дециль	5,5	5,4	5,3	5,1	5,1
III дециль	6,4	6,4	6,4	6,2	6,2
IV дециль	7,2	7,3	7,3	7,1	7,2
V дециль	8,1	8,1	8,2	8,1	8,2
VI дециль	9,1	9,1	9,2	9,1	9,3
VII дециль	10,2	10,3	10,5	10,5	10,6
VIII дециль	11,6	11,7	12,1	12,1	12,5
IX дециль	13,9	14,1	14,7	14,8	15,2
X дециль	24,1	23,7	22,6	23,5	22,5
Аҳоли даромадларини дециль гуруҳлари бўйича табақаланиш коэффициенти	<b>6,2</b>	<b>6,1</b>	<b>6,0</b>	<b>6,9</b>	<b>6,8</b>

**2-жадвал**

**Ўзбекистон Республикаси аҳолиси даромадларини аҳолининг 10 фоизли гуруҳлари бўйича нотекис тақсимланиши<sup>100</sup>**

2-жадвал маълумотларидан ҳам кўриш мумкинки, аҳоли даромадларининг дециль гуруҳлари бўйича табақаланиш коэффициенти 2017 йилда 6,2 ни ташкил қилган бўлса, ушбу кўрсаткич 2021 йилга келиб 6,8 ни ташкил қилмоқда.

Гарчи аҳоли даромадлари даражаси уларнинг истемол ва жамғариш иштиёқларига таъсир этиб, даромадлилик

даражасининг ортиб бориши жамғариш орқали инвестицион фаолиятга чегаравий мойилликнинг ортишига ҳам таъсир этади. Демак, табиий равишда солиқлар аҳоли даромадларининг номинал қийматига этаъсир этибгина қолмасдан, унинг реал қиймати орқали ифодаланган харид қобилияти паритетига таъсир этиш орқали уй хўжалиklarининг истемол ва жамғариш

<sup>98</sup> Геертен Михиелсе, Рассел Крелов, Нарине Нерсесян и Жан-Франсуа Уен. Ўзбекистан: Обзор налоговой системы Доклад по технической помощи. 2018 г. Апрель.-27 с. // Fiscal Affairs Department International Monetary Fund 700 19th Street NW Washington, DC 20431 USA \* <http://www.imf.org/capacitydevelopment>).

<sup>99</sup> ЎзРДСК расмий сайти маълумотлари ([www.stat.uz](http://www.stat.uz))

<sup>100</sup> ЎзРДСК расмий сайти маълумотлари ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)).



нормасига ҳам таъсир этади. Бу ўз навбатида солиқ тизими орқали уй хўжалиklarининг истеъмол ва жамғариш меъёрларига таъсир этиш орқали мамлакат иқтисодиётини жорий ва

итиқболда ривожланишини тартибга солиш имкониятларини ҳам яратади.

### 3-жадвал

#### Текис шкала ва прогрессив солиққа тортиш тизимининг аҳоли истемол ва жамғариш фондларига таъсирининг солиштирма таҳлили<sup>101</sup>

Шкала турлари	ЖШОДС муқобил вариантлари				Текис шкала (2021 йилги статистика)			
	Прогрессив (2018 йилги маълумотлар асосидаги статистика)							
Даромад интервали	1 МИҲ	5 МИҲ гача	10 МИҲ гача	10 МИҲ дан юқори	1 МИҲ	5 МИҲ гача	10 МИҲ гача	10 МИҲ дан юқори
Ставкалар, %	0	7,5	16,5	22,5	12			
Жами тўланган солиқдаги даромад интервали улуши, % да	-	38,7	41,9	18,4	17,6	42,8	23,1	16,3
Ўртача маржинал ставка, %да	9,6				12			
Солиқи тўлангандан кейинги шахсий тасарруфдаги даромадни сарфланиши бўйича аҳоли харажатларининг таркиби, фоизда								
Истемол, (С)	100	100	68,91	64,81	100	100	61,32	43,64
Жамғариш (S)	-	-	21,86	19,37	-	-	12,37	14,51
Инвестициялар (I)	-	-	9,23	15,82	-	-	26,31	41,85
Даромад солиғини текис шкаласини жорий қилишни аҳоли истемол ва жамғариш фондлари нисбатига таъсири								
Истемол, (С)					-	-	-7,59	-21,17
Жамғариш (S)					-	-	-9,49	-4,86
Инвестициялар (I)					-	-	+17,08	+26,03

3-жадвалдан кўриш мумкин, 2018 йилгача бўлган солиққа тортиш тизимида (прогрессив) даромад интервали кесимидаги солиқ ставкалари асосида жами ҳисобланган солиқ суммасига нисбатан ҳисобланадиган маржинал солиқ ставкаси 9,6 фоизни ташкил қилган. Текис шкалага асосланган солиққа тортиш тизимида эса 12 фоизлик ставкада солиққа тортиш тизими амал қилиб, биринчи (1 МИҲ) ва иккинчи (5 МИҲгача) интервалдаги даромадлар асосан истеъмол эҳтиёжларни сарфлаш учун истеъмол бюджетини шакллантиришга сарфланиб ҳар иккала солиққа тортиш тизимида ҳам ўзгармайди. Учинчи ва тўртинчи интервал бўйича шаклланадиган шахсий тасарруфидаги даромадлар истеъмол ва жамғариш нисбатларида ўзгариш кузатилиб, жамғаришнинг мақсадли йўналишини ўзида мужассамлаштирувчи инвестицион иштиёқнинг (+17,08; +26,03) ортиб борганлигини кўришимиз мумкин.

**5. Хулоса ва таклифлар.** Юқоридаги ҳолатлар даромад солиғи бўйича қуйидаги хулосаларни тизимлаштириш мумкин:

Биринчидан, жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бюджет даромадларини шакллантиришда асосий фискал фактор ролини ўйновчи солиқ ҳисобланиб, аҳоли даромадларига ҳам юқори даражада таъсир этувчи солиқ ҳисобланади.

Иккинчидан, ушбу солиқ бўйича амалга оширилган прогрессив солиққа тортиш тизимидан текис шкалага асосланган солиққа тортиш тизимига ўтилиши умумий контекстда солиқ юқини пасайтиришга имконият яратиши зарур бўлса-да, даромад интервали бўйича паст даромадга эга аҳоли учун нисбатан юқори

солиқ юқини таъминламоқда. Юқори даромад интервалидаги даромад олувчи аҳоли қатлами учун эса солиқ юқининг қисқариши кузатилмоқда. Ушбу ҳолатлар жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи макро кўламда аҳолининг истеъмол харажатларига солиқ тизимининг таъсирини кучайишига олиб келган.

Учинчидан, макроиқтисодий тартибга солиш тизимининг асосий инструментларидан бири бўлган амалдаги жисмоний шахслар даромадларини солиққа тортиш тизими солиққа тортиш мамлакатда яратилган аҳоли даромадларини жамғармалар сифатида тўпланиши ва инвестицион феоликни рағбатлантириш хусусиятига эгадир.

Тўртинчидан, жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи бўйича даромад олувчи аҳолининг истеъмол харажатларини яхшилаш, улар зиммасидаги солиқ юқини пасайтириш ва пировард натижада даромадларни солиққа тортишда ижтимоий адолатлилик тамойилига риоя қилиш мақсадида солиққа тортилмайдиган минимумни жорий қилиш мақсадга мувофиқ.

Демак, умумий хулоса сифатида таъкидлаш жоизки, аҳоли даромадларини солиқлар воситасида тартибга солиш сиёсати, улар шахсий тасарруфидаги даромадларнинг оптимал ижтимоий нафлилиги шароитида  $(MU(I)) = TU(I)$  даромадларнинг табақалашувини олдини олиш, мувозанатлаштириш вазифасини бажариши зарур.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Маршалл А. Принципы экономической науки: в 3 т.-М.: Инфра-М., 1993.-217 с.
2. Агзамов А. Т. Жисмоний шахсларни солиққа тортиш амалиётини такомиллаштириш / Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент 2019 й.
3. De Vogli, R., R. Mistry, R. Gnesotto, and G.A. Cornia. 2005. "Has the relation between income inequality and life expectancy disappeared? Evidence from Italy and top industrialized countries." J Epidemiology and Community Health 59(2): 158-162.

4. Dorling, D., R. Mitchell, and J. Pearce. 2007. "The global impact of income inequality on health by age: an observational study." BMJ 335(7625): 873-

5. Хожиев Ж.Д. Аҳолининг реал даромадлари бўйича фарқланиш даражасини камайтириш механизми.

6. Гришанова И. А. Эконометрический анализ влияния социально-экономических факторов на среднемесячную заработную плату населения России. [https://elibrary.ru/download/elibrary\\_36709838\\_9549115](https://elibrary.ru/download/elibrary_36709838_9549115).

<sup>101</sup> ЎзРДСҚ маълумотлари асосида муаллиф томонидан шакллантирилган.

7. Тохтарова В.С. Дифференциация доходов населения: проблемы и факторы // Вестник Хмельницкого национального университета. 2011. № 6. С. 216–220.
8. Чернов С.Б., Захарова А.В. Налог на доходы физических лиц как инструмент государственного регулирования экономики: российский и международный опыт. Экономические науки •2020•№11(192). <https://ecsn.ru>.
9. Шевяков А.Ю., Кирута А.Я. Неравенство, экономический рост и демография: неисследованные взаимосвязи. М.: М-Студио, 2009. 192с.
10. Кирута А.Я. Влияние неравенства на качество человеческого потенциала в России //Вестник Института социологии. 2011. № 3.С. 73–84.
11. Малкина М.Ю. Институциональные основы неравенства доходов в современной экономике // Journal of Institutional Studies (Журнал институциональных исследований). 2016. № 1(8). С. 100–120.
12. Овчарова Л.Н., Попова Д.О., Рудберг А.М. Декомпозиция факторов неравенства доходов в современной России // Журнал Новой экономической ассоциации. 2016. № 3(31). С. 170–186.
13. Лаптева Е. В., Огородникова Е. П., Портнова Л.В. Оценка факторов, влияющих на денежные доходы российского населения. Электронный научный журнал «Век качества» ISSN 2500-1841 <http://www.agequal.ru>.
14. Карпучно И.А., Гучмазова Д.А.2021. Эконометрическая модель выявления факторов дифференциации доходов населения. <https://elibrary.ru/item.asp?id=46618512>.



## PEYZAJNING IJTIMOYIY - PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O'RNI

Jumanova Shahnoza Ikromjonovna  
Qo'qon universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil  
**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil  
**Jurnal soni:** 1  
**Maqola raqami:** 22  
**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.259>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada peyzajning badiiy adabiyotdagi vazifalari, jumladan ijtimoiy-psixologik motivni anglatishdagi o'rne, ijtimoiy voqelik ham tabiat tasviri vositasida aks etishi, shoirning ichki kechinmalari tabiat unsurlarining obrazga aylanishi orqali namoyon bo'lish holatlari Rauf Parfi, SHavkat Rahmaon, Usmon Azim kabi shoirlarning ijod na'munalari misolida yoritib berilgan.

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

Peyzaj lirikasi, detal, psixologik motiv, jarayon, janrlar, peyzaj unsurlari, an'ana, ramz, obraz, poetik tafsil, poetik ramz

**Kirish.** Peyzaj atamasi Yevropa adabiyotida "landshaft" istilohi sifatida ham qo'llaniladi. Bu termin asosan tasviriy san'atda ishlatilishi ba'zi tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Lekin tasviriy san'atdagi peyzaj vizual tasvirga, adabiyotdagi peyzaj so'zga asoslanishi bilan farqlanadi. Peyzaj she'riyatida shartli besh ko'rinish tasnif etiladi. Unga ko'ra, tabiat obrazlarini jonlantirish (insoniyashtirish) orqali amalga oshiriladigan psixologik tasvirda shoir-lirik qahramon insonga xos bo'lgan xususiyatlarni tabiat hodisalari, jonli hayvonlar, o'simlik va shu kabilarga singdirib borish hamda ularni jonlantirish bilan kechinmani tasvirlaydi. Ikkinchi, tabiat bilan bog'liq poetik tafsillar (detallar) vositasida amalga oshiriluvchi ko'rinishida shoirning maqsad-e'tibori o'z qahramonining ichki ruhiy olami va tashqi olamini ochib berishga qaratiladi. "Lirik qahramonning hislat-fazilatlarini tabiat bilan bog'liq poetik detallar orqali yaxlit manzarani vujudga keltiradi. Ko'ngil kechinmalarini konkret tabiiy holat va vaziyatda aks ettirish orqali esa ikki yo'nalish-tabiat fasllari va tabiiy holat e'tiborga olinadi hamda lirik qahramonning ruhiy holati o'sha tabiiy vaziyatlarga hamohang tarzda real tasvirlanadi".<sup>102</sup> Ruhiiy parallelizm vositasida shoir ko'ngil olamining haroratli kechinmalarini tabiat bilan yonmayon qo'yib tasvirlaydi. Aslida hamma vaqt ham peyzaj lirikasida inson va tabiat parallel tarzda tasvirlanadi. She'riy san'atlar vositasida lirik qahramonning kechinmalarini ta'sirchanlik bilan tasvirlanadi. Bu shoirga fikrining kuchli va hissiyot bilan tasvirlashiga imkon yaratadi. Bu ko'rinishlarning barchasi umumlashib, tasvirda psixologik portret yaratishga imkon tug'diradi. "Lirik asarlarda janr qaydi nisbatan kam uchraydi. Janr qayd etilgan she'rlarga e'tibor qilinsa, ularda qaysidir ma'nodagi odatdan tashqarilik borligini ko'rish qiyin emas. Deylik, milliy she'riyatimiz uchun noodatij janrda yozilgan she'rlar sarlavhasi ostida elegiya, epitafiya, epigramma, rondo, rondel, xokku, tanka kabi qaydlarni ko'p uchratamiz. Ba'zan esa she'r janrini manzara (peyzaj), noktyurn, natyurmort, triptix, avtoportret kabi rassomlik san'ati janrlari nomi bilan qayd etadilar".<sup>103</sup>

**Adabiyotlar tahlili.** "Adabiy atamalar va tushunchalar ensiklopediyasi"da peyzajga quyidagicha ta'rif berilgan: "Peyzaj – odamning o'zini o'rab turgan tabiiy muhiti va har qanday ochiq maydonning tasviridir".<sup>104</sup> O'zbek tilidagi adabiyot nazariyasiga oid darslik va qo'llanmalarda esa jumladan, Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" kitobida "Badiiy asardagi tabiat tasviri peyzaj (manzara) deb ataladi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, asarning g'oyaviy-estetik quvvatini oshiradi",<sup>105</sup> deya ta'rif berilgan bo'lsa, "Adabiyotshunoslik lug'ati"da yuqoridagi ta'riflarga monand fikrlar bilan birga peyzajning statik, dinamik ko'rinishlari, shuningdek, ayrim funksiyalari haqida so'z boradi.<sup>106</sup> Peyzaj lirikasining mazmun

mohiyati va maqsad-vazifalari haqida esa: "Peyzaj lirikasida tasvirlangan tabiat manzarasida lirik sub'ekt qalbi suratlanadi. Lirik sub'ekt qalbidan o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi. Shu ma'noda peyzaj lirikasida tabiatni tasvirlash maqsad emas, balki bir vositadir... Ko'p hollarda she'rda tasvirlangan manzara ramziy obrazga aylanadi. Va mavjudlikning mangu muammolari ijtimoiy hayot, inson fe'l-atvori, hayotning mazmuni va shakllar mohiyatini obrazli tarzda ochib berishga qaratiladi",<sup>107</sup> deb yozilgan.

Adabiyotshunos Sebinaga ko'ra peyzaj harakat joyi va vaqtini belgilaydi, syujet motivasiyasi vazifasini bajaradi, psixologizmni yaratish va muallifning sub'ektiv rejasining namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.<sup>108</sup> M.Sultonova esa "Peyzaj san'ati" kitobida asosan peyzajning voqelar kechadigan makon va qahramon ruhiy olamini ko'rsatish kabi ikki vazifasini Oybekning "Navoiy", O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" va P.Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanlari misolida yoritadi.<sup>109</sup>

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda biografik, qiyosiy metoddan foydalanildi. Biografik metod badiiy asarni muallifining hayot yo'li kontekstida o'rganishni nazarda tutadi. Badiiy asarda ijodkor shaxsiyati akslangani bois undagi qator o'rinlar muallif biografiyasi kontekstida yorqinroq anglashiladi. Shunga ko'ra biografik metod asarga muallif tomonidan yuklatilgan mazmunni anglashda etakchi ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy metod badiiy asarni boshqa asar(lar) bilan qiyosan tahlil qilishni tutadi. Qiyoslash ob'ekti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

**Tadqiqot natijalari va muhokama.** Mumtoz adabiyotda peyzaj unsurlari oshiq holi va yor go'zalligining tashbehiga xizmat qilgan bo'lsa, XX asrga kelib, o'zbek she'riyatidagi peyzajning bu funksiyasi o'zgardi. Endilikda tabiat tasviri ijtimoiy-psixologik motivni anglatishda ko'maklashuvchi vositaga aylandi. Lekin sof tabiat lirikasi ham unutilgani yo'q. Ayniqsa, Oybek she'riyati sof peyzaj lirikasiga dalil bo'la oladi. Cho'lponda ham to'laligicha tabiat manzarasiga bag'ishlangan she'rlar ko'pchilikni tashkil etadi. Cho'lponning she'riyatda tutgan o'rni haqida Oybek shunday yozadi: "Cho'lpon yangi adabiyotda yangi narsalar yaratdi. Muvashshah adabiyoti o'rniga bu kunning badiiy zavqiga yarasha, yoqimli, go'zal she'rlar o'rtaga chiqardi. Bugungi yosh nasl uning sodda tilini, totli uslubini, texnikasini ko'p sanadi. Undan ko'p go'zalliklar oladi..."<sup>110</sup>

Ko'z oldimdan oqib yotgan Zarafshon,  
Yosh boladek erkalaydir, o'ynaydir;  
Hovliqma ham bo'lsa o'zi ko'p chaqqon,  
Uncha-muncha to'siqlarni qo'ymaydur.<sup>111</sup>

<sup>102</sup> Литературная энциклопедия терминов и понятий. 2001 – Москва: НПЦ "Интелвак", – С.732.

<sup>103</sup> Дилмурод Куронов . 2018. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademyashr., – Б. 41.

<sup>104</sup> Литературная энциклопедия терминов и понятий. 2001 – Москва: НПЦ "Интелвак", – С.732.

<sup>105</sup> Izzat Sul'ton . 2005. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O'qituvchi, –B. 116.

<sup>106</sup> Dilmurod Quronov . Mamajonov M, Sheralieva M. 2010. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyashr., –B. 220.

<sup>107</sup> O'sha manba. – B. 221.

<sup>108</sup> Фейсенко.Э.Я. 2008. Теория литературы. – Москва: Мир, – С.17.

<sup>109</sup> Султонова М. 1983. Пеизаж санъати. – Тошкент: Фан.

<sup>110</sup> Ойбек. 2004. Чўлпон. Шоирни қандай текшириш керак? Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси, –Б. 35.

<sup>111</sup> Чўлпон. 1994. Асарлар. 1 жилд. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, –Б. 5.

Cho'lonning ushbu "Zarafshon" nomli she'riga "safar kundaligi" jumlasini sarlavha ostiga tirkab qo'yilgan, bundan ko'rinadiki, shoir o'zi kezzgan Zarafshon bo'ylarining manzarasini tasvirlaydi. She'r boshdan-oyoq Zarafshon tasviriga bag'ishlangan.

"Kuz" nomli she'rida Sharqqa kuz faslining kirib kelishi tasvirlanadi.

Qora bulut to'dasikim, ko'klarni  
Sharqni yopgan parda yanglig' yopmishdir;  
Kuz qo'shini og'u to'lig' o'qlarni  
Yoz bag'riga hech sanoqsiz otmishdir.<sup>112</sup>

Cho'lonning "Buzilgan o'lkaga" ("Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlarining bosilgan, Ustlarida na pada bor, na yilqi", "salqin suvlar tog'dan quyi tusharkan, tomchilari yomg'ir kabi ucharkan")<sup>113</sup>, "Binafsha" ("Binafsha, nimaga hidlarining sochilmay, Yerlarga egilding, cho'zilding?")<sup>114</sup>, "Yong'in" ("Tabiatning butun yomon tomoni Shu o'lkaga faqat jilva qildimi?", "Podalarning yaylovida bo'rilar, Qonga to'ygach, uvlaylarni ko'plashib")<sup>115</sup>, "Suygan choqlarda" ("Gunafshalar qulog'imga madhingni So'zlab-so'zlab charchadilar, bitmadi", "Yo'llaringda shitir etsa so'lgan barg, Qulog'imga musiqalar keltirur")<sup>116</sup>, "Ko'klam qayg'isi" ("Bir oz... bir oz ko'ngil beray ko'klamda, Shaftolining go'zal, qizil yuziga", "Qarshimdagi kulib turgan yumshoq qiz ko'm-ko'k mayssa o'rtasida bir guldir")<sup>117</sup>, "Yana qor" ("Bir faqat qarq'alar qor ustida Qag'lashib qish boboyni olqaylar", "Yana qish... Qor – kafan yopildi yana, Qarg'aga to'y... o'yin topildi yana"), "Oppoq oy" (Hovuz yuzi ikki qarich muz bo'lgan, Yosh bolalar tiyg'anishib o'ynaylar")<sup>118</sup> kabi she'rlarida peyzajning go'zal namunalari ko'rishimiz mumkin.

Cho'lonning keyin Oybek va Hamid Olimjon she'riyatida ham tabiat tasvirlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Sirli sen, chayqal, ey go'zal dilbar,  
Sho'x va o'ynoq qiz albomi yanglig'.  
Ko'kragingda hayot degan oshiq,  
Ko'p asr sayragan va to'kkan zar.<sup>119</sup>

Hamid Olimjonning "Neva xotiralari" nomli she'rida Neva manzaralarini tasvirlar ekan, Nevaning "shonli Avroradan nur emib, har tomon qon, bo'ronlar esgan bo'lsa ham, yana tovus kabi qanot yozganini" ta'riflaydi. Neva daryosini "sevikli, sho'x, o'ynoqi qiz"ga o'xshatib, "bu tabiatda bir chevar shoir har nafas yuzlariga kashta tikishi"ni to'qinlanib bayon etadi. Hamid Olimjon she'rlarida O'zbekistonning so'lim tabiati nozik va inja tuyg'ular bilan hamohang tasvirlanadi. Ayniqsa, "O'zbekiston" she'rida mamlakat tabiati bor go'zalligi bilan namoyon bo'ladi. Shoir ohorli o'xshatishlar bilan yurt tabiatining betakror manzaralarini yoniq tarzda tasvirlaydi.

Tog'lardagi qip-qizil lola,  
Bo'lib go'yo yoqut piyola,  
Buloqlardan uzatadi suv  
El ko'zidan qochadi uyqu.<sup>120</sup>

60-70 yillar she'riyatida peyzaj ijtimoiylik kasb etgan bo'lsa-da, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Rauf Parfi she'riyatida sof peyzaj lirikasi aks etdi.

Minglab tilda madhingni so'zlar  
Bunda o'sgan har bitta daraxt.  
Nur emadi millionlab ko'zlar  
Ko'kdan sening husningga qarab.<sup>121</sup>

Erkin Vohidovning "O'lka" nomli she'rida o'lkaning tabiati: bog'lar, daraxtlar; koinot: oy, yulduz peyzajlari orqali tasvirlangan. Shoirning so'zlarni zargarona ishlatish mahoratini ko'rishimiz mumkin. Erkin Vohidov ijodida bahor, tong va cho'qqi peyzaji ko'p hollarda birga keladi va ajib manzarani hosil qiladi. Quyidagi she'rdan ushbu uch peyzaj unsurining birgalikda kelganini ko'rishimiz mumkin:

Kun tog' o'rkachiga tirmashar asta,  
Novvot qoyalarda yaltiraydi qor.  
Yuksak cho'qqilardan boshlangan bahor  
Shalolalar bilan intillar pastga.  
To'shab sohillarga jilvakor gilam  
Daryo bo'lib oqar Amu, Siriga.  
Bahor o'lkasining qon tomiriga  
Sharqirab kiradi fusunkor ko'klam.<sup>122</sup>

Abdulla Oripov ijodida "bahor", "adir", "dasht", "osmon", "tog'", "kuz", "bog'", "yulduz", "tong" kabi peyzajlar ko'p uchraydi. Shoir "tong", "bahor" peyzajlarini umid, yangilanish, najot ma'nosida qo'llasa, "adir", "tuproq", "dasht" peyzajlari orqali vatan suratini chizmoqchi bo'ladi.

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,  
Topay dedim qirdan izingni.  
Yanog'ingdan rang olgan dedim –  
Lolazorga burdim yuzimni,  
Uchratmadim ammo o'zingni,  
– Sen bahorni sog'inmadingmi?<sup>123</sup>

Ushbu she'r peyzaj lirikasining go'zal namunasi bo'lib, bahor sog'inchi, yangilanishga tashna insonning umidbaxsh kayfiyati ifodalangan. "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'rida "bahor", "bog'", "qir", "lolazor", "tog'", "o'ngir", "qorlik", "dara", "suv" peyzajlari qo'llangan.

Tuman tushayotir qirlarga sokin,  
Do'rmon bog'larida billur qahraton.  
Majnuntol uvatda horg'in olar tin,  
Oppoq sochlarini yoygan parishon.  
Nogoh uyqu ichra qarsillar eman,  
Atrofta sukutning horg'in nafasi.  
Balki, dalalarga cho'kkan bu tuman,  
Yiroq yulduzlarning sirli sharpasi.<sup>124</sup>

She'rdan "tuman", "bog'", "qahraton", "uvat", "dala", "yulduz" peyzajlari orqali qish manzarasi tasvirlangan. Tabiat qish hukmiga bo'ysungan, hamma tin olayotgan, sukut bosgan zaminga tuman aralash tun tushib kelmoqda. She'rdan ortiqcha timsollar, ramzlar yo'q. Shoir o'zi ko'rgan qish manzarasini qalamga olgan va sakkiz qatorlik manzarada poetik taranglik ushlangan. Umuman olganda, XX asr she'riyatida Abdulla Oripov peyzajning eng go'zal namunalari yaratgan shoirlardan biri, desak yangilishmagan bo'lamiz.

70-yillar ijodini kuzatganimizda tabiat vositalaridan hosil qilingan obrazlar she'rdan she'rga ko'chib yurishiga guvoh bo'lamiz. Masalan, Usmon Azim ijodida "kuz", "bog'", "tog'", "dasht" kabi obrazlarni tez-tez uchratamiz. Shavkat Rahmon ijodida ham "tog'", "soy", "o'rmon", "oy" kabi obrazlar takroran keluvchi obrazlar hisoblanadi.

Shavkat Rahmon "Unutganim yo'qdir hali" she'rida tug'ilib o'sgan qishlog'i manzarasini chizar ekan, ayni paytda bolalik, yurt sog'inchi bilan yashayotgan insonning lirik qiyofasini tabiat unsurlari bilan parallel tasvirlaydi.

Unutganim yo'qdir hali  
O'rikzorni, asov soyni.  
Soy bo'yida ovloq, holi  
Baqaterak o'sgan joyni  
Unutmadim hali-hali  
Muzdakkina zilol suvni,  
Tol tagida shom mahali  
Unutilgan ikki quvni.<sup>125</sup>

<sup>112</sup>O'sha manba. - B. 17.

<sup>113</sup>O'sha manba. - B. 33.

<sup>114</sup>O'sha manba. - B. 43.

<sup>115</sup>O'sha manba. - B. 36.

<sup>116</sup>Чулпон. 1994. Асарлар. 1 жилд. Шерлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, –Б. 3.

<sup>117</sup>O'sha manba. - B. 42.

<sup>118</sup>Чулпон. 1994. Асарлар. 1 жилд. Шерлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, –Б. 53-54.

<sup>119</sup>Хамид Олимжон. 1951. Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, –Б. 3-5

<sup>120</sup>Хамид Олимжон. 1951. Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, –Б. 65-70.

<sup>121</sup>Эркин Вохидов. 2000. Сайланма. Биринчи жилд. Ишк савдоси. – Тошкент: Шарк, –Б. 14-17.

<sup>122</sup>O'sha joyda.

<sup>123</sup>Абдулла Орипов. 2000. Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, –Б. 38.

<sup>124</sup>O'sha manba. – B. 278.

<sup>125</sup>Шавкат Раҳмон. 1997. Сайланма. – Тошкент: Шарк, –Б. 112..

She'rdagi "o'rikzor", "asov soy", "baqaterak", "tol tagi", "ikki quv" kabi so'z va so'z birikmalari lirik qahramonning olis xotiralarini, uning diliga ilk bora titroq solgan o'tmishini qanday bo'lsa shundayligicha eslab qolganligidan va bu o'tmish uning yodida aslo o'chmas iz qoldirganligidan darak beradi. Shoir muhabbat hislari jo'shgan inson qalbini tabiat obrazlari vositasida tasvirlaydi. "Iliq pichan", "so'lim kulgu", "sirli kecha" tafsillari qahramon kechinmalarini aks ettirishi bilan ahamiyatli: "Yodimdadir iliq pichan, Kulgularing edi so'lim, Bo'salardan to'lgan kecha, Soch silagan titroq qo'lim".

Azim Suyunning "Tunda" she'ri peyzaj lirikasining so'f namunasidir. Unda lirik qahramonning psixologik portreti, qalb olami tabiat manzaralari fonida ochib berilgan.

Tun. Yulduzlar miltirar,  
Soy shovullaydi.  
Tosh. Xira nur yiltirar,  
It vovillaydi.  
Tol ohista egilar,  
Suv ko'z tutadi.  
Qalb tarjima etilar,  
Qalb entikadi...<sup>126</sup>

Shoir lirikasida har bir faslning o'z o'rni, o'z talqini bor. Ular goh azaliy qonuniyatlari bilan namoyon bo'lsa, goh insoniy tuyg'ularining ramzi sifatida inkishof topadi. Demak, hamma gap poetik obrazlarga qanday g'oyaviy vazifa yuklay olishda ekan. Ma'lumki, kuz faslining poetik talqini ko'proq tugab borayotgan umr, armon, hijronning ramzidir. Shavkat Rahmon she'riyatida esa aksincha, u kuz faslining mungli bosimidan o'zini holi tutishga urinadi. Uning kurashchan qalbi yig'loqi kechinmalarini tasvirlamaydi. Bu holat uning lirik qahramoni tabiatiga yot tushunchadir.

Xazonga aylandi kunlarim...  
Motamda turganday boqaman.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Литературная энциклопедия терминов и понятий. – Москва: НПК "Интелвак", 2001.
2. Дилмурод Қуроноу . 2018. Назарий қайдлар. – Тошкент: Akademnashr
3. Izzat Sulton . 2005. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent, O'qituvchi
4. Dilmurod Quronov . Mamajonov M, Sheralieva M. 2010. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr
5. Quronov D. Mamajonov M., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
6. Фейсенко.Э.Я. 2008. Теория литературы. – Москва: Мир.
7. Султонова М. 1983. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан.

Fasllar to'qnashgan lahzada  
Xazonlar to'pini yoqaman.  
Ko'zlarim achishar bexosdan  
Yuragim, qo'llarim ... titraydi.  
Alanga olmaydi kunlarim,  
Tutaydi, oh, muncha tutaydi.<sup>127</sup>

She'rdan o'ychan fasl-kuzning xazonrezgi nafasi sezilib turadi. "Fasllar to'qnashgan lahzada" uning tuyg'ulari ham to'qnashadi. Shoir bu hissiyotni yuksak kolliziyalarda ochib beradi. Ma'lumki, xazon – tugayotgan umr ramzi.

An'anaviy ramzdan foydalanib shoir lirik qahramonning ko'ngil olami manzarasini chizadi.

Peyzajda yana bir tasvir prinsipi ruhiy parallelizm vositasida psixologik portret yaratishda ko'zga tashlanadi. Bunda insonning quvonchi, iztiroblari, qalb tug'yonlari tabiat bilan parallell tarzda tasvirlanadi. Olovlar ichida yashayotgan dil va ruh ana shu olovlar taftida kuyib bitsa, uning uchun hayotining asl ma'nosi yo'qoladi, qizig'i qolmaydi. Bu esa uning ruhiyat olami naqadar keng ufqlarga bo'ylasha olishidan darak beradi. Shu bois u dil va ruhning visolini oydin makonda kechishini istaydi.

**Xulosa.** Peyzaj badiiy asarning tarkibiy qismi bo'lib, asarning mazmun ifodasiga xizmat qiladi, muallif asarda ilgari surgan g'oyaviy maqsadni ifodalashda u bilan uyg'unlashadi, shu jihatdan peyzajning asardagi ahamiyati g'oyani o'quvchiga anglatishda qay darajada ishtirok etgani bilan tavsiflanadi.

Peyzaj vazifalari sifatida quyidagilar tasnif etildi: peyzaj lirik qahramon obrazini yaratishga hissa qo'shadi; adabiy makonning go'zalliklari, xos manzaralarini tasvirlash vositasi sifatida ishlatiladi; joy va harakat bilan bevosita bog'liq bo'lgan fon vazifasini bajaradi; psixologik xususiyatga ega: qahramonlarning ruhiy holatini yo'lg'a qo'yadi yoki kechinmalariga badiiy urg'u beradi; yozuvchining falsafiy mulohazalari manbai bo'lib xizmat qiladi; hayotning ijtimoiy ziddiyatlarini tavsiflash vositasi bo'lib xizmat qiladi; ramziy ma'noga ega bo'lib, badiiy asarning simvolik xususiyatlarini kuchaytirishga hissa qo'shadi.

8. Ойбек. 2004. Чўлпон. Шоирни қандай текшириш керак? Чўлпон ва танқид. – Тошкент: Адабиёт жамғармаси.
9. Эркин Воҳидов. 2000. Сайланма. Биринчи жилд. Ишқ савдоси. – Тошкент: Шарқ
10. Чўлпон. Асарлар. 1 жилд. Шеърлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1994
11. Ҳамид Олимжон. Танланган асарлар. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1951.
12. Эркин Воҳидов. Сайланма. Биринчи жилд. Ишқ савдоси. – Тошкент: Шарқ, 2000.
13. Абдулла Орипов. 2000. Танланган асарлар. Биринчи жилд. – Тошкент: Адабиёт ва санъат.
14. Шавкат Раҳмон. 1997. Сайланма. – Тошкент: Шарқ
15. Азим Суюн. 1997. Сайланма. – Тошкент: Шарқ

<sup>126</sup> Азим Суюн. 1997. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, – Б. 202.

<sup>127</sup> Шавкат Раҳмон. 1997. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, – Б. 112

## BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINING IJODIY FAOLIYATI JARAYONIDA PEDAGOGIK IMPROVIZATSIYANING O'RNI

Kasimova O.A.

Guliston davlat universiteti tayanch dotaranti

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2023-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2023-yil

Jurnal soni: 1

Maqola raqami: 23

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.260>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pedagogik improvizatsiya kompetensiyasi, ta'lim tizimidagi pedagogik improvizatsiyaning ahamiyati, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi faoliyatida improvizatsiyaning amalga oshirish yo'llari haqida so'z borgan.

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

boshlang'ich sinf, improvizatsiya, pedagogik improvizatsiya, improvizatsiya xarakteri, pedagogik muloqot, pedagogik ijodkorlik, ijodkorlik, improvizatsiya mezonlari.

**Kirish.** Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi, o'z kasbini sevishi, bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqat o'qituvchini boshqa kasb egalardan ajratib turadi. Chunki, uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya ishini yuqori saviyada olib borilishi, faqat o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan fanlarni chuqur bilishi zarur. Predmeti va uning nazariyasini chuqur bilishi, uni qiziqishini oshirib, o'qituvchi obro'sini ko'taradi. O'qituvchilar o'quvchi bilimining bu bilimlarni bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uni shu fanga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyiligini ham taqdirlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi milliy qadriyatlarini bilibgina qolmay, uni keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda otashin targ'ibotchisi bo'lishi kerak. Pedagogik faoliyat o'z mohiyatga ko'ra ijodiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida biror muammo turgandagina, ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi. O'qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va tajribasidir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda, biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishini, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz.

**Adabiyotlar tahlili.** Faoliyatning o'zgarigan sharoitlari o'quv jarayonining asosiy tarkibiy qismlariga muvofiq, pedagogik improvizatsiya muayyan darsning maqsadlarini, o'quv materialining mazmunini, uslubiy qabul qilish va muloqotni maqsadga muvofiq ravishda aniqlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

V.N.Xarkinning fikricha, pedagogik improvizatsiya quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi (Xarkin, 1992):

- yaratish va bajarish jarayonlarining mos kelishi yoki ularning minimal bo'shlig'i;

- ularning bevositaligi;

- jamoat xarakteri;

- mantiqiylikning birligi, dastlabki tayanch tushunchasi.

L.Yu. Berixonovanning fikricha, pedagogik improvizatsiya tasodifiy hodisa emas, balki o'qituvchining ijodiy o'qitish faoliyatining tabiiy, ajralmas va juda muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'ylab topilgan narsani optimallashtirishning samarali usuli va pedagogik rejaga muvofiq pedagogik rejani tezkor tuzatish vositasi sifatida ishlaydi. (Paltshev, 2002)

Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o'sish uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni

yaratadi, bu ham martaba o'sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko'tarilish bilan o'lchanadi.

V.I. Zagvyazinskiy ta'kidlaganidek, improvizatsiya yo'qdan paydo bo'lmaydi. Muvaffaqiyatli improvizatsiya faqat yaxshi tayyorlangan zaminda mumkin. Zero, eng yaxshi improvizatsiya bu oldindan tayyorlangan improvizatsiya, deb yarim hazil bilan bejiz aytishmagan. Muvaffaqiyatli improvizatsiyaning asosi odatiy vaziyatlarni tahlil qilish tajribasi, qonunlar va tendentsiyalarni bilish, asosli gipoteza asosida bashorat qilishdir. "Ijodkorlik", deb ta'kidladi V. A. Suxomlinskiy. - bu hech qanday tarzda pedagogik jarayon tushunarsiz, faqat sezgiga bo'ysunadigan va oldindan ko'ra olmaydigan narsa degani emas. Faqat aksincha. Aynan nozik oldindan ko'ra bilish, pedagogik jarayonning ko'plab omillari va qonuniyatlari bog'liqligini o'rganish chinakam ustaga rejani bir zumda o'zgartirish imkonini beradi". (Zagvyazinskiy va boshq. 2005)

Ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari, shaxsga qo'yiladigan kasbiy talablarning kuchayishi o'qituvchining ijodiy individualligini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, individual faoliyat uslubini rivojlantirish zaruratini oshirdi. Ijodiy faoliyatning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik improvizatsiyadir. Tajribali o'qituvchilar o'z faoliyati davomida turli xil pedagogik muammolarni hal qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab texnikalarga ega. Ammo shunday vaziyatlar mavjudki, o'qituvchi tezda qaror qabul qilishi, sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda nostandart vaziyatlarda moslashuvchan bo'lishi kerak. (Abdullayeva Sh va boshq., 2019)

**Tadqiqot metodologiyasi.** Lug'atlarda improvizatsiya tushunchasi etimologik jihatdan ajablanish va ajablanish elementlari bilan bog'liq. Aslida, bu ijodiy jarayon, bu ham uning natijasidir. Musiqiy, raqs yoki boshqa improvizatsiyalar mavjud. O'qituvchilar o'z ishlarida pedagogik improvizatsiyadan foydalanadilar. To'satdan yoki kutilmagan holatlarda paydo bo'lgan vaziyatlarda qanday yo'lni tanlash, improvizatsiya shu yerda va hozir tug'iladi. Bu tanqid, mulohaza yoki baholash bilan to'xtatilmagan, o'ziga shakl va yo'nalish beradigan, muallif "orqali" oqib o'tadigan, uni o'zidan o'tib, mavzu, mazmunning rivojlanishini kuzatish uchun vaqt topadigan ijodiy faoliyat oqimidir.

Pedagogik improvizatsiya (lotincha improvisus - kutilmagan) - o'qituvchining yangi echimlarni ishlab chiqish, shuningdek, paydo bo'lgan pedagogik vazifalarga tez, moslashuvchan va aniq javob berish qobiliyati.

Barcha o'qituvchilar o'z darslarida ma'lum bir sxemadan foydalanadilar. Biroq, ular orasida o'zlarini improvizatsiya qilishga - darsning rejalashtirilgan kursidan chetga chiqishga, unga kutilmagan, tayyor bo'lmagan, to'satdan, shu erda va hozir paydo bo'ladigan narsalarni kiritishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydiganlar ko'p.

Improvizatsiya jarayonida (kutilmagan vaziyat yuzaga kelganligi sababli) o'qituvchilar uchun turli xil xatti-harakatlar mumkin:

- **tabiiy turi:** samarali improvizatsiya harakatlari o'qituvchi uchun psixologik va hissiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarmaydi;
- **stress-transformatsion tip:** yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun shaxsning barcha resurslarini safarbar qilish mavjud;
- **ataylab qochish turi:** o'qituvchining kutilmagan pedagogik vaziyatni bartaraf etishdan ongli ravishda qochishi ("sezmaslik");
- **beixtiyor tormozlovchi turi:** chalkashlik va o'qituvchining harakatlarni to'liq his qilish;
- **hissiy buzilish:** o'qituvchi nazoratsiz, tasodifiy harakat qiladi, ziddiyatni kuchaytiradi, o'zini tuta olmaydi yoki his-tuyg'ularini yashira olmaydi;
- **noadekvat tip:** o'qituvchi o'z his-tuyg'ularini yashiradi, lekin ularni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tajriba va harakatlarga aylantira olmaydi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yuritish olishi, fan yutuqlarini o'quvchiga yetkaza olish va nihoyat o'quvchini ham ijodiy fikrlashga, ilmiy-tadqiqot ishlariga o'rgata olishni Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi, avvalo, tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi davomida buyuk mutafakkirlar, olimlar asarlarini to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida, foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarini egallaydi. Pedagogik tajriba o'qituvchining o'quv ishlari jarayonida egallaydigan bilimi va ko'nikmalari yig'indisidir. Bu o'qituvchining pedagogik mahorati bo'lib, u pedagogika fanining rivojlanishida boshlang'ich omil hisoblanadi.

Pedagogik tajriba to'plash tizimi:

1. Maqsadni belgilash;
2. Tahlil etish, umumlashtirish, xulosa qilish;
3. Yutuqlarni aniqlash;
4. Ma'lumot to'plash.

**Tadqiqot natijalari.** Pedagogik improvizatsiyani faollashtiradigan ichki mexanizm sezgi bo'lib, asosiy harakatlantiruvchi kuch - bu asl pedagogik g'oya va to'g'ridan-to'g'ri ta'lim yoki ta'lim jarayonida paydo bo'lgan yangi g'oya o'rtasidagi nomuvofiqlik, uni amalga oshirishning yanada samarali versiyasi va dars loyihasi (holatlar, hodisalar va boshqalar) va uni amalga oshirishning ob'ekt-sub'ekt shartlari. O'quv jarayonida pedagogik improvizatsiya o'quv aloqasini, uslubiy texnikani, o'quv materialining mazmunini, ta'lim yoki ta'lim maqsadlarini tashkil etish va aniqlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Pedagogik improvizatsiya mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Ob'ektiv mezonlar
  - to'satdan (to'siqning ajablanishi, kutilmagan vaziyatga yoki to'satdan o'zgargan vaziyatga javob berish tezligi, bu harakatning yangiligi, uning g'ayrioddiyligi va kutilgan harakatlarga mos kelmasligi);
  - zudlik bilan (harakatning darholigi);
  - yangilik (o'ziga xoslik darajasi);
  - oshkoralik (tomoshabinlar, improvizatsiya sheriklarining mavjudligi);
  - pedagogik ahamiyati (ta'limga hissa qo'shish, shaxsni rivojlantirish).
2. Subyekt tomonidan improvizatsiyani amalga oshirish mezonlari
  - fikr ishini namoyish etish;
  - ruhiy va hissiy yuksalish;
  - qoniqish hissi.
3. Tomoshabinlar tomonidan idrok etilishidagi improvizatsiya mezonlari ajablanish (kutilmagan narsaga munosabat);
  - kiritish;
  - faoliyat;
  - hissiy sezgirlik;
  - diqqatni jamlash;
  - qiziqishning ortishi;
  - ohang va kayfiyatning oshishi;
  - empatiya chuqurligi.

Ko'tarilgan qoshlar, porloq ko'zlar, beixtiyor imo-ishoralalar, mulohazalar, kulish va boshqalar ko'rsatkich bo'lishi mumkin.

**Muhokama.** Pedagogik improvizatsiyada ijodiy dominantning tarkibiy qismlari diqqat, tasavvur va ilhomdir.

**Tasavvur** - bu mavjud g'oyalar, bilimlar, tajribalar asosida yangi tasvirlar, g'oyalar, fikrlar yaratishdan iborat aqliy jarayon. Tasavvurni inson oldida turgan vazifalar, uning ehtiyojlari, his-tuyg'ulari, dunyoqarashi, oldindan ko'rish zarurati rag'batlantiradi. Tasavvur yaratilgan tasvirlarning yangilik darajasi bilan tavsiflanadi, u rekreativ va ijodiy bo'lishi mumkin. Ijodiy tasavvur jarayonida yangilik va o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan tasvirlar yaratiladi, ko'pincha bu hozir mavjud bo'lmagan ob'ektlarning tasvirlari. Ijodiy tasavvurda shaxsning bilimi, kechinmalari, tajribasi, kuchli irodali va intellektual harakatlari, ongsiz munosabati, sezgi ishtirok etadi.

**Pedagogik diqqatning** o'ziga xosligi shundaki, u bir vaqtning o'zida turli ob'ektlarga (o'quvchilar, dars mazmuni va boshqalar) taqsimlanishi va aniq pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Diqqatni taqsimlash tufayli o'qituvchi ta'lim holatidagi o'zgarishlarni "tutib olishi" va harakat rejasini o'zgartirishga, ya'ni improvizatsiya qilishga qaror qilishi mumkin.

Improvizatsiyani amalga oshirish uchun ilhomning mavjudligi katta ahamiyatga ega.

**Ilhom** - bu insonning kognitiv va hissiy sohalarini bog'langan va ijodiy muammoni hal qilishga yo'naltirilgan eng yuqori ko'tarilish holati. Ilhom, vazifa yoki muammoni qanday hal qilishni to'satdan tushunish bilan chambarchas bog'liq.

Jarayon tuzilishi bo'yicha

- Klassik

- uy vazifasi bilan improvizatsiya qilish

- Aralash yoki o'tish davri improvizatsiyasi (dastlab klassik yoki dastlab uy qurilishi bo'lishi mumkin).

V.A. Kan-Kalik sinfda pedagogik improvizatsiyaning manbasiga qarab beshta variantni aniqladi:

1. Bilvosita induksiya qilingan improvizatsiya (amaliy fikrlash va hissiy barqarorlik muhim rol o'ynaydi);
2. "Ichkaridan" improvizatsiya (o'qituvchining individual ijodiy xususiyatlariga bog'liq);
3. Materialni taqdim etish mantig'idan kelib chiqqan improvizatsiya (pedagogik fikrlashning faol ishtiroki orqali amalga oshiriladi);
4. Introspektsiya va sinfiy idrokga asoslangan improvizatsiya;
5. Pedagogik kashfiyot bilan chegaralangan improvizatsiya ("pedagogik idrok" natijasi).

V.N. Xarkin pedagogik improvizatsiya to'rt bosqichda amalga oshiriladigan murakkab jarayon ekanligini ta'kidlaydi. (Xarkin, 1997)

1-bosqich - insight (insight). Bu bosqichda g'oyaning kutilmagan intuitiv kashfiyoti, original harakat, paradoksal fikr va boshqalar sodir bo'ladi. Ko'pincha tushuncha nostandart vaziyatda yoki hissiy ko'tarilish fonida paydo bo'ladi.

2-bosqich - g'oyani intuitiv va mantiqiy tushunish va uni amalga oshirish usulini tanlash.

3-bosqich - g'oyani intuitiv va mantiqiy tuzatish bilan ommaviy amalga oshirish.

4-bosqich - improvizatsiya natijasini bir zumda intuitiv-mantiqiy tahlil qilish. Improvizatsiya yoki qayta qurish faoliyatini davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

**Xulosa.** Biz pedagogik ijodning tarkibiy qismi sifatida pedagogik improvizatsiyaning xususiyatlariga qisqacha to'xtalib o'tdik. Ijodiy pedagogik faoliyatni o'qituvchining faoliyat sharoitiga, o'z ijodiy salohiyati va farovonligiga, o'quvchilar jamoasining kayfiyatiga, pedagogik rejani o'z vaqtida amalga oshirish va tuzatish qobiliyatsiz to'liq amalga oshirib bo'lmaydi ya'ni improvizatsiya qilishni maqsadga muvofiq va pedagogik jihatdan asoslash qobiliyatsiz amalga oshirish mushkul. Improvizatsiyani bo'lajak o'qituvchilar va yosh o'qituvchilarga maxsus ishlab chiqilgan mashqlar tizimi yordamida o'rgatish kerak, ularning o'ziga xos xususiyati odatiy bo'lmagan pedagogik vazifani hal qilish uchun ajratilgan vaqtni maqsadli ravishda qisqartirish va asta-sekin kamaytirishdir. Bu yerda o'qituvchining improvizatsiyaga tayyorligi haqida gapirish kerak.

Demak, darsning pedagogik loyihasi va uni amalga oshirishning yangi, kutilmagan, to'satdan paydo bo'luvchi holatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishning samarali vositalarini topishning tabiiy ehtiyoji mavjud. Bu pedagogik improvizatsiya bo'lib, u o'ziga xos

"tartibga soluvchi" vazifasini bajaradi, u o'qituvchining g'oyalari uning ijodiy farovonligi va o'quv jarayonining haqiqiy sharoitlariga mos kelishini ta'minlashi kerak. Pedagogik faoliyatning improvizatsiyaviy tabiati o'qituvchining muvaffaqiyatga erishish, kasbiy va shaxsiy o'sish

uchun axloqiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, bu ham martaba o'sishi, ham mahorat va donolikning eng yuqori darajasiga ko'tarilish bilan o'lchanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, Sh. Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Darslik.- T.: Fan va texnologiyalar, 2019.
2. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. М., 1987
3. Мягкая, Е. Б. Роль педагогической импровизации в процессе творчества будущего педагога / Е. Б. Мягкая. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 42 (332). — С. 55-57.
4. Палтышев, Н.Н. Постижение педагогического мастерства / — Москва: Изд.центр АПО, 2002. — 64 с.
5. Ro'ziyeva D.I., Tolipov O'Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat. —T.: Innovatsiya-ziyo, 2019.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik —T.: Sano-standart, 2017.-
7. Харькин В.Н. Педагогическая импровизация: теория и методика. М., 1992 г. - 264с.
8. Харькин В.Н., Импровизация... Импровизация? Импровизация!. Магистр, 1997 г., - 288 с.
9. Загвязинский В.И., Атаханов Р. Методология и методы психолого-педагогического исследования: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. пед. образовательные учреждения. М., 2005.
10. Щербакова Т. Н. Импровизация как компонент творчества современного педагога — // Педагогическое мастерство : материалы IV Междунар. науч. конф. (г. Москва, февраль 2014 г.). — Москва : Буки-Веди, 2014. — С. 13-16.





## XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS) ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Safarov Botir Norboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: [botirsafarov8989@gmail.com](mailto:botirsafarov8989@gmail.com)

tel: +99897 916-89-89

### MAQOLA HAQIDA

**Qabul qilindi:** 24-mart 2023-yil

**Tasdiqlandi:** 26-mart 2023-yil

**Jurnal soni:** 1

**Maqola raqami:** 24

**DOI:** <https://doi.org/10.54613/ku.v6i6.261>

### KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords

PIRLS, xalqaro baholash, o'qish savodxonligi sifatleri, xalqaro tadqiqotlar, TIMSS, PISA, IEA, xalqaro rivojlantirish dasturi, ishtirokchilar.

### ANNOTATSIYA

Maqolada PIRLS-Xalqaro o'qish savodxonligi va unga xos sifatlar ma'no xususiyatlari ochib berilgan; PIRLS-Xalqaro o'qish savodxonligining ma'no xususiyatlari birlamchi manbalarga tayanilib tahlil qilingan.

